

Alisher Navoiy nomidagi Samarkand Davlat Universiteti

«TASDIQLAYMAN»
O'quv ishlari bo'yicha prorektor
_____ prof. N.Eshqobilov
«_____» _____ 2012 yil

**«Siyosatshunoslik. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti»
kafedrası**

Bakalavriyat ta'limi yo'nalishi bo'yicha

«POLITOLOGIYA» FANI BO'YICHA

MA'RUZA MATNI

(4 kurs talabalari uchun)

Tuzuvchi:

dots. M.J.Muxtorov

Siyosatshunoslik. Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti kafedrasining 2012 yil 27 avgustdagi yig'ilishining 1 – son bayonnomasi bilan tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

dots. M.J.Muxtorov

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti o'quv-uslubiy kengashining 2012 yil 29 avgustdagi №1 bayonnomasi bilan ma'qullangan.

dots. A.Ro'zimurodov

Ijtimoiy-iqtisodiyot fakulteti ilmiy kengashining 2012 yil ____ avgustdagi №1 qarori bilan tasdiqlangan.

Ilmiy kengash raisi:

prof. B.To'rayev

Samarqand – 2012 yil

K I R I Sh

Mustaqillikning yigirma bir yili davri mobaynida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangilanish, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat kurilishini yanada erkinlashtirish jarayoni barcha sohalar kabi ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularning mazmun-mohiyatini davr talablari asosida qaytadan o'zgartirish vazifasini ko'ydi. Prezident I. A. Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Senatining ko'shma majlisida so'zlagan nutqida ta'kidlab o'tganidek, «Bizning asosiy o'zoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohatlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay izchil va qat'iyat bilan borishdir»¹.

Bugungi kunda siyosatshunoslikning asosiy tushunchalarini, ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi siyosiy faoliyat, davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining ish usullarini, siyosat va insonning, davlat va jamiyatning o'zaro munosabatini anglashga tobora ko'proq yehtiyoj paydo bo'lmoqda.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek: «...dunyoda yuz berayotgan tub o'zgarishlar jarayonida yegallab turgan o'rnimizni xolisona va tanqidiy baholashimiz, tobora oshib borayotgan hayot talablariga javob berishimiz, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishimiz»¹-talabi amalga oshirilishi dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda.

Ana shu maqsad va talablardan kelib chiqqan holda tayyorlangan «Siyosashunoslik» fani dasturi siyosiy fan sohasida yerishilgan yutuqlar, O'zbekistonda fuqarolik, fuqarolik jamiyati qurish va rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari hamda tajribalari, islohotlarning yangi bosqichini boshlab bergan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ilgari surilgan konseptual g'oyalarga o'zida aks yettiradi.

Shuningdek, dasturda fanning maqsadlari, vazifalari va mazmuni ifodalangan bo'lib, unga doir asosiy tushunchalar, ilmiy konsepsiyalar, tamoyillar, siyosiy jarayonlarning mazmun-mohiyatiga oid masalalar qamrab olingan.

O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda siyosiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, siyosiy jarayonlar to'g'risida xolis va mustaqil fikrlashga o'rgatish, fuqarolik pozitsiyasini va mus'uliyatini tarbiyalash, yetuk mutaxassis sifatida jamiyatimiz hayotining turli jabhalarida faoliyat ko'rsatishlari uchun zamin yaratish, talabalarning mamlakatda bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar, ularni amalga

¹ Karimov I. A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: «O'zbekiston», 2005 y, 34 – b.

¹ Qarang: Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2010 yil 12 noyabr. – T.: «O'zbekiston», 2010 y. 6-bet..

oshirish strategiyasining mazmun-mohiyati, siyosiy tizimni modernizasiya qilish va demokratlashtirish bosqichlari, O'zbekistonning jahon siyosiy tizimida tutgan o'rniga doir ma'lumotlarga yega bo'lishi, ularni xolisona va tanqidiy baholay olishi, tobora ortib borayotgan hayot talablariga javob berishi, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishlariga erishishdan iborat.

O'quv fanining vazifalari:

- Talabalarga siyosashunoslik fanining mazmuni, mohiyati, predmeti, tarkibi to'g'risida dastlabki tushuncha va tasavvurlarni berish;
- Siyosatni ijtimoiy hayotning alohida sohasi sifatida o'zlashtirish, uning siyosashunoslik obekti va predmeti sifatida xususiyatlari, mazmuni, tarkibi va vazifalarini o'rganish;
- Talabalarni davlat hokimiyatiga doir nazariy konsepsiyalar bilan tanishtirish, hokimiyat shakllarini, hokimiyatning qadriyatiy-me'yoriy jihatlarini, shu jumladan, legitimlik tushunchasini o'rganish;
- Siyosiy aktorlar tizimini (inson, siyosiy yetakchilar, siyosiy yelitalar, manfaatli guruhlar, siyosiy partiyalar) shu bilan bog'liq ravishda hokimiyat va ijtimoiy-siyosiy manfaatlar o'zaro ta'sirini va keyingilarining hokimiyat mexanizmlari orqali namoyon bo'lishi xususiyatlarini ko'rsatish;
- Talabalarni davlat va fuqarolik jamiyati munosabatlari, ularning o'zaro aloqadorlik mexanizmlari bilan tanishtirish;
- Siyosatning subektiv asoslari-siyosiy ong, siyosiy psixologiya, siyosiy mafkuralar va siyosiy madaniyatning shakllanishi va amal qilishi bilan bog'liq masalalarni o'rganish;
- Talabalarning siyosiy jarayonlarda ongli va faol ishtirok yetish malaka va ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar

«Siyosatshunoslik» fanini o'rganish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

- Siyosiy bilim va siyosiy fanlar hamda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'zaro aloqadorligi, siyosashunoslikning shakllanishi va rivojlanishidagi asosiy bosqichlar, siyosiy fan tarkibi, siyosiy fanning asosiy kategoriyalari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- Jamiyat hayotining siyosiy sohasi nimalardan iborat yekanligi, siyosatni tushuntirishning zamonaviy modellari, siyosat jamiyatning boshqa sohalari bilan aloqalari tabiatini anglash;
- Siyosatning bevosita va bilvosita subektlari, ularning tuzilishi, mohiyati, tarkibi, asosiy funksiyalari va bu boradagi yetakchi nazariy yondashuvlarni bilishi;
- Siyosiy tizim, modernizasiya va demokratlashtirishga doir zamonaviy nazariyalarni bilishi;
- Olingan bilimlarni xolisona va tanqidiy baholay olishi, kechayotgan davr bilan hamqadam bo'lishi siyosatshunoslikning asosiy tushunchalari tizimini amalda qo'llay olishiga erishishdan iborat.

Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

«Siyosatshunoslik» fani oliy ta'limning bakalavr bosqichida o'qitiladigan «O'zbekiston tarixi», «Falsafa», «Sosiologiya», «Ma'naviyat asoslari», «Madaniyatshunoslik», «Huquqshunoslik», «Milliy g'oya:» asosiy tushuncha va tamoyillar», «O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan uzviy bog'liq holda o'qitiladi.

Ushbu fanni o'rganish – yosh avlod kamoloti, mamlakatda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning zarur shartidir. Aynan shu ma'noda, siyosatshunoslik fani siyosat sohasida ro'y berayotgan jarayonlarni o'zaro aloqadorlikda tushuntirib, ularni keltirib chiqargan sabablarni tahlil qilib beradi. U siyosatni hodisa va harakatlarning tasodifiy birligi tarzida yemas, siyosiy iroda va manfaatlarning o'zaro ta'siri va siyosiy institutlar imkoniyatlarini amalga oshirish tarzida tushuntiradi. Demak, siyosiy bilim – yoshlarning siyosiy hayot haqidagi tasavvurlarining tartibga soladi. Shunday bilimga yega odam hozirgi kunda jahonda va mamlakatimizda sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlarni yaxshi tushunadi, bu jarayonlarda ongli va faol ravishda ishtirok yetadi.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni

Bugungi kunda yosh avlodni zamonaviy fan tuqtalariga asoslangan siyosiy bilimlar bilan qurollantirish – raqobatbardosh mutaxassis kadrlarni tayyorlashning zarur shartidir. Yosh mutaxassislarning siyosiy tafakkur va madaniyatini shakllantirishga, mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etishiga ehtiyoj va talablar ortmoqda. Shu sababdan siyosatshunoslikni o'qitish – barcha ta'lim yo'nalishlarida ilmiy fikrlovchi, siyosiy jihatdan savodxon kadrlar tayyorlashda, ularda yetakchilik va rahbarlik ko'nikmalarini shakllantirishda ahamiyatlidir.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar

«Siyosatshunoslik» fanini o'qitishda, an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda (ma'ruza, monolog) zamonaviy axborot-pedagogik texnologiyalar faol qo'llaniladi. Jumladan, guruhlarda ishlash strategiyalari, aqliy hujum, bahs-munozara, matbuot konferensiyasi, o'qish va yozuv metodikalaridan faol foydalaniladi.

Mazkur uslubiy qo'llanmani yaratishda Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi kengashning 2011 yil 9 sentyabrdagi 3 sonli majlis bayoni bilan tajriba dastur sifatidagi namunaviy dasturdan foydalanildi.

1-Mavzu: POLITOLOGIYA FANI PREDMETI VA UNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FANLAR TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA ROLI

REJA:

1. Politologiya predmeti va uning uslublari.
2. Politologiyaning qonun va kategoriyalari.
3. Politologiyaning boshqa ijtimoiy fanlar bilan bog'liqligi va nisbiy mustaqilligi.

TAYaNCh IBORALAR:

Politologiya, davlat, jamiyat, siyosiy faoliyat, siyosiy munosabatlar, siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy guruhlar, siyosiy institutlar, siyosiy obyekt va subyekt, siyosiy ong va siyosiy madaniyat. Qonun, kategoriya, umumiy qonunlar va xususiy qonunlar, davlatning ichki va tashqi hayotida amal qiladigan qonunlar, xususiy va umumiy kategoriyalar, politologiyaning asosiy kategoriyalari. Ijtimoiy fanlar turkumi, Politologiya fani, nisbiy mustaqillik, dialektik va tarixiy-mantiqiy usul, ijodiy harakter, Konfliktologiya, Karomatshunoslik.

Politologiya fanining mohiyati bilan tanishishdan oldin, uning lug'aviy ma'nosini bilib olishimiz lozim. Politologiya - yunoncha «polis» so'zidan olingan bo'lib, davlat yoki ijtimoiy ish hamda, «Logos» - ta'limot, ya'ni siyosatni o'rganish to'g'risidagi ta'limotdir. Lekin, bundan Politologiya fanining mohiyati shundan iborat ekan, degan xulosa chiqarilmasligi kerak. Chunki Politologiya fanining mohiyati va mazmuni uning lug'aviy ma'nosiga nisbatan keng va ko'p qirrali bo'lib hisoblanadi.

U boshqa ijtimoiy fanlardan farqli o'laroq jamiyat siyosiy tizimining shakllanishini, uning rivojlanishini, ijtimoiy guruhlar, xalqlar, shaxs va davlatlarning o'zaro aloqadorligi va harakatga keltiruvchi qonuniyatlarini urganadi. Qisqacha qilib bayon etilsa: Politologiya fanining o'rganadigan obyekti bu jamiyat va ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatib kelayotgan katta qatlamlar, ijtimoiy guruhlar, uning predmeti esa - siyosat, siyosiy munosabatlar, hokimiyatdir.

Uning urganadigan obyekti keng va tor ma'noda bo'lishi mumkin:

keng ma'noda: siyosiy jarayonlar, siyosat nazariyasi, siyosatning turli shakllari: hokimiyat, hokimiyat uchun kurash va konsensus shakllarida namoyon bo'lishi; **Tor ma'noda:** ma'lum ma'muriy-hududiy birlik, mintaka va jumxuriyatdagi siyosiy jarayonlar, hokimiyatni boshqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolar.

Politologiya predmeti siyosiy hayot, uning mazmuni, tuzilishi va funksiyalari, siyosiy tuzumning vazifalari, rivojlanish qonunlari, uning siyosiy hokimiyatni amalga oshirishda tutgan o'rni va roli haqidagi, siyosiy munosabatlar sohasidagi maqsad, vazifa, qonuniyatlar, harakatlanuvchi kuchlar, siyosiy jarayonlar, sosial subyektlar faoliyati va ularni tashkil qilish haqidagi bilimlar tizimidan iborat.

Yuqorida qayd etilgan masalalarni umumlashtirgan holda olib qaralsa, bu bevosita jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy munosabatlar va bu jarayonlarni boshqarib turuvchi siyosat subyektlarini harakatga keltiruvchi omillarni nazariy,

ilmiy va amaliy asoslab berish Politologiya fanining asosiy mag'zini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda Politologiya fanining ta'rifini bilib olish va o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega. Mazkur fan to'g'risidagi ta'rifni «Politologiya» darsligida juda aniq bayon qilib berilgan: «Politologiya» jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarini hamda jahon siyosatining xilma-xil masalalarini va ularda namoyon bo'lish yoki ta'sir etish xususiyatlarini o'rganuvchi fandır. Jamiyatni boshqarishga va undagi muammolarni hal qilishga daxldor bo'lgan davlat, siyosiy partiyalar va harakatlar, halqaro siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy hamda ommaviy jamoat tashkilotlari hamda ijtimoiy guruhlarining siyosiy faoliyati ham «Politologiya»ning predmetini ifoda etadi»¹. Politologiya faniga berilgan ta'rifning mohiyatini anglash va tushunib olish uchun birinchi navbatda uning ilmiy-nazariy va metodologik asosini tarixiy shart-sharoitlari va rivojlanishining asosiy bosqichlari, kishilik jamiyatida siyosatning tutgan o'rni va roliga diqqat e'tiborni qaratishni taqozo etadi.

Kishilik jamiyati paydo bo'lgandan so'ng ijtimoiy hayotni boshqarish uchun kishilar o'rtasida siyosiy munosabatlar shakllana boshlagan. Bu o'z navbatida, siyosiy qarashlarning shakllanishi uchun zamin tayyorlagan va shu asosda Politologiya fani vujudga kelgan. U dastavval Yunonistonda, keyinchalik Sharq, so'ngra G'arb mamlakatlarida yuzaga keldi.

Har bir ijtimoiy fanda bo'lgani singari Politologiyada ham jamiyatning siyosiy hayotini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berish uchun o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan uslublarga ega. Bunday uslublardan biri hamma ijtimoiy-gumanitar fanlarda kullanayotgan **dialektik uslubdir**. Ma'lumki, kishilik jamiyati bir tekisda rivojlanmay, balki ko'tarilish, pasayish, sakrash, ziddiyatlar, qarama qarshiliklar bo'lib turishi asosida faoliyat ko'rsatadi. Bu bevosita jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham jamiyat hayotida yuz berayotgan bunday ziddiyatli siyosiy voqyea-hodisalarni dialektik uslub asosida tahlil qilish va kishilar ongiga singdirish muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat siyosiy hayotini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishda Politologiyada qullaniladigan uslublardan yana biri **tarixiy-mantiqiy uslubdir**. Bu uslubni qullashda asosiy diqqat-e'tibor jamiyat tarixiy taraqqiyotining turli davrlarida, bosqichlarida siyosiy hayot, kishilar o'rtasida bo'lgan siyosiy munosabatlar qay darajada bo'lgan, jahon siyosiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlar va ularni qiyoslash, davlatlar o'rtasida bo'lgan siyosiy munosabatlar va ularni taqqoslash kabi masalalarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilishi lozim.

Politologiya fani uslublaridan yana biri **empirik sosiologik uslub** bo'lib hisoblanadi. Bu uslubni qullash asosan jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy munosabatlarda ro'y beradigan o'zgarishlar, kishilarning siyosiy ongi va madaniyati qay darajada shakllanganligi kabi masalalarni aniqlab olib davlatni, hokimiyatni boshqarishda qullash uchun sosiologik tadqiqotlar, so'rovlar olib borish bilan bevosita bog'liq bo'lgan jarayondir.

¹Ramazonov I., Muminov E. «Politologiya», Toshkent, «Adolat» nash., 1997 yil 11-bet.

Politologiya fanida yuqorida qayd etilgan umummetodologik uslublar qullanishi asosida jamiyatning siyosiy hayotini, siyosiy munosabatlarini, siyosiy jarayonlarini ilmiy-nazariy asosda bilib olishga erishish uchun zamin yaratiladi.

Politologiya fani kuyidagi o'ziga xos bo'lgan funksiyalarni bajaradi:

- 1) Kishilik jamiyatida ro'y beradigan siyosiy voqyea-hodisalarni va o'zgarishlarni nazariy asoslab berish;
- 2) Ijtimoiy-siyosiy hayotda, davlatlarda va halqaro maydonda bo'layotgan turli siyosiy muammolarni hal qilish yo'llarini ko'rsatib berish;
- 3) Jamiyat a'zolarining siyosiy ongini, dunyoqarashini shakllantirish;
- 4) Oldindan bashorat qilish;
- 5) Amaliylik.

Nazariy asoslash – kishilik jamiyatida yuz berayotgan hodisalar va jarayonlarni tadqiq qilish, tartibga solish, so'ngra uni tahlil qilib tushuntirish, ijtimoiy-siyosiy hayotning qonuniyatlari va kategoriyalarini o'rganish, ijtimoiy-siyosiy voqyeliklarning o'zaro aloqadorligi, bog'liqlari to'g'risidagi nazariya va ta'limotlarni ishlab chiqish demakdir.

Uslubiylik sohasida Politologiya falsafa kategoriyalaridan keng foydalanadi. Ilmiy kategoriyalarni ishlab chiqish, siyosiy jarayonlarni ijtimoiy taraqqiyotini, uning siyosiy tizimida tutgan o'rnini aniqlash, shuningdek, samaradorlik mezonlarni o'rganish kabilar Politologiyaning vazifasi bo'lib hisoblanadi. Bu jihatdan olib karalganda Politologiya faqat amaliy (yempirik) ahamiyat kasb etmasdan, balki nazariy mohiyatga ham molikdir. Chunki, jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarib borish jarayonida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan ilmiy tushunchalarni nafaqat ishlab chiqish, balki hayotda qullashga ham to'g'ri keladi.

Dunyoqarashlik funksiyasi – davlatlar, partiyalar, ijtimoiy birlashmalar, siyosiy rahbarlar ishlab chiqqan dasturlarida, ilgari surilgan qarashlar sistemasining mohiyatini anglab olish va ularni amaliy faoliyatida qullash jarayonlarida qarama-qarshi tomonlarini ochib berishga harakat qilishdan iborat. Shuning uchun ham dunyoqarashlik funksiyasi yangicha siyosiy tafakkur, siyosiy madaniyatni shakllantirishga zamin yaratadi.

Oldindan bashorat qilish – siyosiy jarayonlarni nafaqat tushunib olish, balki uning kelajakdagi rivojlanishini, siyosiy yo'nalishlarini ham oldindan ko'ra bilish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini bilib olishdan iborat. Turli mintaqalardagi siyosiy voqyealarning kelib chiqishini oldindan aytish, o'tkazilayotgan aksiyalarning (biror maqsadga qarata qilingan harakat) oqibatlarini oldindan hisobga olish juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliylik – bu siyosiy bilimlar saviyasini oshirish mexanizmi yo'llarini ishlab chiqishdagi aniq tavsiyalardir. Bu, o'z navbatida siyosiy qarorlar va siyosiy normalar samaradorligini, jamoatchilik fikrining qay darajada ekanligini, siyosiy tizimlar, institutlar va shunga uxshash munosabatlarni yanada chuqurroq bilib olishga zamin yaratadi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotda sodir bo'layotgan voqyea-hodisalarni bilib olish va o'zlashtirish ilmiy tushunchalar (kategoriyalar) orqali amalga oshirish mumkin bo'ladi. Har bir fanda bo'lgani kabi Politologiya fanida ham o'ziga xos bo'lgan tushunchalar mavjud. Bu ilmiy tushunchalar boshqa fanlar kategoriyalaridan farqli

ularoq jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqyea hodisalarni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan tomonlarini aks ettirib, tushuntirib beradi.

Politologiya fanining kategoriyalariga quyidagilar kiradi:

Siyosat, siyosiy munosabatlar, siyosiy faoliyat, siyosiy jarayon, siyosiy xulq-atvor, siyosiy hokimiyat, siyosiy ta'limot, siyosiy g'oya, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, milliy siyosat, kadrlar siyosati va tashqi siyosat, ichki siyosat, siyosiy hayot, siyosiy tizim, siyosiy fikrlar, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura, siyosiy ruhiyat va boshqalar. Bu kategoriyalar o'z mohiyatiga ko'ra siyosiy voqyealar, jarayonlarning muhim asosiy bo'g'inlarini umumlashgan holda ochib beradi.

Jamiyatda, ijtimoiy tuzumlarda yuz berayotgan siyosiy voqyea hodisalar, jahon miqyosida sodir bo'layotgan siyosiy jarayonlar, munosabatlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan qonuniyatlar orqali rivojlanadi, taraqqiy etadi. Bunday siyosiy vokeliklarning sodir bo'lishini Politologiya fani qonunlari va kategoriyalari nazariy ilmiy jihatdan tahlil qilib beradi.

Politologiya fanining qonunlarini ijtimoiy-siyosiy hayotda amal qilish xususiyatlariga ko'ra ikki katta guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga davlatlar, mamlakatlar ichki siyosiy hayotida amal qiladigan qonunlar kiradi. Bunga ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratlashtirish, erkinlashtirish, siyosiy hokimiyat mexanizmlarini ishga solish va undan unumli foydalanish, hayotni siyosiy boshqarishni amalga oshirish uchun referendumlar o'tkazish kabilar amal qildi.

Ikkinchi guruhga halqaro siyosiy munosabatlarga amal qiladigan qonunlar kiradi. Bunda halqlar va davlatlar o'rtasida siyosiy hamkorlikni tashkil etish va rivojlantirish, halqaro nizo va kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan bartaraf etish vositalaridan foydalanish, umumjahon, umumbashariy muammolarni hal qilishda siyosiy kelishmovchilik yo'llaridan, vositalaridan foydalanish usullari kiradi.

Jamiyatni, ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarishda bu har ikkala guruhdagi masalalarga siyosiy qonunlar orqali yondoshilmasa yoki amal qilinmasa unda ijtimoiy-siyosiy hayotda salbiy holatlarni keltirib chiqaradi. Bunga jahon miqyosida yuzaga kelgan ekologik va Orol muammolari yaqqol misol bo'laoladi.

Politologiya fanining quyidagi qonunlari mavjud:

1. Siyosiy jarayon oqimidagi siyosiy munosabatlarga kirishayotgan tomonlarning har tomonlama tub manfaatdorligi qonuni. Bu qonun umumiy manfaatlarni ifodalash vositasi sifatida ham, jamiyatning sinfiy oraga nifoq soluvchi qarama-qarshiliklarining bir butunligini ta'minlash vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Sinfiylik va umumijtimoiylik dialektikasini to'g'ri tushunish va rioya qilish fuqarolik, milliy, sinfiy totuvlikka olib keladi, milliy, guruhiy, shaxsiy manfaatlarning o'zaro aloqasini mustahkamlashga zamin hozirlaydi.

2. Jamiyat siyosiy tizimining uyg'un amal qilish qonuni. Siyosiy kurash, siyosiy barqarorlik, siyosiy tizimning yashovchanligini ta'minlash, siyosiy manfaatlarning uyg'unlashtirish bu qonunning asosiy mag'zini tashkil etadi. Har qanday siyosatchi ham lavozimga erishgach, jamiyatdagi munosabatlarni uyg'unlashtirishga, barqarorlashtirishga, siyosiy to'g'nashuvlarning siyosiy inqirozlarga aylanib ketmasligiga, siyosiy kuchlarning o'zaro aloqadorlikka erishishiga va siyosiy kuchlarning tuqnashuviga yo'l quymaslikka harakat qildi. Ayni

shu ma'noda Politologiya fanining ilmiy dunyoqarashi va amaliyot sohasidagi asosiy vazifalaridan biri siyosiy baxslarni tinch yo'l bilan demokratik tarzda hal etish yo'nalishlari, shakllari va tavsiyalarini ishlab chiqish hisoblanadi. Bugungi siyosat yangicha tafakkur qilish, kuch ishlatmaslik, muloqot, muzokora olib borishda iborat.

Z. Siyosiy manfaatlar, siyosiy munosabatlar va siyosiy faoliyatlarning o'zaro ta'siri qonuni. Siyosiy manfaat va siyosiy faoliyat – bu Politologiyaning ikki alohida-alohida kategoriyalari, ammo ular bir-birisiz yashaolmaydi. Siyosiy manfaatlar - bu siyosiy faoliyatni uyg'otuvchi omildir. Siyosiy manfaatlarni aniqlash, bilib olingandan so'nggina natijalarini aniqlash mumkin bo'ladi. O'z navbatida siyosiy faoliyat siyosiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi. Siyosiy munosabatlar siyosiy faoliyatning shart va natijasidir. Shu jarayondan siyosiy manfaatlar, siyosiy munosabatlar va siyosiy faoliyatning o'zaro ta'siri qonuni vujudga keladi, bu qonun muayyan barqaror siyosiy tartibot sharoitida samarali amal qildi. O'z navbatida, siyosiy tartibot shu qonun ta'siri ostida shakllanadi, mustahkamlanadi.

4. Siyosiy munosabatlarda siyosiy madaniyat zarurligi qonuni. Siyosiy madaniyat siyosiy xulq-atvor darajasida, siyosiy jarayonlar tajribasida, parlament, ijroiya organi, siyosiy partiyalar, birlashmalar, siyosiy rahbarlar (liderlar), har bir shaxs (indevid) faoliyatida ham ifodalanishi mumkin. Bu qonun dasturlar, siyosiy xatti-harakatlarning real, hayotiy bo'lishini taqozo etadi.

5. Iqtisodiyot va siyosatning dialektik birligi va mutanosibligi qonuni. Bu qonun iqtisodiyotning birlamchiligi, jamiyat taraqqiyotining moddiy bazasi ekanligini, ammo siyosat esa ushbu iqtisodiy bazaning mustaqil ishlashiga xizmat qilib, iqtisodiyotni boshqarish, moddiy ishlab chiqarish mahsulotlarining jamiyatdagi taqsimoti, xo'jalik hayotini yo'naltirish jarayonlarini tashkil etadi.

6. Siyosiy munosabatlarning ma'naviy-axloqiy asoslarda amal qilishi zarurligi qonuni. Jamiyatning ma'naviy-axloqiy qadriyatlari sohasida yuritiladigan bu qonun barcha yo'nalishlarda amalga oshiriladigan umumiy va xususiy, umuminsoniy va sinfiy, baynalminal va milliy tomonlarni mutanosib tarzda inobatga oladi.

7. Ichki siyosat va tashqi siyosatning dialektik birligi qonuni. Ichki va tashqi siyosat biri ikkinchisini tuldiradi, biri ikkinchisiga bog'liq bo'lgan, uzviy aloqadorlikda bo'lgan sohadir. Bu borada bir biriga zid kelmaydigan, aksincha har ikkala sohaning rivojlanishiga yordam beradigan dasturlar, kelajak yo'nalishlari belgilanishi zarur.

8. Halqaro munosabatlarda yangicha siyosiy tafakko'ring amal qilishi zarurligi qonuni. Bu qonun dunyoning birligi va yaxlitligini xis etish va tan olish, termoyadro, ekologik haloqati ro'y berishi kulami kengayib borayotganligini, kuch ishlatishning ijtimoiy oqibatlarining mohiyatini ochib beradi.

Politologiya falsafa, tarix, iqtisod nazariyasi, sosiologiya, siyosiy ruxshunoslik, siyosiy antologiya va boshqa ko'pgina fanlar bilan uzviy bog'liqdir.

Politologiyaning falsafa bilan uzviy bog'liqligi shundan iboratki, falsafa ham, Politologiya ham jamiyat siyosiy tizimini, davlat, ijtimoiy guruhlar, siyosiy ong va siyosiy madaniyatning shakllanish jarayonlarini urganadi. Ammo Politologiyaning falsafadan farqi shundaki, u kishilik jamiyatining umumiy taraqqiyot qonunlarini, bir butun dunyoqarashning shakllanish jarayonini emas, balki siyosiy hayotning shakllanishi, uning mohiyati, siyosiy munosabatlarning mazmuni va bularning

rivojlanish qonuniyatlarini urganadi. Shuning uchun ham garchi ular o'zaro aloqada bo'lsalar ham Politologiya nisbiy mustaqillikka egadir.

Politologiya tarixiy fanlar bilan ham chambarchas bog'liqdir. Tarixiy fanlar jamiyat hayotini, shu jumladan, siyosiy jarayonlarni urganadi. Ammo, tarix fanlari jamiyatda, ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'layotgan muammolarning siyosiy jihatlarini chuqur urganmaydi. Ushbu sohalarni Politologiya predmeti urganadi.

Politologiya iqtisodiy nazariya bilan ham chambarchas bog'likdir. Hozirgi kunda ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan iqtisodiy islohatlar, ayniqsa bozor munosabatlarga utilayotgan paytda jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy manfaatlarini uyg'unlashtirayotgan bir paytda muhim ahamiyatga egadir.

Jamiyatni siyosiy boshqarib borish jarayonida iqtisodiy siyosat nazariyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish, davlat, siyosiy partiyalar va harakatlar, siyosiy tashkilotlar tomonidan tartibga solib turuvchi tamoyillarni ilmiy asoslab berish Politologiya yo'nalishlaridan biridir. Bu esa, Politologiyaning iqtisod nazariyasi bilan bog'liqligini va bir-birini taqozo etishini anglatadi.

Politologiya sosiologiya bilan ham uzviy aloqada. Sosiologiya ijtimoiy guruhlar, millatlar o'rtasidagi munosabatlarni, kishilar ijtimoiy xatti-harakatining umumiy qonuniyatlarini, kishilarning ongi va (tadqiq etadigan) xulq-atvorini o'rganadi. Sosiologiyaning mazkur o'rganadigan va tadqiq etadigan sohalari bevosita siyosiy hayot bilan aloqada bo'lishini taqozo etadi.

Politologiya huquqshunoslik va huquqiy fanlar bilan chambarchas bog'langandir. Huquqiy fanlar voqyea va hodisalarni rasmiylashgan, jamiyat tomondan belgilangan qoida tusini olgan tartiblarini o'rganadi. Bu esa o'z navbatida, Politologiya bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, bunday holatlar davlatni, hokimiyatni siyosiy boshqarib borishda qullaniladi. Shuning uchun ham Politologiya fani huquqshunoslik faniga tayangan holda siyosiy hayotning ushbu tomonlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Politologiya fani boshqa ijtimoiy fanlar bilan uzviy bog'liq. Lekin shunga qaramasdan u mustaqil fan sifatida jamiyatning siyosiy hayotini nazariy asoslab beradi.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida doimiy ravishda o'zgarishlar, yangiliklar bo'lib turadi. Bunday sodir bo'layotgan o'zgarishlarning, vujudga kelayotgan yangiliklarning kelib chiqishi va taraqqiy etib borish jarayonlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan asoslab berish Politologiya fanining vazifasi bo'lib hisoblanadi. Shuni hisobga olsak, Politologiya ijodiy harakterga ega bo'lib, ijtimoiy hayotda bo'layotgan siyosiy o'zgarishlarning vujudga kelish sabablarini, ularning ta'sir etuvchi omillarini nazariy-amaliy jihatdan tahlil qilish va tushuntirib berishini taqozo etadi. Masalan, keyingi yillarda ma'muriy-buyruqbozlik totalitar tuzumi barbod bo'lgandan keyin ijtimoiy-siyosiy hayotda tub o'zgarishlar yuz berdi. Bu o'zgarishlarning kelib chiqish sabablaridan biri konfliktning (to'qnashuv) kuchayib ketishi sabab bo'ldi. Shu munosabat bilan Politologiyaning yangi yo'nalishi bo'lmish siyosiy konfliktlar nazariyasi, ya'ni konfliktologiya fani vujudga keldi. Bu fan siyosiy tuknashuvlar okibatlarini oldini olish bo'yicha zarur tavsiyalar ishlab chiqadi va ijtimoiy-siyosiy hayotga tatbiq etadi. Shuning uchun ham zamon, davrning utib

borishi jarayonida Politologiya fani yangi-yangi nazariyalar, qarashlar, tavsiyalar va xulosalar bilan boyib boraveradi.

Hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish borayotgan bir vaqtda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlarning mazkur bosqichida oldimizda turgan eng muhim dolzarb vazifalarni prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi besh punkt orqali asoslab berdi:

Birinchi. Mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish. Bu jarayonda, avvalo fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini kuchaytirish va insonning o'z qobiliyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun tegishli shart sharoit yaratish lozim.

Ikkinchi. Shunga erishish kerakki, mamlakatimiz siyosiy hayotida haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik mohiyati qaror topishi darkor. Har bir partiya muayyan ijtimoiy qatlamga tayangan holda, ana shu toifa manfaatlarining himoyachisi sifatida o'zining aniq va ravshan harakat dasturiga ega bo'lishi kerak. Unda har qaysi partiyaning maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyoti borasidagi muqobil takliflarda o'z ifodasini topishi lozim.

Uchinchi. Nodavlat tuzilmalar, hukumatga qarashli bo'lmagan va jamoat tashkilotlarining, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniyati, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalar va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borish lozim.

Turtinchi. Jamiyatda fikrlar xilma-xilligi va qarashlar rang barangligi, ularni erkin ifoda etish sharoitini ta'minlash.

Bunda ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda haqiqiy «To'rtinchi» hokimiyatga aylanishi, fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini ruyobga chiqarishda eng ta'sirchan omil bo'lishi kerak.

Beshinchi. Inson huquqlari va erkinliklarini, odamlarimiz ongida demokratik nazariyalarni yanada mustahkamlash va rivojlantirish.

O'z xaq-huquqini taniydigan, o'z kuchi va kobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqyea-hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga, o'z shaxsiy manfaatlarini mamlaat va halq manfaatlari bilan uyg'un holda kuradigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish darkor¹.

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon xayot-pirovard maksadimiz. T.8.-T., 2000. – B. 330-331

Схема 3




Схема 4




СХЕМА 5




СХЕМА 8




СХЕМА 6





СХЕМА 7



Savol va topshiriklar:

1. Politologiya fanining ta'rifı, uning o'rganadigan obyekti va vazifalari nimadan iborat?

2. Politologiya fanining o'ziga xos bo'lgan qonun va kategoriyalari, ularning boshqa fanlardagidan farqi nimada?
3. Politologiya fanining boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi va ulardan farqi haqida nimani bilasiz?
4. Politologiya fanining ijodiy xarakteri deganda nimani tushunasiz? Konfliktologiya va karomashunoslik nima?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, ekrin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8.-T., 2000. – B. 330-351.
2. Karimov I.A. O'zgarish va yangilanish – hayot talabi. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi sessiyasida so'zlagan nutq. 2000 yil 25 may. Karimov I.A. T.8.-T., 2000-B. 479-488.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T., 1996. –B. 5-22; 370-404.
4. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13-T., 2005.-B. 174-222.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. T. 14. – T., 2006. –B. 61-97.
6. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T. 15. T., 2007. –B. 320.
7. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
8. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. T., 2008.-B. 368.
9. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 6-15.
10. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. «O'zbekiston», T.: 2010. 3-8 – betlar.

- 11.Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
- 12.Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.: 2012.
- 13.Otamurodov S. Globalashuv va millat (falsafiy-siyosiy tahlil). –T., 2008. – S. 7-29.
- 14.Qodirov A.Q. Siyosat falsafasi. T., 1999. –B. 6-29.
- 15.Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B.5-21.
- 16.Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999. – B. 3-15.
- 17.Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.-26-47.
- 18.Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: 2009. B.5-33.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

2-MAVZU: SIYOSAT – IJTIMOIIY HODISA SIFATIDA. SIYOSATNING ASOSIIY YUNALISHLARI. SIYOSIIY XAYOT VA SIYOSIIY JARAYONLAR, SIYOSIIY MUNOSABATLAR.

Reja:

1. Siyosat, siyosiy hayot tushunchalari. Siyosatning namoyon bo'lish shakllari.
2. Jamiyat taraqqiyotida siyosatning roli. Siyosatning barqarorligi va o'zgaruvchanligi.
3. Siyosatning asosiy yunalishlari.
4. Siyosiy jarayonlar tushunchasi va ularning xususiyatlari.

TAYANCH IBORALAR:

Siyosat, siyosiy hayot, siyosiy jarayon, siyosiy munosabat, siyosat turlari (adolatli, adolasiz), siyosat funksiyalari, siyosiy barqarorlik, nisbiylik, o'zgaruvchanlik, siyosiy vositalar, iqtisodiy siyosat, ijtimoiy siyosat, madaniy siyosat, huquqiy siyosat, demografik siyosat, milliy siyosat, ekologik siyosat, kadrlar siyosati.

Ma'lumki, jamiyat ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, individlar, tabaqalar, sinflar birlashuvidan, jipslashuvidan tarkib topar ekan, uni boshqarish uchun ma'lum siyosatni olib borishni taqozo etadi. Chunki ma'lum tanlab olingan siyosatni yurgizish orqali sosial subyekt hisoblangan davlatda ijtimoiy tartib, barqarorlik, ijtimoiy bahamjihatlik, tinchlik, adolat kabi qoida-qonunlar o'rnatiladi.

Shuning uchun ham siyosat deganda birinchi navbatda hokimiyatni boshqarish ishlarida qatnashish, davlat faoliyatini yo'naltirishni, bu faoliyat shakllari, vazifalari va mazmunini belgilab berish tushinilishi lozim.

Siyosat bilan shug'ullanish mehnat taqsimoti, jamiyatning qarama-qarshi sinflarga ajralishi, ijtimoiy tengsizlikning vujudga kelishi, ishlab chiqarish munosabatlarni boshqarib borish zaruriyati vujudga kelishi bilan bevosita bog'liqdir. Jamiyatning ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlariga bulinishi qonuni tahlil qilinar ekan, siyosat muqarrar tarzda jamiyat faoliyatining o'ziga xos, alohida ahamiyatga molik bo'lgan sohasi va yo'nalishi bo'lib qolaveradi.

Ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlarning tub manfaatlari, maqsad - intilishlari, talab va ehtiyojlari siyosiy manfaatlarning asosiy mazmunini tashkil etadi. Ijtimoiy hayot davomida uning tarkibidan o'rin egallagan sinflar, tabaqalar, guruhlarning o'z tub manfaatlari anglab borishi jarayonida jamiyatning siyosiy ustqurmasi shakllanadi, uning doirasida amal qiladigan tashkilotlar va muassasalar vujudga keladi, siyosiy faoliyat bilan shug'ullanadi.

«Siyosat» tushunchasi keng va tor ma'noda qullaniladi. Keng ma'noda qullaniladigan siyosat tushunchasi bir butun ijtimoiy hayotning obyektiv rivojlanish qonuniyatlarini o'zida aks ettiradi. Bunda jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida sodir bo'layotgan barcha voqea-hodisalarni qamrab olishi

ko'zda to'atiladi. Chunki mazkur sohalarida yuz berayotgan voqyea-hodisalar ma'lum siyosiy yo'nalish, tahlil qilish bilan bog'liq ekanligini ijtimoiy hayot taqozo etadi. Bas, shunday ekan, siyosat jamiyatning barcha sohalarida yuz berayotgan voqyea-hodisalar bilan uzviy dealektik bog'liqdir.

Siyosatni tor ma'noda qullashda esa, davlat hokimiyati idoralari, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichkarisidagi faoliyati va ular o'rtasidagi munosabatlar jarayonlari tushuniladi.

Siyosat tuzilishi jihatdan ikki turga, ya'ni ichki va tashqi siyosatga bo'linadi. Ichki siyosat deganda birinchi navbatda har bir davlatning organlari, siyosiy partiyalari, jamoat tashkilotlarining mamlakat ichida olib borayotgan ishlari va amalga oshirayotgan faoliyatini tushinish lozim.

Tashqi siyosat deganda har bir davlat organlari, siyosiy partiyalari, jamoat tashkilotlarining halqaro miqyosida amalga oshirayotgan faoliyatlarini tushinish lozim.

Bundan tashqari, siyosat adolatli va adolatsiz bo'ladi. Adolatli siyosat bu halqlarning, mehnatkashlarning tub manfaatlarini va ehtiyojlarini izchil himoya qildi. Bunday siyosat ijtimoiy taraqqiyotning dolzarb vazifalarini hal etish vositasi bo'lib xizmat qildi. Adolatsiz, reaksion siyosat - bu tarix sahifasidan tushib ketayotgan ijtimoiy guruhlar harakatlarining hukmronligini qo'llab - quvvatlashga xizmat qiladigan siyosatdir.

Siyosat quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Jamiyatdagi hamma guruh va tabaqalarning asosiy manfaatlarini hokimiyat nuqtai-nazardan himoya qildi;
2. Siyosat fuqarolar va davlat o'rtasidan vujudga kelgan ziddiyatlarni mo'tadillash, sivilizasion yo'l bilan hal etishni bajaradi;
3. Siyosat aholining u yoki bu qatlami yoki butun ijtimoiy hayot manfaatini ko'zlab siyosiy va ijtimoiy jarayonlarini boshqarish kerak;
4. Siyosat ijtimoiy sistemaning butunligini, barqarorligini va jamoat tartibini saqlash funksiyasini bajaradi;
5. Siyosat shaxsning ijtimoiylashuv muhitini yaratadi va uni murakkab ijtimoiy munosabatlar dunyosiga olib kiradi. Shunday ekan, inson siyosat orqali ijtimoiy sifatlarni o'zida shakllantiradi;
6. Siyosat guruhlar manfaati va fuqarolarning individual ehtiyojlarini qondirish imkonini yaratib, ijtimoiy hayotda vorisiylikni vujudga keltirishi lozim.

Siyosat shunday ko'p qirrali va keng faoliyat hisoblanadiki, u jamiyatning barcha sohalariga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Uning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

a) ijtimoiy siyosat; b) iqtisodiy siyosat; v) milliy siyosat; g) huquqiy siyosat; d) madaniy sohadagi siyosat; ye) demografik siyosat; j) ekologik siyosat va boshqalar.

Ijtimoiy siyosat yo'nalishi inson nafaqat tabiatning bir bulagi, balki eng birinchi navbatda ijtimoiy mavjudod sifatida gavdalanadi. Chunki inson ongi fikrlovchi, tafakkur qiluvchi jonli mavjudod sifatida faoliyat ko'rsatmasa unda ijtimoiy hayot shakllanmaydi. Insonlarning o'zaro munosabatda bo'lishlari, aloqa qilishlari, fikr almashuvlari, moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarishlari kabi

jarayonlar faqatgina ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshirishlari natijasida ijtimoiy hayot tirik organizm sifatida faoliyat ko'rsatadi.

Ijtimoiy hayotni boshqarish uchun ma'lum siyosiy qoida-qonunlar ishlab chiqish talab etiladi. Ijtimoiy hayot sohasidagi qonun - qoidalar jamiyat ehtiyoji negizidan kelib chiqib umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlovchi adolat prinsiplariga rioya qilingan bo'lishini taqozo etadi. Chunki ijtimoiy siyosat negizida insonparvarlik mohiyatining qaror topish jarayonlari o'z aksini topishi lozim. Zotan, ijtimoiy siyosatda «inson - asl maqsad va oliy qadriyat» qoidasiga og'ishmay amal qilishi maqsad qilib quyilishi kerak.

Siyosatning amal qilishdagi muhim yo'nalishlaridan biri ijtimoiy siyosat bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat - siyosiy hukmron bo'lgan sinfning jamiyatda o'rin egallab turgan boshqa ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlar nisbatan davlat muassasalari hamda o'zining siyosiy tashkilotlari orqali ifoda etiladigan munosabati hisoblanadi. Ijtimoiy siyosat - bu ijtimoiy sinflar va guruhlar manfaatlarini qamrab oladigan, millatlar va elatlar, jamiyat va shaxs munosabatlariga mansub bo'lgan mehnat va maishiy hayot shart-sharoitlarini, salomatlik hamda xordiq chiqarish jarayonlarini boshqaradigan siyosatdir.

Turli davlatlarda amalga oshiriladigan ijtimoiy siyosat jamiyatda iqtisodiy va siyosiy jihatlardan hukmron bo'lgan sinfning o'z mavqeyini saqlab qolishi va mustahkamlashi uchun, jamiyatda vaqti vaqti bilan sodir bo'lib turadigan ijtimoiy tuqnashuvlar, nizolar, kurashlar oqibatlarini o'z manfaatlarini yo'lida bartaraf qilishi yoki yumshatishga karatilgan bo'ladi. Shuning uchun ham ijtimoiy sohada olib boriladigan siyosiy yo'lni ilmiy jihatdan ishlab chiqmasdan turib ijtimoiy hayotda boshqarishni ta'minlab bo'lmaydi. Ijtimoiy siyosatda yo'l quyilgan xato va yanglishishlar jamiyatda keskinlikni ko'chaytirishga olib keladi. Shuning uchun ham jamiyatda siyosiy boshqaruvni amalga oshirayotgan ijtimoiy guruh, tabaqa u yoki bu darajada mehnat taqsimoti, mehnat jarayonida normal shart sharoitlarini yaratish, mehnatni tashkil qilish kabi ijtimoiy hayot sohalarini barqarorlashtirish siyosatini olib borishni taqozo etadi.

Xususiyl mulkchilik hukmronlik qilgan jamiyatning ijtimoiy siyosati markazida hukmron sinfning, guruhning, tabaqaning manfaatdorligi tursa ham, u yoki bu darajada mehnatkash omma uchun zarur bo'lgan mehnat sharoitlarini yaratish, ishsizlikni tugatish, mehnatga layoqatsiz kishilarni himoya qilish kabi siyosatni yuritishi lozim.

Inson yashayotgan hayot tarzi ijtimoiy siyosatda obyekt bo'lib xizmat qildi. Ijtimoiy hayot - bu yaxlit bir jamiyatda turli-tuman sohalar o'rtasidagi munosabatlarning nisbatan mu'tadil qaror topgan sistemasi bo'lib, taraqqiyot jarayonida uyg'unlashib va mushtaraklashib boradi.

Ijtimoiy siyosatning subyekti davlat muassasalari, siyosiy partiyalar va ommaviy, mehnat jamoalari kabi tashkilotlar bo'lib hisoblanadi. Bu subyektlar ijtimoiy hayot ishlariga aralashadi, uni ko'zlagan maqsadlarsari yo'naltiradi hamda ularning har biri o'zining manfaatlarini ijtimoiy siyosat vositasi orqali qondirishga intiladi. Bunday xolat ijtimoiy hayot va ijtimoiy siyosat o'rtasida dialektik birlikni, munosibatlikni vujudga keltiradi. Ammo ushbu birlik va mutanosiblik turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarda turlicha namoyon bo'ladi. Agar jamiyatni boshqarish

jarayonida siyosat mohiyati va mazmuni jihatidan ijtimoiy hayot belgilari va xususiyatlari bilan bog'lanib kelsa, unda ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat xukm suradi. Chunki bu ijtimoiy jarayonda subyekt bilan obyekt o'rtasida qat'iy belgilangan chegara qolmay, obyekt muayyan nisbiy holatlarda subyekt rolini, subyekt esa obyekt rolini o'ynay boradi. Buning ma'nosi shundan iboratki, ijtimoiy siyosat obyekti bo'lgan sinflar, tabaqalar, guruhlar vakillari siyosiy muassasalar orqali ijtimoiy siyosatni shakllantirib, siyosat obyektiga aylanadilar.

Ijtimoiy tenglik va ijtimoiy adolat zaminida kurilgan jamiyatni boshqarishda ijtimoiy siyosatning o'ziga xos xususiy yo'nalishlari shakllanadi. Ulardan **birinchisi maqsadli yo'nalish** bo'lib, ijtimoiy siyosatni olib borish jarayonida odamlarga nimalarni beradi-yu, nimalarni istikbolda va'da qila olish mumkinligi bilan belgilanadi.

Ikkinchi yo'nalish mazmunini siyosatning sabab-okibat jihatlari tashkil etib, bunda ko'zlangan maqsadni qaysi ijtimoiy kuchlar orqali amalga oshiradi, bu jarayonda inson omilini ishga solish hamda uni faollashtirish natijasida qanday natijalar keltirib chiqarish mumkin, degan masalalar aniqlanadi. Bu masalani ravshanlashtirish uchun inson omili va uning qudratli kuchi haqida tuxtalish joizdir. Biz yaqin kunlargacha insonga faqatgina ishlab chiqarish omili sifatida qarab kelgan edik. Lekin inson nafaqat omil, balki u ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlardagi faoliyatlari orqali jamiyat taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynovchi subyekt hamdir.

Ijtimoiy siyosatning **uchinchi yo'nalishi - jamiyatning ma'naviy-mafkuraviy** dasturga ega bo'lishini taqozo etadi. Ma'naviy mafkuraviy dasturga asoslangan ijtimoiy siyosat amal qilgan jamiyatlarda insoniyat sivilizatsiyasi erishgan barcha ijobiy hayotbaxsh xislatlari va tomonlarni saqlab qolish negizida jahon taraqqiyotini yuksalishiga munosib xissa qo'shish asosida ma'naviy birlikka, mafkuraviy maslakdoshlikka, g'oyaviy yo'nalishlarga ta'sir ko'rsatishni zamon taqozo etadi.

Ijtimoiy adolat qaror topishining eng muhim sharti jamiyatda u yoki bu sinf, tabaqa, guruhni ishlab chiqarish vositalaridan ajratib kuyishga barham berishdadir. Jamiyatda ijtimoiy tengsizlik kelib chiqqandan beri insoniyat ijtimoiy adolat uchun kurashib kelmoqda. Insonlar yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni adolatli taqsimlash ijtimoiy siyosatning o'ta murakkab va o'ta ziddiyatli tomonlaridan birini tashkil etadi. Adolatli taqsimot haqida barcha tuzumlarda va'dalar, da'volar ko'p bo'lganu, ammo hayotga tatbiq etilishi jarayonida tusiqliklarga duch kelingan. Buning sababi mulkchilik munosabatlari hukm surgan jamiyatda har bir sinf, tabaqa, guruh o'z mavqeyi, mezoni asosida ish kurgan.

Hozirgi rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy siyosatning birinchi maqsadi xususiy mulk egalarining tub manfaatlarini qat'iy himoya qilish, mehnatkashlarning ijtimoiy ehtiyojlariga e'tibor berish, ishlab chiqarilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni taqsimlashda yaratuvchilar manfaatlarini oz bo'lsa-da, adolat ko'zi bilan baholashga qaratishga majbur bo'lmoqda.

Bunga o'z vaqtida omilkorlik va samarali ijtimoiy siyosat olib borgan AQShning sobiq Prezidenti R.Reyganni va Angliyaning sobiq bosh vaziri

Margaret Tetcherni misol qilib ko'rsatish mumkin. R.Reygan mamlakatda mayda va o'rta ishlab chiqarishni kengaytirish, davlat tomonidan rag'batlantirish vositasi asosida ishlisizdan holi etish, ehtiyojbop mollarni ko'p, sifatli ishlab chiqarish va ularni nisbatan adolatli taqsimlash imkoniyatini yaratganligi natijasida davlat iqtisodiy tomonidan bakuvat bo'lib bordi. Margaret Tetcher o'tkazgan ijtimoiy siyosat natijasida mamlakatda yuz berishi mumkin bo'lgan tuqnashuvlar oldi olindi. Mamlakatda mulkchilik munosabatlari demokratlashtirish tezlashdi, ishlab chiqaruvchilarning deyarli 70% foizi o'zlari ishlab turgan korxonadagi ishlab chiqarish aksiyalariga ega bo'lgan kishilarga aylandi. M.Tetcher islohotining ikkinchi muhim tomonlaridan yana biri ijtimoiy siyosat olib borish jarayonida davlat sektoriga mansub bo'lgan sanoat ishlab chiqarishni 3\2 qismi xususiyashtirishi natijasida mehnat unumdorligi o'sdi, mahsulot sifati yaxshilandi, ishsizlik keskin kamaydi. Bundan tashqari, M.Tetcher mahalliy hokimiyat muassasalari qul ostidagi ijaraga berilgan turar joylarni 60% foizini muhtoj oilalarga arzon-garov narxlariga sottirdi.

Mustaqil O'zbekistonda ham aholini ijtimoiy himoyalash borasida kuyidagi muhim vazifalar amalga oshirilmokda: **Birinchi****dan,** ishlab chiqarishni barqarorlashtirish va muttasil rivojlantirish. Buning natijasida ishsizlikka barham berishlari, ichki bozorni iste'mol mollari bilan tuldirlashlari lozim.

Ikkinchi**dan,** davlat mablaglari bilan bir qatorda mehnat jamoalari, jamoat va xayriya tashkilotlari va jamg'garmalarining mablag'larini keng jalb etish. Bu mablag'lardan kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashda foydalanish ko'zda tutilmoqda.

Uchinchi**dan,** odamlarning kuch va qobiliyatlari to'la-to'kis faollashuvini ta'minlashga qodir bo'lgan kuchli mexanizmni vujudga keltirish orqali kishilarda iqtisodiy erkinlik, o'z qobiliyati, omilkorligi, tadbirkorligini to'la ishga solish imkoniyatini yaratish.

Turtinchi**dan,** aholining daromadlariga va turmush darajasida asossiz farqlarga yo'l quymaslik, jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydigan qatlamlarni shakllantirish.

Beshinchi**dan,** qashshoqlikka qarshi kurashish. Aholi eng muhtoj qatlamining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishini kuchaytirish. Yuqoridagilar asosida aholining siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish ko'zda tutilmokda.

Har qanday jamiyatning poydevorini hal qiluvchi asosini moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish, real iqtisodiy bazis tashkil etadi. Shuning uchun ham siyosiy jarayonlarni boshqarishda jamiyatning iqtisodiy rivojlanish obyektiv qonunlarini hisobga olgan holda, uning omillaridan to'g'ri, unumli foydalanilgandagina iqtisodiy siyosat samara berishi mumkin.

Iqtisodiy siyosat bu siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, iqtisodiyotni boshqarish, moddiy noz-ne'matlar ishlab chiqarish, mahsulotlarning jamiyatdagi taqsimoti, xo'jalik hayotini yo'naltirish jarayonlarini siyosiy vositalar orqali amalga oshirishdir. Iqtisodiy siyosatning asosiy mohiyatini iqtisodiy taraqqiyotning hal qiluvchi yo'nalishlarini belgilab olish, iqtisodiy munosabatlarga ta'sir o'tkazishda muljallangan nazariy, chora tadbirlar majmuasi tashkil qildi.

Jamiyatning iqtisodiy bazisi siyosiy ustkurmani belgilab beradi. Bu esa o'z navbatida siyosiy ustqurma jamiyat iqtisodiy bazisining bir me'yorda rivojlanib borishiga xizmat qildi.

Demak, iqtisod bilan siyosat o'zaro bir-birini taqozo etadi, dialektik bog'liq bo'lganligi uchun ham iqtisodni siyosasiz, siyosatni iqtisodsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu muttanosiblik esa jamiyatda mavjud bo'lgan turli ijtimoiy sinflar, tabaqalar, guruhlar tub manfaatdorliklarini e'tiborga olish bilan belgilanadi. Bular quyidagilardan iborat:

a) Jamiyatning ijtimoiy guruhlariga va tabaqalarga bo'linib ketishi natijasida har bir guruh tub manfaatlarini moddiy ishlab chiqarish munosabatlari orqali amal qilish qonuniga rioya qilish bilan belgilanadi. Tarixda sinfiy jamiyatda moddiy va ma'naviy manfaatdorlik qonuniga amal qilish asosiy rol uynar edi. Ammo u bu masalaga faqat sinfiy va partiyaviy tomondan, faqat ishchilar sinfining qashshoq qismi bo'lgan proletariat manfaati nuqtai nazaridan yondoshib, jamiyatning boshqa ijtimoiy guruhlarini e'tibordan chetda qoldirilgan edi.

Moddiy manfaatdorlik qonunining amal qilishi natijasida iqtisod siyosat bilan ajralmas birlikni tashkil qildi, bir-biriga xizmat qildi. Bu qonunning bo'zilishi jamiyatda iqtisodiy tangliklarni, kiyinchiliklarni, inqiroziy holatlarni keltirib chiqaradi. Bunday xolatda faqat iqtisodiy bazisga xizmat qilishdan voz kechgan siyosiy ustqurmaning o'zgartirilishi bilan yoki moddiy noz ne'matlarni ishlab chiqarishni yuksak bosqichga ko'tarish orqali ijobiy hal etish mumkin bo'ladi.

Insoniyatning turli tarixiy taraqqiyot bosqichlari: quldorlik, feodalizm, kapitalizm va sosializm kabi bosqichlarda xuddi shu xolatni o'z boshidan kechirgan.

Hozirgi keskin iqtisodiy islohotlarning amalga oshirish jarayonlarini boshqaruvchi iqtisodiy siyosatni shakllantirishda o'tmish saboqlaridan xulosa chiqarish hozirgi kunning dolzarb talab-ehtiyojlarini inobatga olish kelajak uchun zarur bo'lgan aniq rejalarini o'zida mujassamlashtirgan hamda istiqbolga yo'naltirilgan aqidalarni ishlab chiqishni taqozo etiladi.

b) Ijtimoiy hayot taraqqiyotining asosiy prinsiplaridan biri iqtisodning siyosatga nisbatan belgilovchi roli va ustivorligini taqozo etishidir. Bu ustivorlik quyidagi hollarda namoyon bo'ladi: 1) Iqtisodiy rivojlanish va o'zgarishlar o'zining obyektiv qonunlari asosida boradi va uni hech qanday siyosiy vositalar o'zgartira olmaydi; 2) Iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda siyosiy tashkilotlar mavjudligini taqozo etadi. Har qanday siyosiy tashkilot yoki siyosat subyekti moddiy jihatdan ta'minlangandagina faoliyat ko'rsataoladi; 3) Ko'p hollarda siyosat iqtisodiy manfaatlarni ko'zlab olib boriladi. Siyosiy hokimiyat uchun kurash zaminida ham iqtisodiy manfaat yotadi.

Iqtisodiy siyosatning mohiyatini anglatuvchi akidalar orasida mehnat axlini ishlab chiqarish vositalaridan ajratib, chetlashtirib quyish xolatiga batamom chek kuyish, ya'ni moddiy va ma'naviy boyliklarni bevosita ishlab chikaruvchilarning asosiy ishlab chiqarish vositalariga haqiqiy ega bo'lishini ta'minlash siyosati bo'lib hisoblanadi. Bu - iqtisodiy islohot jarayonida bir-biri bilan dialektik mutanosiblikda bo'lgan uch asosiy vazifalardan biridir. Buning ma'nosi shundan iboratki, mulkchilikning iqtisodiy ravnaki uchun xizmat qilaoladigan xilma-xil

shakllarni yuzaga keltirish, ularning keng va erkin amal qilishlariga yo'l ochib berish, ma'muriy bo'yruqbozlik apparati zuravonligidan xolos etib jamiyat a'zolarining jismoniy va intellektual qobiliyatlarini moddiy va ma'naviy boyliklar yaratilishiga safarbar etish uchun real shart sharoitlar yaratishdan iborat. Bundan ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan vazifalar barcha mamlakatlarda amal qilishini taqozo etadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun birinchi navbatda davlatlarning olib borayotgan iqtisodiy siyosati darajasiga bog'liqdir. Bu sohada O'zbekiston Respublikasi olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir. 1990 yilda mulk to'g'risida Qonun qabul kilindi. Ushbu qonunga binoan mulk shakllari tubdan o'zgardi, unga bog'liq holda xo'jalik yuritish shakllari ham o'zgardi. Hozirgi kunda kuyidagi mulk shakllari mavjud: fuqarolarning shaxsiy va xususiy mulki, kollektiv (shirkat) mulki, shu jumladan oilaviy, mahalla, kopperativ mulk, ijaraga olingan korxona mulki, aksiyadorlik jamiyati, davlat korxonasi kollektivining, jamiyat va diniy tashkilotlar, turli xo'jalik birlashmalari va uyushmalari mulki, aralash mulk, qo'shma korxonalar, davlat, shuningdek yuridik shaxslar mulki shaklida yuzaga chiqmoqda.

Ikkinchi asosiy vazifa ishlab chiqarishda mayda va o'rta ishlab chiqarishni etakchi tarmoqqa aylantirishga qaratilgan xususiylashtirish siyosatini amalga oshirishdan iborat. Mayda va o'rta korxonalar vujudga kelayotganligini qo'llab-quvvatlash hozirgi ko'p muammolarni, ya'ni aholining iste'mol mollariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, ularni ish bilan ta'minlash masalalarini tezrok hal etishga zamin yaratilmokda.

Bu har ikkala vazifani tezroq hal etilishi sog'lom raqobatni rivojlantirish asosida sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga quyishga olib keladi.

Uchinchi vazifa bozor mexanizmi vositasida ishlab chiqarishni rag'batlantirish, narx-navoni barqarorlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun zamin yaratiladi.

Bozor iqtisodiyotining o'ziga xos obyektiv qonunlari bor. Bular qiymat qonuni, talab va taklif, pul muomalasi qonunlaridir.

Hozir jahonda turli xil bozor shakllari mavjud:

1) Amerikada mavjud bo'lgan bozorda davlatning xo'jalik faoliyati roli ancha pasaytiriladi. Davlat asosan uchta vazifani: barqarorlikni ta'minlash; qonun oldida barcha fuqarolarning tengligini ta'minlash; infrastrukturani rivojlantirish yo'li bilan biznes va soxibkorlik faoliyatlariga ko'maklashish, o'zini-o'zi ta'minlay oladigan fuqarolarga g'amxurlik qilish. Bu ancha qiyin yo'l bo'lib, u korxonalarning zarar kurib ishlashini, dotasiyani tan olmaydi.

2) G'arbiy Yevropa tipidagi bozorda esa davlat tomonidan kuchli ijtimoiy nazorat o'rnatiladi. Italiya, Fransiya, Ispaniya kabi mamlakatlarda erkin soxibkorlik davlat boshqarishi bilan qushib olib borishni samaraliroq usul ekanligini ko'rsatmoqda.

3) Osiyoviy bozor amerikacha va yevropacha bozor turlaridan ancha keyin qaror topgan bo'lib, bu ikki tipdagi bozordan o'ziga muvofiq usullarni qabul qilib olgan. Yaponiyada hamda Osiyoning boshqa industrial davlatlarida ham erkin soxibkorlik faoliyati davlat tomonidan boshqarilishi (markazlashgan rejalashtirish) bilan qushib olib boriladi. Narx-navolarni bozor belgilaydi.

Bozorning ikkinchi turi O'zbekiston sharoitiga muvofiq kelganligi uchun bozor iqtisodiyotiga o'tishini uzoq yo'lni, ya'ni «yevolyusion» yo'lni tanlaydi. Bu yo'l bozor iqtisodiyotiga birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich o'tishini taqozo etadi. Bu yo'lni bosib o'tishda ayrim kamchiliklar va xatolarga ham yo'l quyilgan bo'lishi mumkin. Masalan, ish xaqi narx-navo orqasidan ergashmokda, narx oshadi, shunga muvofiq nsh xaqi ham oshadi. Ammo, bu borada mustaqillikka erishganligimizga qisqa vaqt utishiga qaramay ulkan yutuqlarni qulga kiritdik. Eng avvalo iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishning huquqiy asoslari yaratildi. Chunonchi, iqtisodiy siyosat O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qabul qilgan qonunlarga tayangan holda amalga oshirila boshlandi.

Ikkinchidan, bozor iqtisodiga utish uchun zarur bo'lgan siyosiy shart-sharoitlar yaratildi. Kredit - bank tizimi, pul muomalasi, valyuta munosabatlari, soliq tizimini tartibga solishda davlat bosh islohotchi sifatida faoliyat ko'rsata boshladi.

Uchinchidan, iqtisodiyotning bir yoqlama xom-ashyoga yo'naltirilganligiga barham berilishi O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosatning ijobiy natijalarida biri bo'lib koldi.

Turtinchidan, qishloq xo'jaligida tub iqtisodiy islohotlarni o'tkazishga kirishishi iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Beshinchidan, mulkchilikning xilma-xil shakllarini vujudga keltirish va ularni rivojlantirish ishida siyosatning barcha subyektlari faol ishtirok qila boshladi.

Oltinchidan, mamlakatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish bo'yicha aniq maqsadlarni ko'zlagan siyosat yuritila boshlandi.

Siyosatning yo'nalishlaridan biri milliy siyosatdir.

Milliy siyosat masalasini tahlil qilishdan oldin «millat», «milliy masala», «milliy munosabat», «milliy siyosat» tushunchalariga ta'rif bergandan keyin ularning mohiyati, mazmuni va shakllanish jarayonlari haqida fikr yuritilsa, mantiqan to'g'ri bo'lar edi.

«Millat», «milliylik» tushunchalari hozirgi zamon ma'nosida qayd etilgan millatdan ancha ilgari paydo bo'lib, u dastlab madaniyat, til va ruxning umumiylikiga asoslangan qabila, elatni anglatgan. Keyinchalik urug, kabilalar, ittifoq tashkil topa borib, ular o'rtasida iqtisodiy, ijtimoiy aloqalar tobora ko'chayib borgan.

Kuldorchilik va feodal tuzumi paydo bo'lganidan keyin esa kishilar birligining tarixiy shakli - elatlar vujudga kela boshlagan. Bular bir-biriga yaqin kabilalarning shunchaki ittifoqi bulmasdan, balki kishilar uyushmasining sifat jihatidan yangi birligi bo'lib, hududiy va madaniy urf-odatlar birligiga asoslangan.

Kapitalizm tuzumi shakllangandan keyin esa mehnat taqsimoti yuzaga keldi va shuning negizida kishilarning tarixiy birligi, ya'ni millat kelib chikdi. Millat tarixiy birlik sifatida kuyidagi belgilarga ega: til, madaniyat, iqtisodiy hayot va hududiy birlik. Bundan kurinib turibdiki, millat muayyan bir hudud doirasida istiqomat qiladigan, yagona moddiy-iqtisodiy ishlab chiqarish atrofida birlashgan, bir tilda so'zlashadigan, yaxlit ma'naviy-ruxiy tabiatga ega bo'lgan etnoslar - elatlar tarixiy birligidan iborat ekan. Shuning uchun ham millatning kelib chiqishi bevosita kapitalizm bilan bog'liq bo'lib hisoblangan.

Chunki, kapitalizm vujudga kelishi bilan feodal tarqoqlikka barham beriladi, ishlab chiqarish jarayoni o'ta baynalmilallashadi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayot va madaniyat sohalarida bir qadar tartib o'rnatiladi. Shu ma'noda olib qaralganda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari «milliy masala» deb atalmish ijtimoiy siyosiy muammoni ham keltirib chiqaradi. Milliy masala - bu millatlar, halqlar, elatlar o'rtalarida amal qiladigan o'zaro munosabat jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy-siyosiy, hududiy ijtimoiy, mafkuraviy muammolar yig'indisi bo'lib, har bir davlat ichidagi yoki davlatlararo o'zaro aloqalarga kirishish natijasida vujudga keladi. Bu jarayonlarni siyosiy hokimiyat ishlab chiqilgan reja asosida bajaradi va konkret - tarixiy sharoitdan kelib chiqqan holda yo'naltirib boradi. demak, milliy siyosat milliy munosabatlarning oqimini rejalashtirgani holda boshqarish ma'nosini anglatadi. Ammo siyosiy hokimiyat milliy masalani hal etish va milliy munosabatlarni yaxshilash, takomillashtirish sohaları bo'yicha siyosat olib borish jarayonida ba'zan hokimiyat tepasida turgan ayrim shaxslarni bu masalaga noto'g'ri yondoshishlari natijasida halqlar yoki elatlar o'rtasida kelishmovchiliklar va xatto urushlarni keltirib chiqargan. Bu quldorlik va feodal tuzumlarining tugatilishi va kapitalistik tuzumning qaror topishi, millatlarning shakllanishi natijasida milliy masalaning yuzaga kelishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Milliy siyosat olib borganda ijtimoiy hayot, ijtimoiy iqtisodiy, siyosiy, madaniy, harbiy va boshqa sohalaridagi muammolarni hal etish yo'llari o'z aksini topishi lozim. Buning ma'nosi shundan iboratki, har bir millatning ravnaq topishi bevosita mazkur sohalarida faol ishtirok etishiga bog'liqdir.

Har bir davlat o'zi hukmronlik qilayotgan mamlakatda yashayotgan turli millatlarning axvoli, hayot sharoitlari to'g'risida gamxurlik qilish, ularning madaniy va ma'naviy tomondan rivojlantirish darajasi, ijtimoiy va madaniy turmushini yaxshilash bo'yicha siyosat olib borsa, ijtimoiy natijalarni qulga kiritishi mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, milliy mustaqillikni qulga kiritish milliy rivojlanishning asosiy negizidir. O'zbekistonda fuqarolar tinchligi va millatlararo totuvlikni ta'minlashga asoslangan milliy siyosat dasturi ishlab chiqildi.

Eng anvalo davlatimiz Bosh Qomusi hisoblangan Konstitusiyada O'zbekiston Respublikasida, hududida yashayotgan barcha fuqarolar jinsi, irqi, millati, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar Qonun oldida tengligi qayd etilgan (18-modda). Bu davrga kelib milliy siyosatning yo'nalishlaridan biri - bu barcha millat vakillarining ishlab chiqarish vositalaridan va siyosiy hokimiyatni boshqarishda katnashishdan mahrum etishga chek quyildi. Mamlakatda iqtisodiy va siyosiy islohotlar o'tkazildi, mehnatdan moddiy manfaatdorlik, mulkchilikning ko'p shaklliligini vujudga keltirishga, bozor iqtisodiyotiga o'tish kabi vazifalarni amalga oshirish muhim siyosiy ahamiyatga molik bo'ldi. Milliy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri - barcha millatlarning fan, halq ta'limi, madaniy hayot sohalarida erishgan yutuqlardan foydalanishi uchun imkoniyat yaratilishi bilan birga, har bir millatning tili, urf odati, an'analari, madaniyatini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratishdan iboratdir.

Bu siyosiy yo'nalishlar O'zbekiston Konstitusiyasida o'z aksini topgan. Unda qayd etilishicha, «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi

barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlar va an'analar hurmat qilishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi» (4- modda).

Qonunda ko'rsatilgan bu konsepsiya ijtimoiy hayotda tadbqiq etilmoqda. Masalan, 1989 yilda jamoatchilik respublika va viloyatlar hududida yashayotgan turli millat vakillarining milliy-madaniy markazlari tashkil etila boshlandi. Hozir Respublikada 80 tadan ortiq madaniy markazlar ishlab turibdi. Ular O'zbekistonning ko'p millatli jamiyatini siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy jihatdan qayta kurishda ijobiy rol o'ynamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida milliy siyosatning amalga oshirishda millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy havfsizlikni saqlash uchun qanday asosiy qoidalarga asoslanish lozimligi qayd etilgan: birinchidan, davlatning etnik siyosati shaxs huquqlarini himoya qilishning ustivor bo'lishiga asoslanish darkor, shuningdek milliy ozchilikning huquqlari ham kamsitilmasligi shart.

Ikkinchidan, davlatning etnik siyosatidagi bosh yo'l millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanishi lozim.

Uchinchidan, jamiyatimizning bozor munosabatlariga asoslanadigan iqtisodiy taraqqiyoti odamlarni ijtimoiy himoyalashning kuchli mexanizmini ta'minlagan holda respublika hududida yashayotgan barcha millatlarga mansub aholining manfaatlariga mosdir»¹.

Shunday qilib, milliy siyosat - bu har bir mamlakatda yashayotgan turli millat vakillari o'rtasida do'stlik - qardoshlik munosabatlarini, totuvlik va axilligini rivojlantirish, milliy qadriyatlarni, har bir millatning tili, urf-odatlar, an'alarini butun choralar bilan rivojlantirishdan iboratdir. Bundan siyosat yuritishdan hokimiyat tepasida turgan sosial kuchlar manfaatdor, chunki, ular hukmronliklarini o'zoq vaqt saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Madaniy siyosat mamlakatni umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatidir. Bu siyosat har bir millat elat, halqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladi. Siyosat ta'siri ostida ma'naviy hayotda yoki ijobiy yoki salbiy o'zgarishlar bo'ladi. Shu bilan birga siyosatning samarali bo'lishi jamiyat ma'naviy omillariga bog'liq. Fan va madaniyasiz siyosat bo'lishi mumkin emas, chunki har qanday siyosat fanga, uning ilmiy-nazariy qoida va xulosalariga tayanadi.

Madaniy sohadagi siyosat quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi: halq maorifini rivojlantirish, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini takomillashtirish, fanning turli jabhalarini davr talabiga moslashtirib rivojlantirish, milliy qadriyatlarni tiklash, adabiyot, san'atni rivojlantirish.

O'zbekistonda mustaqillikka erishgandan so'nggi yillarda bu borada ko'p ijobiy ishlar qilindi, milliy qadriyatlarimizning, urf odat, an'alarimizning tiklanishi, ta'limni rivojlantirish to'g'risidagi Qonun bunga misol bula oladi.

¹ Karimov I. «O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». T., 1997. – B. 84.

Siyosatning axloq bilan munosabati ham chuqur va turli xildadir. Chunki, kishilar tomonidan siyosiy manfaatlarning chuqur anglashinishi, uning qanday axloqiy yo'nalishni tanlaganligiga bog'liqdir. Siyosat kabi axloq ham kishilarning guruhij jipslashuvini kuchaytirishga qodirdir. Shu bilan birga axloq - yaxshilik va yomonlik, halollik kabi guruhlardan yuqori turadigan umuminsoniy tasavvurni ham o'zida aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda ko'p yillar davomida davlatning va liderlarning befarqliligi natijasida axloqning umuminsoniy yo'nalishlarini hokimiyat va fuqaroning kundalik o'zaro munosabatlariga singdirilishiga jiddiy e'tibor berilmadi. Buning natijasida ayrim ijtimoiy guruhlar, millatlar, elatlar o'rtasida insoniy mexr-okibat, shavkat, hurmat yo'qola borib, uning o'rniga xudbinlik, qalloblik, mahalliychilik kuchayib ketdi. Prezident I.A.Karimov respublika Oliy Majlisida ta'kidlaganidek: «Bunday odamlarning niyati aniq - besh-o'n yil amallab o'tirgan mansabini yuqotmasa, mumay maoshi va xufiya (shapka)sini olib tursa marra uniki»¹.

Axloq siyosatga turli ta'sir o'tkazadi: bir tomondan, «yuqoridan», siyosiy mafkurani o'zgartirish orqali, boshqaruv qarorlariga o'zgartirishlar kiritish orqali, bu esa hokimiyatga erishish va undan foydalanishda ayrim shakl va metodlarni cheklash yo'li orqali amalga oshiriladi. Boshqa tomondan esa, axloq siyosatning mazmuniga «pastdan», ya'ni omma ongida hukmronlik qilayotgan qadriyatlarni o'zgartirish hisobiga ta'sir qildi. Shuning uchun ham davlat halqning axloqiy xis-to'yg'ulari bilan rasmiy hokimiyat axloqini tuliq bir biriga mos keltira olsagina, o'z imkoniyatlarini ishga solishi mumkin bo'ladi.

Hozirgi kunda siyosiy etikaning hokimiyatni qulga olish va uni ishga solishdagi asosiy yo'nalishi - bu liderlar va omma ongida konsensus (yakdillik, rozilik), kompromiss (kelishuv) va bularning konfrontasiya va konfliktlarning hamma shakllaridan afzalligini singdirishdan iboratdir. Ushbu kelishuvlar siyosiy munosabatlarda katnashayotgan hamma tomonlar manfaatini hisobga olishi, siyosiy muholiflar fikrlari bilan hisoblashishi, haqiqatga tik qarash, natijada siyosiy munosabatlarda zo'ravonlik vositalaridan voz kechish, hyech bo'lmasa, bu vositalarni ma'lum darajada tushuntirishga xizmat qilishi lozim.

Siyosat huquqiy soha bilan ham uzviy bog'liqdir, bu ham asosiy yo'nalishlardan biridir. Huquqiy soha harakatdagi qonunchilikdagi siyosiy hukmronlikning asosiy prinsiplarini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, barcha huquqiy normalar guruhlarining keskin siyosiy talablarini «yumshatadi», chunki nafaqat muayyan siyosiy yo'nalish tarafdorlari, balki davlatning barcha fuqarolari qarashlari bilan hisoblashishga majburdir. Chunki, huquq muholifchilarining ham, hukmron kuchlarning ham faoliyati chegarasi imkoniyatlarini aniqlab boradi. Shuning uchun ham hukmron doiralarning huquqqa bo'ysunishi siyosiy tartibotning legitimligi, shu bilan birga uning barqarorligini ta'minlash uchun birdan-bir shart-sharoit yaratadi.

Albatta, muayyan siyosiy tuzumda siyosat bilan huquq o'rtasidagi munosabat etarli darajada ziddiyatli va turlichadir. Vatanimizning siyosiy tarixidan shu narsa

¹ «Vatanparvar» ruznomasi, 25 fevral 1995 yil.

ma'lumki, partiyaviy davlat nomenklaturasini nafaqat qonunga bo'ysunishmadi, balki undan o'zlarining siyosiy muholiflariga qarshi kurashish yo'lida foydalanishdi. Boshqacha qilib aytganda, huquq siyosatining suzsiz xizmatkoriga aylantirilgan edi. Bunday xolga barham berish, jamiyat hayotida huquq, qonun ustivorligiga erishish, huquqiy, demokratik, adolatli davlatni kurish - bir so'z bilan aytganda, siyosiy islohotni to'la oxirigacha yetkazish - hozirgi davr talabidir.

Yuqoridagilardan tashqari, siyosat yana ijtimoiy hayotning boshqa sohalari - ma'naviy madaniyat, din, ekologiya va boshqalar bilan o'zaro aloqadadir. Shuni ta'kidlash lozimki, ularning har biri o'ziga xos xolatda siyosiy hayotning shakllanishiga ta'sir qildi. Ushbu siyosiy ta'sir darajasi konkret sharoitga qarab turlicha bo'lishi mumkin.

Siyosiy hayotning yo'nalishiga qarab, ular yo ijobiy yoki salbiy ta'sir qildi. Agar ijgimoiy hayot umuminsoniy qadriyatlar asosida rivojlanib borsa, unda ularning har biri ijobiy rol uynashi mumkin.

Kishilik jamiyati rivojlanishining barcha davrlarida siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlar o'ziga xos darajada kechgan. Siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlar jamiyat hayotidagi murakkab siyosiy va obyektiv hodisa hisoblanib, uning kechishi jamiyatning obyektiv qonunlari va bu qonunlarning harakati natijasida ro'y beradi.

Siyosat ko'rinishlarining o'zaro aloqasi va ta'siri siyosiy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Siyosiy jarayon siyosiy hayotda voqyea bo'ladi. Siyosiy jarayonlar - muayyan davlat, partiyalar, siyosiy tashkilotlar, harakatlar, jamoat tashkilotlari tomonidan mamlakat ichki va tashqi aloqalari zaminida turli ijtimoiy guruhlar bilan hokimiyat o'rtasidagi munosabatlarda ularning manfaatlarini ifodalash, himoya qilish borasida kechadigan munosabatlardir.

Siyosiy jarayonlar rivojlangan sari jamiyatimizning siyosiy hayoti yangi mazmun bilan boyiydi, ro'y bergan har bir o'zgarish va bu o'zgarishlar oqibatida kelib chiqqan xilma-xil muammolar siyosiy hayotning murakkablashuviga sabab bo'ladi. Siyosiy jarayonlar o'zining obyektiv qonunlari harakati asosida uzluksiz davom etadi va uni istagan paytda biron-bir tomonga burib yuborishi mumkin emas. Yuqoridagilarga asoslanib, siyosiy jarayonga quyidagicha ta'rif berish mumkin: siyosiy jarayonlar deb jamiyatning siyosiy hayotida turli xildagi voqyea-hodisalarning ro'y berib turishi, ularning obyektiv qonunlar harakati asosida davom etishi va shu asosda jamiyatning siyosiy jihatdan rivojlanib borishiga aytiladi. Siyosiy jarayonlar siyosiy hayotda ro'y berayotgan voqyea va hodisalar, o'zgarishlar yig'indisidir.

Siyosiy jarayonlar tushunchasi siyosiy munosabatlar tushunchasiga karaganda mazmunan keng ma'noga ega. Agar siyosiy munosabatlar tushunchasi turli subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ifodalasa, siyosiy jarayonlar esa, ham subyekt, ham obyekt o'rtasidagi munosabatlar va ularning har birida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettiradi.

Jamiyat hayotida siyosiy jarayonlarning qanday kechganligi masalasi utmishda bo'lgan mutaffakirlar e'tiboridan chetda qolmagan. Masalan, Amir Temur «Temur Tuzuklari» asarida markazlashgan davlatni qanday bunyod etganligi, unda boshqarish ishlari qanday yo'lga qo'yilganligi, mamlakatni

boshqarishda kengashlar o'tkazib turganligi va boshqa ko'plab siyosiy tadbirlarni amalga oshirganligi haqida ma'lumotlar bergan. Amir Temur o'z saltanatini boshqarishda ilm-ma'rifat sohiblariga tayangan, chunki ilmsiz, joxil, takabbur bo'lgan siyosiy etakchi mamlakatni adolat bilan boshqara olmaydi. Buyuk soxibqiron adolatli siyosat yo'lida xatto farzandlarini ham ayamagan, adolat yuzasidan baho bergan. «Kuch adolatdadir» degan tamoyil Temur davlati siyosatining asosiy shiori bo'lgan. Bunday siyosiy qarashlar boshqa mutafakkirlar: Arastu, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa ko'plab olimlar asarlarida bayon etilgan.

Siyosiy jarayonlar har bir mamlakatning ichki va tashqi sohada ro'y beradigan o'zgarishlarni o'zida aks ettiradi. Bu o'zgarishlar o'z mohiyati, sifati va miqdoriy mezonlariga kura bir-biridan farq qildi. Siyosiy tuzumning, ularda faoliyat ko'rsatayotgan siyosiy kuchlarning har xilligi siyosiy jarayonlarning har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlar asosida davom etayotganligidan dalolat beradi. Ammo bu borada mamlakatlar o'rtasida umumiylik, uxshashlik tomonlari ham mavjud bo'ladi. Masalan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida demokratiyaning rivojlanishi, ko'ppartiyaviylik asosida saylovlarning o'tkazilishi hozirgi kunning umumiy xususiyatlaridir. Bunday o'zgarishlar dunyoning ko'p mamlakatlarida bundan o'n yillar avval ro'y bergan edi. Shu tariqa hamma mamlakatlarda ro'y berayotgan siyosiy jarayonlarga xos umumiy xususiyatlar shakllana boradi. Hozirgi kunda bu umumiy xususiyatlarning asosiylari quyidagilardan iborat: Birinchidan, dunyoning hamma mamlakatlarida ham siyosiy jarayonning bosh manbai va etakchi kuchi halq ommasining ongli faoliyatidir. Siyosiy jarayonlarning sustlashuvi, siyosiy tashkilotlar harakatining samarasiz bo'lishi - bu jamiyat siyosiy hayotida kishilarning faol harakat qilmaganligi natijasidir. Demak, kishilarning ongli siyosiy faoliyati siyosiy jarayonlarning borishini belgilaydi. Ammo, bu qoida hamma mamlakatlarda ham bir xilda amalga oshmaydi. Sababi - har bir mamlakatning o'ziga xos siyosiy shart-sharoiti mavjud bo'lib, siyosiy jarayonlarning qanday kechishi shu sharoitga bog'liqdir. Masalan, totalitar siyosiy tuzum o'rnatilgan mamlakatlarda siyosiy erkinliklar bug'iladi, demokratiya ta'qib etiladi, buning natijasida siyosiy jarayonlarning rivojlanishi bir yoqlama xususiyatga ega bo'ladi. Bunday tartibot o'rnatilgan jamiyatda hukmron siyosiy kuchlar ommani siyosiy masalalarni hal etishda katnashishdan ma'rum qildi, siyosiy hokimiyatning zo'rlik ishlatish usullaridan foydalanib, kishilarni siyosiy befarqlik ruhida tarbiyalashga harakat qildi. Sobiq Ittifoq davridagi kommunistlar partiyasining yakka hokimligi, yagona mafkuraning hukmronligi natijasida siyosiy jarayonlarning borishida halq ommasi eng oddiy siyosiy masalalarni hal etishdan ham mahrum qilib quygan edi. Masalan, saylov oldi kompaniyasida kishilar nomigagina qatnashib, saylovlar natijasi saylov o'tkazilmasdan avvalo aniq bo'lardi. Hozirgi kunda bunga to'la chek quyildi.

Ikkinchi umumiy xususiyat — bu siyosiy jarayonlarning borishini, uning darajasini belgilab beradigan yetakchi kuch siyosatning xilma-xil subyektlari ekanligidir. Siyosat subyektlari hamma mamlakatlarda mavjud bo'lib, ularning siyosiy jarayonlarga ta'siri benihoyat kattadir. Siyosat subyektlari, bir tomondan, siyosiy jarayonlarning ifodasi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, ular

jamiyatning siyosiy rivojiga ta'sir etuvchi, uning borishini ta'minlab turuvchi siyosiy kuchlar sifatida faoliyat ko'rsatadilar.

Ammo siyosat subyektlarining faoliyat ko'rsatishi har bir mamlakatning siyosiy tuzumi, uning tarixiy-milliy sharoitlariga ko'ra turlicha darajada bo'ladi. Masalan, davlat siyosiy jarayonlarda dunyoning hamma mamlakatlarida ham etakchi kuch rolini o'ynaydi. Lekin, ba'zi mamlakatlarda hamma siyosiy tadbirlarda ham davlat qatnashavermaydi. Chunonchi, mehnatkashlarning ba'zi siyosiy yig'ilishlari, manifestasiyalari, kucha namoyishlari davlat ishtirokisiz o'tkaziladi. Shuningdek, dunyoning ayrim mamlakatlarida siyosiy partiyalar va harakatlarning siyosiy hayotdagi mavqeyi kuchli bo'lsa, ba'zilarida siyosiy jarayonlardagi ishtiroki sust bo'ladi.

Siyosiy jarayonlarda ijtimoiy hamda ommaviy tashkilotlar ham faol ishtirok etadilar. Ular faoliyati o'z a'zolarining maqsad va manfaatlarini himoya qilish bilan cheklanmaydi, balki jamiyat siyosiy hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarda u yoki bu darajada faollik ko'rsatadilar. Bu tashkilotlar vakillari davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda, ijtimoiy hayotni demokratiyalashda, mehnatkashlarning siyosiy, huquqiy va boshqa erkinliklarini himoya qilishda hamda muhim siyosiy tadbirlarni amalga oshirishda qatnashadilar. Shu bilan birga, jamoat tashkilotlari davlat tomonidan kuriladigan masalalar va qabul kililnadigan qarorlarning muhokamasida, ularni qabul qilishda nizoli muammolar kelib chiqqanda ularni hal qilishda ishtirok etadilar.

Siyosiy munosabatlar jamiyat hayotidagi murakkab hodisalardan biridir. Bu munosabatlar obyektiv xususiyatga ega, uni biron-bir siyosiy kuch ta'sirida to'xtatish yoki batamom boshqa tomonga burib yuborish mumkin emas. Chunki, insoniyat tarixining butun rivojlanishi davrida siyosiy munosabatlar uzluksiz davom etib kelgan.

Siyosiy munosabatlar siyosatning subyekti va obyekti o'rtasidagi munosabatlardan iboratdir. Shuningdek, siyosatning subyektlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ham siyosiy munosabatlarni ifoda qildi. Siyosiy munosabatlar jamiyat tuzulishida va boshqarishda ijtimoiy guruhlar, shaxslar, siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ifodalaydi.

Agar siyosiy jarayonlar jamiyatning siyosiy hayoti va siyosiy munosabatlarida ro'y beradigan o'zgarishlarni aks ettirsa, siyosiy munosabatlar esa, jamiyat siyosiy hayotining barcha sohalaridagi o'zgarishlarni emas, balki «obyekt-subyekt» hamda «subyekt-subyekt» shaklidagi munosabatlarni ifodalaydi. Demak, siyosiy munosabatlar deb jamiyatning siyosiy hayoti va uning siyosiy jarayonilarida uzluksiz harakatda bo'lgan siyosat subyektlari va obyektga qiladigan ta'sirini ifoda etuvchi harakatlarning umumiy ifodasi yoki ularning birligiga aytiladi.

Tarixda dastlabki siyosiy munosabatlar davlatlar o'rtasidagi munosabat sifatida shakllangan. Keyinchalik turli siyosiy harakatlar, siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlarning tashkil topishi asosida siyosiy munosabatlar doirasi kengaygan.

Siyosiy munosabatlar o'z xususiyatiga kura uch turga bo'linadi. **Birinchi turga, siyosatning har bir alohida subyekti o'rtasidagi munosabatlar kiradi.** Bunday munosabatlarga davlatlararo, siyosiy partiyalararo, harakatlararo, ijtimoiy

tashkilotlararo hamda halqaro siyosiy tashkilotlararo munosabatlar kiradi. Bir xil subyektlararo bunday munosabatlar ikki yoki ko'p tomonlama aloqalar shaklida namoyon bo'ladi.

Ammo bu turdagi siyosiy munosabatlar siyosat subyektlarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolga qarab bir-biridan farq qildi. Masalan, davlatlar o'rtasidagi bu munosabat o'zaro hamkorlik, davlatlararo muammolarni hal qilish choralarini izlab topish, diplomatik munosabatlarni rivojlantirishga yordam qildi. Lekin, davlatlararo munosabatlar siyosiy partiyalar yoki harakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan farq qildi. Chunki, davlatlararo siyosiy munosabatlarda mamlakat hayotiga doir shunday masalalar hal qilinadiki, ularni siyosiy partiyalararo yoki ijtimoiy tashkilotlararo xatto halqaro tashkilotlararo munosabatlar orqali ham hal qilib bo'lmaydi.

Ikkinchi turga - siyosatning turli subyektlari o'rtasidagi munosabatlar kiradi. Bu munosabatlar davlatlar, siyosiy partiyalar, halqaro siyosiy tashkilotlar, ijtimoiy hamda ommaviy jamoa tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar shaklida namoyon bo'ladi. Bu aloqalar qanday shaklda olib borilmasin, unda tomonlarning maqsad va manfaatlarini asosiy urinni egallaydi. Siyosatning har bir subyekti u davlatmi, siyosiy partiyami yoki halqaro tashkilotmi o'zaro munosabatda bular ekan, bu munosabat teng huquqiylik tamoyiliga asoslanishi lozim, o'zaro hurmat va ishonch ustun bo'lmog'i kerak.

Uchinchi turga - subyekt bilan obyekt o'rtasidagi munosabat kiradi. Bu munosabatlar siyosat subyektlarining jamiyatga qiladigan ta'siri va aks ta'siri tarzida namoyon bo'ladi. Jamiyat fuqarolardan tashkil topganligi uchun ham bunda fuqarolar siyosat obyekti sifatida namoyon bo'ladi va bu obyekt bilan siyosatning boshqa subyektlari o'rtasida turli xildagi munosabatlar olib boriladi. Agar huquqiy davlat shakllangan bo'lsa, bunday sharoitda siyosiy munosabatlar samarali rivojlanadi. Chunki huquqiy davlat urnatilgan mamlakatda fuqarolar bilan siyosat subyektlari o'rtasida obyektiv harakterdagi qarama-qarshiliklarning kelib chiqishiga yo'l quyilmaydi. Bunday sharoitda siyosat subyektlarining huquq va burchlari qonun yo'li bilan mustahkamlanib, ularning harakatlari qonun doirasida amalga oshiriladi.

Siyosiy munosabatlar ham siyosiy jarayonlar kabi o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Ushbu o'ziga xos xususiyatlar siyosiy munosabatlarni siyosiy hayotdagi boshqa munosabatlardan farq kildiradi.

Siyosiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - **obyektivlik va subyektivlik** dialektikasining siyosiy munosabatlarda amal qilishidir. Siyosiy munosabatlar siyosiy jarayonlar ifodasi sifatida obyektiv qonunlarga buysunadi va uning talablari ta'sirida rivojlanadi. Siyosiy munosabatlarni ham biron-bir siyosiy kuch to'xtatib quyaolmaydi. Obyektiv qonunlarga amal kilmaslik siyosiy munosabatlarda ziddiyatlarga, ba'zan tuknashuvlarga olib keladi. Bunday holatlarni biz Iroq, Kuba, Yugoslaviya, Afgoniston, Tojikiston davlatlari misolida kurishimiz mumkin. Ammo siyosiy munosabatlar obyektiv hodisa bo'lishi bilan birga uning rivojlanishi subyektiv faoliyatga ham bog'liqdir. Subyektiv omillar siyosiy munosabatlarda yoki ijobiy yoki salbiy okibatlariga olib kelishi mumkin. Bu borada siyosiy munosabatlar subyekti bo'lgan davlatning roli juda yukoridir.

davlat bu munosabatlarni tartibga solib turishi, ma'lum maqsadga yo'naltirishi borasida boshqa subyektlarga qaraganda katta imkoniyatlarga egadir.

Siyosiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri **-uzviylikdir**. Bu xususiyatning mohiyati shundan iboratki, siyosiy munosabatlar qanday sharoitda, qanday kuchlar tomonidan olib borilishidan qat'iy nazar, tuxtovsiz davom etadi. Tarixiy taraqqiyotning biron-bir bosqichida bu munosabatlarning batamom tuxtab qolganligi amaliyotda uchramaydi. Turg'unlik yillarida ham siyosiy munosabatlar tuxtamagan.

Siyosiy munosabatlarning uzluksiz davom etishi obyektiv hodisadir. Bu munosabatlar tezroq yoki sustroq rivojlanishi, siyosiy taraqqiyotga kuchli yoki kuchsiz ta'sir qilishi mumkin. Ammo bu xol siyosiy munosabatlarning uzluksizligini inkor etmaydi. Ana shu uzluksizlik asosida siyosiy munosabatlarning rivojlanishi davom etadi. Siyosat subyektlari o'rtasida keskin qarama-qarshiliklar ro'y bergan sharoitda ular orasidagi siyosiy aloqalar tuxtab qolishi, hamkorlik munosabatlari tushkunlikka yuz tutishi mumkin. Ammo siyosat subyektlarining fuqarolar bilan bo'lgan siyosat munosabatlari hyech qachon to'xtamaydi va ular ayrim ziddiyatlar va qarama-qarshiliklar asosida uzluksiz davom etadi. Siyosiy munosabatlardagi uzluksizlik kanchalik barqaror bo'lsa, bu jamiyatning umumiy rivojlanishiga shunchalik ijobiy ta'sir etadi.

Siyosiy munosabatlarga xos bo'lgan yana bir xususiyat uning **asta-sekinligidir**. Bu xususiyat ham obyektiv hodisadir. Shu sababdan ham siyosiy munosabatlarni sun'iy ravishda tezlashtirish yoki sekinlashtirish mumkin emas. Bu munosabatlar jamiyat hayotida ro'y beradigan o'zgarishlarning borishiga muvofiq holda rivojlanib boradi.

Ammo siyosiy munosabatlarning asta-sekinlik bilan borishini mutlak ma'noda tushunmaslik lozim. Ba'zan ayrim yoki bir guruh mamlakatlarda siyosiy munosabatlarning okimi tezlashishi, boshqa mamlakatlarda esa sekinlik bilan davom etishi mumkin. Bunday tezlashish hodisasi, odatda siyosiy hokimiyatlar o'zgarganda, jamiyat hayotida keskin siyosiy muammolar kelib chiqqanda, davlat bilan boshqa siyosat subyektlari o'rtasida qarama-qarshiliklar ko'chayganda ro'y beradi. Bunday sharoitda mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan siyosatning turli subyektlari hukmron siyosiy kuchlar tomonidan olib boriladigan siyosiy yo'lga o'z munosabatlarini bildirib, voqyealarning borishidan o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalanishga harakat qildilar.

Siyosiy munosabatlarning rivojlanishi o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun siyosat subyektlarining faol harakat qilishlari, ularning siyosiy munosabatlarining samarali borishiga yordam beradigan tamoyillarga qat'iy amal qilishi ahamiyatlidir. Bunday tamoyillarga quyidagilar kiradi: **siyosiy munosabatlarda tomonlarning manfaat va maqsadlari bilan hisoblashish, bu munosabatlarni o'zaro ishonch va teng huquqiylik asoslarida olib borish, siyosiy munosabatlarda ro'y beradigan mojarolarni o'zaro kelishuvlar asosida hal etish, zuravonlik, duk-pupisalar qilishdan voz kechish, boshqalarga o'z xukmini o'tkazishga yo'l kuymaslik** singari tamoyillarga amal qilish zarur. Siyosat subyektlari o'z faoliyatida bu tamoyillarga og'ishmay amal qilgan taqdirdagina siyosiy munosabatlarda samara yukori bo'ladi.

Siyosiy munosabatlarning rivojlanishida siyosat subyektlarining bir-biriga xukmini o'tkazmaslikka, o'zaro munosabatlarda etilgan muammolarni o'zaro kelishuvlar asosida hal qilishga intilishlari katta ahamiyatga egadir. Mustaqil O'zbekiston davlatida siyosatning barcha subyektlari o'zaro munosabatlarda tomonlarning manfaatlarini e'tiborga olishga, bir-birlari bilan ishonchli aloqalar o'rnatishga intilmokdalar, bir-birlarining ichki ishlariga aralashish, siyosiy aloqalarni olib borishda o'zaro ishonchsizlik singari xollar uchramaydi.

Ma'lumki, ziddiyatlar har qanday taraqqiyotning, shu jumladan jamiyat siyosiy rivojlanishining ham harakatlantirunchi kuchi, ichki manbai hisoblanadi. Ammo ziddiyatlar bilan birga siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda qarama-qarshilik hodisasi ham bo'ladi. Agar ziddiyatlar orqali siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda rivojlanish ro'y bersa, qarama-qarshilik orqali esa tushkunlikka yuz tutiladi. Demak, ularning harakati turlicha oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda amal qiladigan ziddiyatlarga quyidagilar kiradi: **siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlardagi muammolar bilan ularni hal qilish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; siyosatning turli ziddiyatlar; siyosatning alohida subyektlari bilan fuqarolar o'rtasidagi ziddiyatlar; siyosiy jarayon va siyosiy munosabatlar nazariyasi bilan amaliyoti o'rtasidagi ziddiyatlar.** bunda ko'rinib turibdiki, siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlarda bo'ladigan ixtiloflar ijtimoiy hayotning ichki ziddiyatlari, siyosatni amalga oshirishga qaratilgan xatti-harakatlar, kursatma va tavsiyalar bilan turli ijtimoiy guruhlar manfaatlarini o'rtasidagi, shuningdek, siyosatning subyektlari o'rtasidagi manfaatlarning nomuvofiqliklaridan kelib chiqar ekan. Siyosat bunday ziddiyatning kelib chiqishi sababini oldini olishi, mamlakat aholisining turli ijtimoiy guruhlari, tabaqalari va qatlamlarining manfaatlarini uyg'unlashtirishi zarur.

Agar siyosiy jarayonlarda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish davrida mavjud imkoniyat hisobga olinmay harakat kilinsa, unda ziddiyat harakati okibati jihatidan avvalgisidan keskinroq bo'lgan muammoni keltirib chiqarishi mumkin. Yoki aksincha, zarur imkoniyatlar etilishidan samarali foydalanish katta ijobiy holatlarga olib kelishi mumkin. masalan, O'zbekiston davlati olidida mustaqilikka erishgandan so'ng davlat suvereniteti asoslarini yaratish asosiy siyosiy muammolardan biri bo'lib koldi. Buning uchun asosiy imkoniyat respublika Konstitusiyasini ishlab chiqish va qabul qilishdan iborat edi, so'ngra davlat ramzlari – Bayrog'i, Gerbi, Madxiyasiga, davlat tiliga hamda mustaqil ichki va tashqi siyosatga ega bo'lishi lozim edi. Bu esa O'zbekiston Respublikasida mavjud ziddiyatlar harakatidan to'g'ri foydalanish orqali yuqoridagi imkoniyat voqyelikka aylantirildi.

Siyosat subyektlari bilan fuqarolar o'rtasidagi ziddiyat ayniqsa, davlat bilan fuqarolar o'rtasida yakkol ko'zga kurinadi. masalan, ayrim mamlakatlarda ro'y berayotgan fuqarolik urushlari, kucha namoyishlari, norozilik mitinglari bunga misoldir.

Siyosiy jarayonlar va siyosiy munosabatlardagi ziddiyatlar yukolib ketmaydi, ular bu sohadagi muammolarning hal qilinishiga qarab yangidan paydo bulaveradi va shu tarika bu sohada rivojlanish, taraqqiyotga yerishib borilaveradi.



Схема 33

Сиёсий жараённинг тузилиши:




Схема 35

Сиёсий жараёндаги субъект - объект
мунособатларининг тузилиши




Схема 37



Схема 38





Схема 39



Схума 40



Savol va topshiriqlar:

1. Siyosatni belgilovchi omillarini aniqlang.
2. Siyosat va uning ijtimoiy mohiyati va turlarini ta'riflang.
3. Siyosatni ijtimoiy hayot sohalarida namoyon bo'lishi deganda nimani tushunasiz?
4. Siyosat va iqtisodning dialektik birligini tushuntiring.

5. Ijtimoiy siyosat sohasini aniqlang.
6. Millatlararo munosabatlar sohasidagi «Milliy manfaat» va «Milliy siyosat»ni qanday tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T. 7.-T., 1999.- B. 132-154.
1. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13-T., 2005.-B. 174-222.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
3. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 53-57, 60-63.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. «O'zbekiston», T.: 2010. 8-38 – betlar.
5. Karimov I.A. “2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi”. T.: 2012.
6. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, Abduralla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – B. 169-161.
7. Abu Rayhon Beruniy tug'ilgan kunining ming yilligiga bag'ishlangan to'plam. –T., «Fan», 1993.
8. Abu Ali Ibn Sino to'g'ilgan kunining ming yilligi. (maqolalar to'plami). T., «Fan», 1980.
9. Temur tuzuklari. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa birlashmasi. 1991.
10. Nizomulmulk – Siyosatnoma yoki Siyar ul-mulk. Toshkent, «Adolat», 1997.
11. Karimov S.K. O'rta Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari. S., 1991.
12. Otamurodov S. Globallashuv va millat (falsafiy-siyosiy tahlil). –T., 2008. – S. 7-29.
13. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B.5-21.
14. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.-26-47.
15. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. T.: 2009. 103-118.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

3-Mavzu: SIYoSIY TIZIM VA SIYoSIY TARTIBOT.

REJA:

1. Siyosiy tizim tushunchasi. Siyosiy tizim elementlari. O'zbekistonning siyosiy tizimi.
2. Siyosiy tizimning tarkibi: a) tarkibiy tizimi; b) madaniy-mafkuraviy tizimi tizim; v) normativ tizim; g) axborot-kommunikativ tizim.
3. Siyosiy tizim funksiyalari.

TAYaNCh IBORALAR:

Siyosat, siyosiy sistema, siyosiy hodisa, siyosiy tashkilotlar, g'oyalar, milliy mafkura, davlat, siyosiy kuch, ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, siyosat subyektlari, siyosiy institutlar, siyosiy munosabatlar, siyosiy me'yorlar va qoidalar, siyosiy hokimiyat, qonun chikaruvchi, ijro etuvchi, sud, matbuot va ommaviy axborot vositalari, ishontirish, ragbatlantirish, manfaatdorlik, monarxiya, respublika, totalitar, avtoritar, liberal, demokratik, legitimlik.

Siyosiy sistema jamiyatning boshqa iqtisodiy va ma'naviy sistemalariga nisbatan torroq ma'noda ishlatiladi. Lekin shunga qaramasdan jamiyatning siyosiy sistemasi uz doirasida qabul qilinadigan qarorlari jihatidan butun jamiyat va uning boshqa sistemalariga nisbatan majburiyliligi bilan ajralib turadi. Chunki u, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy strukturasiga bog'liq bo'lib, nisbiy mustaqillikka ega, u tuzilmalar, bajaradigan funksiyalarining maxsus qurilmalari mavjudligi bilan belgilanadi.

Jamiyatning siyosiy sistemasi har bir davrda o'ziga xos bo'lgan barqarorlik va hayotiylikni kafolatlovchi ma'lum kurilma bilan harakterlanadi. Bunday o'ziga xos bo'lgan kurilmalar yordamida ijtimoiy hayotda yuz bergan ixtiloflar va ziddiyatlar hal etiladi, turli ijtimoiy guruhlar, qatlamlar, tashkilotlar va harakatlarning kuch-g'ayratlari muvofiqlashtiriladi.

Siyosiy sistema faqatgina muvofiqlashtiruvchilik va birlashtiruvchilik vazifasini bajarish bilan cheklanmaydi. Chunki sistema o'zidagi barqaror elementlarni, mutlok harakatda bo'lgan nisbiy barqaror jihatlarini topish lozim. Shundagina u, sistema ma'nosini to'liq anglatishi mumkin.

Sistema umumiy qilib olganda amr etish vazifalari shakli bo'lib hisoblanadi. U atrof-muxitga moslashuvi, uning ishtirokchilari o'rtasida muloqotlarni tashkil etish, ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan ziddiyatlar va keskinliklarni nazorat qilish va boshqarish shaklida namoyon bo'ladi. Qisqacha qilib aytilganda, ijtimoiy munosabatlar sistema sifatida tushuniladigan jamiyat modelini tashkil qildi.

Siyosat – bu tizimdir, ya'ni o'zaro hamkorlikka asoslangan elementlar yig'indisidir.

Siyosiy jarayondagi turli xil siyosiy xolatlar, hodisalar o'zaro bog'liqlikda va bular bir butun yaxlit organizmni ifodalaydi ya'ni XX asrning o'rtasilarida siyosiy hayotning tushunishida baxs–bixeoviristik yondashuv orqali siyosat subyektlarining harakatini taxlil qilish va siyosiy institutlar, tashkilotlar, siyosiy xulq – atvorning alohida ko'rinishlari to'g'risida juda ko'p ma'lumotlar yig'iladi. Shu ma'lumotlarni bir tizimga solish siyosatni bir butunlik sifatida tushunish natijasida nazariy asosni vujudga keltirish zaruriyati paydo bo'ladi.

Siyosiy sistemani nazariyasining paydo bo'lishida XX asrning 20 yillarida biologiya fanida nemis olimi Modvich fan Vertalanfi tomonidan sistema tizim nazariyasi kashf etiladi. Bunda xujayralar o'zaro bog'liq bo'lgan elementlardan tashkil topib, tashqi muhit bilan aloqadordir. Agar biron bir elementning funksiyasi o'zgarsa, boshqa elementlar ham o'zgaradi. Natijada organizm ham o'zgaradi.

Ijtimoiy fanlarga bu kashfiyot ham ta'sir qiladi. Birinchi bo'lib T.Parsons «siyosiy sistema» atmasini qulladi.

Parsons fikriga, har qanday tizim 4 ta vazifani (funksiyani) bajaradi:

1. Moslashuv funksiyasi (adaptasiya) – asosan tashqi muhit bilan moslashishni, aloqadorligini ifodalaydi.
2. Maqsadga erishish funksiyasi – tizimning maqsadini aniqlash, jamoa faoliyati subyektlarini safarbar etish funksiyasini bajaradi.
3. Integrasiyalashtirish funksiyasi – siyosiy sistemani tashkil etadigan munosabatlarni qo'llab – quvvatlash, muvofiqlashtirishga qaratilgan.
4. Latent funksiyasi – siyosat subyektlarining sistemaga taaluqli bo'lgan me'yorlari va qadriyatlarni saqlash, rivojlantirishga qaratilgan.

T.Parsons jamiyatni o'zaro hamkorlikda bo'lgan 4 tizimchadan iborat ijtimoiy tizimni ko'rib chiqadi. Har bir tizim o'z navbatida muayyan ehtiyojlarni bajaradi.

Politologiya fanida siyosat tizim nazariyasi asosan XX asrning o'rtalarida kirib keldi. D.Istan, G.Almond, Gspenser, K.Doyg va boshqa yirik politologlarning

asarlarida u nazariy jixatdan ishlab chiqildi. Shulardan birinchi bo'lib D.Iston siyosiy sistema nazariyasini politologiya faniga kiritdi.

D.Iston o'z asarlarida: «siyosiy, siyosiy atamalar bu o'z – o'zini boshqaradigan va rivojlanadigan, tashqaridan keladigan turtki yoki signal (impuls)larga javob beruvchi yaxlit bir organizmdir» deb aytadi.

U o'zining «siyosiy hayotning sistemali analiz» (1965 yil) degan asarida siyosiy sistemaning yashashi uchun zarur bo'lgan sharoitlarni tadqiq qilib unda kategoriyalarga ta'rif beradi.

Siyosiy tizim bir yaxlit organizm sifatida doimo tashqi muhit bilan aloqadordir. Shuning uchun siyosatning kirishi va chiqishi mavjud. Bu aloqa siyosiy tizimga ta'sir va aks ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon aylanma tarzda yuz beradi, deb ta'kidlaydi. Bu signallar jamiyat a'zolarining talab va takliflarini o'zida ifodalashi mumkin.

Talab va takliflarga: ish bilan ta'minlash, ish haqini oshirish, erkinlik, teng huquqlilik va hokazolar kirishi mumkin. Nafaqat talab va taklif balki qo'llab – quvvatlash, muayyan tizimga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, qonunlarga so'zsiz itoat qilish, soliqlarni muntazam to'lab turish majburiyati, harbiy xizmat, ovoz berish, davlat hokimiyatining ramzlariga munosabatlarini bildiradi.

Bunday turli-tuman qarashlarga qaramay, davlat hokimiyati tomonidan amalga oshiriladigan ishlar, ijtimoiy rivojlanish yo'llari harakterini belgilovchi xususiyatlar siyosiy sistemalar tipologiyasining asosiy mezon bo'lib hisoblanishini e'tirof etish maqsadga muvofiq bo'lur edi. Chunki jamiyatning siyosiy sistemasi uning ijtimoiy-iqtisodiy bazasi negizida kelib chiqadi va uning ustiga kuriladi. Bas, shunday ekan, jamiyatning siyosiy sistemasi ma'lum tizimlardan iborat bo'lib, uning elementlari o'zaro bog'liq va barqaror birlikni tashkil etadi. Uning elementlari yoki tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, mehnat jamoalari, yoshlar ittifoqi va boshqalar.

Jamiyatning siyosiy sistemasi va siyosiy tashkiloti degan tushunchalarni bir-biridan farq qila bilish lozim. Chunki jamiyatning siyosiy sistemasi uning siyosiy tashkilotiga nisbatan keng ma'noga ega. Agar jamiyatning siyosiy tashkiloti davlat, uning organlari, siyosiy partiyalar va ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning tuzilishi va tarkibini ifoda etsa, siyosiy sistema jamiyatdagi siyosiy munosabatlarning barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi. Shuning uchun ham jamiyatning siyosiy sistemasi deganda, birinchi navbatda siyosiy munosabatlarni, siyosiy muassasalarni, siyosiy qoidalar va me'yorlarni, siyosiy ong va siyosiy madaniyatni ko'z oldimizga keltirib anglashni taqozo etadi. Zotan, siyosiy sistema tushunchasining ma'nosi ham shundan iborat.

Jamiyatning siyosiy sistemasi hokimiyat vujudga kelishi jarayonida shakllanib keyinchalik ijtimoiy siyosiy tuzumning taraqqiy etib borishi natijasida takomillashib boraveradi. Shuning uchun ham ijtimoiy-siyosiy hayotning tarixiy taraqqiyoti bosqichlarida turli-tuman o'ziga xos bo'lgan va usha davrlarda xizmat qilgan siyosiy ustqurmalar bo'lgan va jamiyatning o'zgarishi bilan ularning ayrim tomonlari yuk bo'lib, uning o'rniga zamon, davr talabiga muvofiq keladigan qoidalar, me'yorlar, siyosiy munosabatlar shakllangan. Masalan, O'zbekiston

Respublikasi mustaqillikni kulga kiritgandan keyin jamiyat siyosiy sistemasini qayta qurishga kirishdi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida islohotlar o'tkazib, demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini barpo etishga zamin yaratdi.

Siyosiy sistemaning ikki asosiy tomoni, ya'ni **huquqiy va sosiologik** (ijtimoiy) tomonlari mavjud. Agar birinchisida ijtimoiy muassasalar va tashkilotlar yig'indisi sifatida namoyon bo'lib, ular faoliyatida davlat hokimiyatiga daxldor qilib siyosiy tus kasb etilsa, ikkinchisida ijtimoiy muxit va ijtimoiy sistemaning o'zidan kelib chiqadigan ichki turtki orqali ijtimoiy harakatlarni shakllantiruvchi siyosiy yechimlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Jamiyatning siyosiy sistemasi o'zining tuzilishi jihatidan bir necha tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi: **institusional, normativ, funksional, kommunikativ, nazorat.** **Institusional** - davlat, partiyalar, ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarni o'z ichiga qamrab olib, uning tarkibiy qismlariga davlat hokimiyati, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy va jamoat tashkilotlari kiradi.

Bu tarkibiy qismlarning har biri ichki mustaqillik makomiga ega bo'lib, o'ziga xos tashkiliy-amaliy tuzilish xususiyatlariga ega. Lekin shunga qaramay, mazkur tarkibiy qismlar o'rtasida bog'liqlik, aloqadorlik, o'zaro ta'sir o'tkazish mavjud. Chunki, siyosiy hokimiyatni boshqarib borish jarayonida siyosiy muassasalar, siyosiy va ommaviy jamoat tashkilotlarining faoliyatlari bevosita boshqa tarkibiy qismlarning ishtiroki orqali amalga oshadi. demak, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar jarayonida osoyishtalikka va uyg'unlikka qanchalik amal qilinsa, siyosiy muassasalar ish faoliyatlarining mazmuni ham shunchalik obyektiv talablarga to'g'ri, mutanosib tarzda shakllangan bo'ladi.

Normativ - turli xil huquqiy, axloqiy, siyosiy an'analar va boshqa normalarni tashkil etadi. Bular ijtimoiy-siyosiy hayotni boshqarib borishda ko'maklashadi.

Funksional - turli xil siyosiy jarayonlarni, hokimiyatni amalga oshirish uslubi va vositalarida o'z aksini topgan siyosiy faoliyatni o'z ichiga oladi. Buni umumlashtirgan holda «siyosiy tartibot» deb atalsa ham bo'ladi.

Kommunikativ - jamiyat ichidagi (masalan, partiya va davlat, siyosat va iqtisod o'rtasidagi) va bir mamlakatning ikkinchi bir mamlakat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarini bog'lab turishini ta'minlashdan iborat.

Jamiyat siyosiy sistemasining yuqorida qayd etilgan tarkibiy qismlari o'zaro aloqadorlikda, dialektik birlikda olib borilgandagina ijtimoiy-siyosiy hayotni bir maromda barqaror ishlashi uchun zamin hozirlangan bo'ladi.

Jamiyat siyosiy sistemasi bajaradigan funksiyasiga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin: 1. Ijtimoiylashtirish (sotsializasiya) va siyosiy rekrutlashtirish, ya'ni manfaatlarni ifodalash, umumlashtirish, siyosiy axborot almashish; 2. Qoida qonunlarni ishlab chiqish, ularni qabul qilish va bajarilishini nazorat qilish.

Ijtimoiylashtirish - bu jamiyat a'zolarining ijtimoiy faollikka jalb etish. **Siyosiy rekrutlash** esa jamiyat tashkilotlarini yangi a'zolar hisobiga ko'paytirishdan iborat. **Manfaatlarni ifodalash** - siyosiy qarorlarni ishlab chikaruvchilarga nisbatan quyilgan talab tarzida ayrim kishilar yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan quyilishi mumkin. **Manfaatlarni umumlashtirish** - bu e'tiroz va talablarni

umumlashtirish, kelishtirish, ularni siyosiy yo'nalishga aylantirish, siyosiy platforma, programma to'sini olishdan iborat.

Siyosiy kommunikasiyalash - bu turli xil ijtimoiy harakat shakllarini o'z ichiga olib, siyosiy sistemaning turli elementlari o'rtasida axborot almashinuvini ta'minlashdan iborat.

Qoida-qonunlarini ishlab chiqish asosan siyosiy maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan, xususiy harakterga ega bo'lgan hamda nafaqat qonun chiqaruvchi organlar yordamida, balki ijro etuvchi organlar tomonidan ham chiqariladigan siyosiy normativ aktlardan iborat. Eng muhimi shundan iboratki, ishlab chiqilgan qoida va normalar amaliyotda tatbiq etilish va bajarilishini ta'minlash lozim. Ularning bajarilishini nazorat qilish esa ishlab chiqilgan qoidalarining bo'zilishiga chek quyilishi, to'qnashuvlarning bartaraf etilishi, qoida buzuvchilarga jazo berishdan iboratdir.

Siyosiy tizim ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga kura 4 tipga bulinadi: quldorlik, feodal, burjua va sosialistik. Ijtimoiy asosga kura jamiyatning harbiy va fuqarolik boshqaruvi, milliy-demokratik yoki burjua-demokratik sistemasi bo'ladi. Harbiy boshqaruvdan fuqarolik boshqaruviga utish asosan konstitusiyaga asoslanib, ya'ni real saylov, hokimiyatning harbiy tuzilmalarining tugatilishi, parlamentning tashkil etilishi, ijtimoiy tashkilotlar va partiyalarning shakllanishi, yangi qonunchilikning qabul qilinishi asosida amalga oshiriladi.

Siyosiy tizim totalitar, avtoritar va demokratik shakllarda bo'ladi.

Har qanday jamiyat muayyan tartibotga ega u o'zining a'zolarining israrxik tuzilishini qamrab oladi va konkret maqsadlarni ifoda etadi.

«Siyosiy tartibot tushunchasi politologiya fanida muhim ahamiyatga ega.

«Siyosiy sistema» va «siyosiy tartibot» tushunchalari siyosiy hayotni turli tomonidan ochib beradi: «siyosiy sistema» tashqi muhit bilan bog'liqligining harakterini ochib bersa, «siyosiy tartibot» esa umummanfaatlarni amalga oshirishning vosita va uslublarini aniqlab beradi. Ba'zilar uning mazmunini boshqarish shakllari bilan tushuntiradilar. Bunga ko'ra siyosiy tartibot qonun chiqarish va davlatning ijro funksiyasini farqlash va ularning nisbatini aniqlashga qaratiladi. Bunday prinsipda tartibot hokimiyat bilan qo'shilishi (mutloq monarxiya), hokimiyat taqsimlanish tartiboti (prezident respubliki) va hamkorlik tartiboti (parlament respublikasi) ajralib chiqadi. Hokimiyat tuzilmalarning faoliyatiga e'tibor berish natijasida boshqa siyosiy institutlarning ta'sirini inkor qilish mumkin. (siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar).

Siyosiy fanda siyosiy tartibot ta'rifini birinchi bo'lib fransuz olimi M.Dyuverje bergan. U siyosiy tartibotni legitimlik xususiyati, institutlar to'zilmasi, partiyaviy sistemani, davlatning shakli va roli sifatida tushungan. Bunday tushunish hozir ham ko'pchilik tomonidan tan olingan.

«Siyosiy tartibot» tushunchasi davlat hokimiyati va individlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik harakterini ifodalaydi. Shuningdek, davlatlarning hokimiyatni amalga oshirishda qo'llanadigan vosita va uslublari yig'indisi bo'lib, jamiyatdagi siyosiy erkinlik darajasi va shaxsning huquqiy o'rmini qay darajadaligini ochib beradi. Individning ijtimoiy erkinlik darajasi va davlat bilan fuqarolik jamiyati

o'rtasidagi o'zaro munosabat harakteriga qarab 3 xil: totalitar, avtoritar va demokratik tartibotlar mavjuddir.

Siyosiy tartibot – bu siyosiy va fuqarolik jamiyatning sifatii holatidir. Bu siyosiy tuzumning garmonik natijasidir.

Totalitar - siyosiy tuzumning muayyan bir tipi sifatida XX asr siyosiy va ijtimoiy tuzumiga xosdir. Totalitar to'liq, maqsadli ma'nosini bildiradi. Totalitarizm siyosiy tartibot ma'nosini bildirib, hokimiyat tomonidan butun jamiyat va shaxs ustidan to'la, har tomonlama nazoratning o'rnatilishi, butun ijtimoiy tuzumni jamoa maqsadi va rasmiy mafkuraga to'la buysundirilishini o'zida aks etiradi. Bu tartibotda eng avvalo fuqarolar siyosiy jarayonlardan chetlashtiriladi, siyosiy hayot bir markazdan boshqariladi, shaxs xulq-atvori yoppasiga, umumiy nazorat kilinadi, jamiyatning barcha a'zolari ongiga yagona partiya - davlat mafkurasii zurlab singdiriladi. Totalitarizmning kelib chiqishi shart-sharoitlari kuyidagilardan iborat: Birinchidan, jamiyatning industrial taraqqiyot bosqichga o'tishi bilan belgilanadi. Bu bosqichda ommaviy kommunikasiya sistemasi tashkil etiladi, ijtimoiy aloqa va tashkilotlar murakkablashtiriladi, «miyani yuvish» va shaxs ustidan to'la nazorat o'rnatiladi. Bu taraqqiyot bosqichida ko'pgina mamlakatlarda davlat bilan mustahkam aloqada bo'lgan qudratli monopoliyalar vujudga keladi. Shu bilan birga, davlatning o'zi ham ko'chayadi, uning ijtimoiy funksiyalari kengayadi, uning boshqaruvchanligi va tashkilotchiligi kuchayadi, fan-texnika, ta'lim, halqning turmush darajasining yaxshilanishi ko'zga tashlanadi. Ikkinchidan, kishilarning real, ziddiyatli, rakobati ko'chaygan jamiyatdan ruxan konikmasligi ko'zga tashlanadi. Bunda ijtimoiy iqtisodiy hayotda inqirozlar ko'chayadi, ommaniig qashshoqligi, noroziligi yanada avj oladi.

Yuqorida qayd etilgan totalitarizmning vujudga kelishi shart sharoitlari faqat siyosiy sharoitda, ya'ni o'ta mafkuralashtirilgan, yarim harbiy to'zilishga ega bo'lgan, a'zolarining o'z e'tikodiga va bu e'tikodga sajda qiladigan doxiylar, rahbarlar maydonga kelishi va g'oyaga amal qiladigan siyosiy partiyasi bo'lishini taqozo etadi.

Aynan ana shunday ijtimoiy sharoitlarga ega bo'lgan tashkilot yoki harakat totalitar ijtimoiy-siyosiy tuzumni vujudga keltirishda zamin tayyorlaydi. Bu tuzumning bir necha kurinishlari mavjud: **Kommunistik** totalitarizm, fashizm, milliy sosializm. Kommunistik totalitarizm - bu tuzumning asosiy xususiyatlari: xususiy mulkchilikni to'la tugatish, shaxs avtonomiyasini yo'q qilish, davlatning to'la hukmronligini o'rnatishdan iborat. Fashizm - bu birinchi marotaba 1922 yilda Ispaniyada o'rnatilib, buyuk Rim imperiyasini tiklashni ko'zda tutgan. Milliy sosializm - bu irq va millatni ulug'lash, nemis millatini oliy irq deb e'lon qilib, jahonda hukmronlikni o'rnatishdan iborat.

Avtoritar - bu totalitar bilan demokratiya o'rtasidagi oraliq siyosiy tuzum tipi bo'lib hisoblanadi. Bu rejimning xususiyatlari kuyidagilar:

1) Hokimiyat bir yoki bir guruh shaxslar qulida bo'ladi: bu - monarx, tiran, harbiy xunta bo'lishi mumkin. Omma esa hokimiyatdan chetlatiladi. 2) Hokimiyat cheklanmagan bo'ladi. 3) Kuchga tayanish orqali tuzum boshqariladi. Avtoritar tartibot ommaviy quvg'inlikdan foydalanilmasligi mumkin va xatto keng omma

orasida katta obro'ga ega bo'lishi ham mumkin. Ammo u aholini zaruriyat to'g'ilganida bo'ysunishga majbur etadi.4) Hokimiyat va siyosatni monopoliyalashtirish, siyosiy oppozitsiyaga, mustaqil legal siyosiy faoliyatga yo'l bermaydi. Avtoritarizm davrida cheklangan sonda partiya, kasaba uyushmalari va boshqa ayrim ommaviy tashkilotlar ish kurishi mumkin, ammo ular faqatgina hokimiyat nazorati ostida amalga oshiriladi. 5) Jamiyat ustidan tuliq nazoratdan voz kechiladi, siyosatdan tashqari sohaga, ayniqsa iqtisodga aralashmaslik tuliq yoki cheklangan holda bo'lishi mumkin. Hokimiyat eng avvalo o'z xavfsizligini, jamoat tartibini, mudofaa va tashqi siyosatni tashkil etish bilan shug'ullanadi, lekin shu bilan birga barcha iqtisodiy taraqqiyot yo'nalishiga ta'sir qilishi, yetarli darajada faol ijtimoiy siyosat yuritishi mumkin.

Avtoritar siyosiy tuzum kishilik tarixida juda keng tarqalgan va xilma-xildir. Bu monarxiya, despotik, diktatorlik tartiboti va harbiy xunta hisoblanadi. Bu tartibotda nafaqat kuch ishlatish, ommaviy qirg'in va qurqitish orqali, balki boshqa vositalarni ishga solish orqali ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun harakat kilinadi.

Ikkinchi Jahon urushidan keyingi yillarda qator avtoritar tartibotidagi mamlakatlar amalda iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini namoyon etdilar, iqtisodiy gullashni siyosiy barqarorlik bilan uzviy bog'lab borish mumkinligini, erkin iqtisod xukm surgan kuchli xokmiyatni urnatish mumkinligini isbotladilar. Bu tartibotning ijtimoiy taraqqiyotga ta'sirining ham zaif, ham kuchli tomonlari bor. Zaif tomoni - siyosat to'liq davlat boshligi yoki bir guruh oliy darajadagi rahbarlarning xatti-harakatlariga bog'liq bo'lishidadir. Afzallik tomoni shundaki, mamlakatda kiyin, murakkab vaziyatlar vujudga kelganda juda tez, kat'iyat bilan jamoat tartibini saqlashni ta'minlash, muayyan masalalarni hal etish uchun konservativ kuchlarni qayta tashkil etish, kuch va resurslarni bir joyga tuplash imkoniyatlariga ega bo'lishidadir.

Bu tartibotniig kelajagi hozirgi davrning tarixiy taqozosi bo'lgan **demokratik siyosiy tartibot bilan ham bog'liqdir.**

Demokratiya - grekcha so'zdan olingan bo'lib, halq hokimiyati ma'nosini anglatadi. Bu tushuncha dastanval qadimgi yunonistonda demokratik davlatni tashkil etishning maxsus shakli sifatida ishlatilgan. Bunda hokimiyat bir kishi yoki bir guruh shaxslar kulida emas, balki butun fuqarolar tomonidan boshqarilishi e'tiborga olingan. Bundan tashqari, demokratiya turli tashkilotlarni tuzish shakli sifatida ham ishlatilgan. Bunda u yoki bu tashkilot a'zolarini (partiya, kasaba uyushmalari, ishlab chiqarish jamoalari) teng huquqlikka asoslanish, vaqti-vaqti bilan boshqaruv organlarining saylanishi, ko'pchilik ovoz bilan qarorlarning qabul qilinishi kabi xususiyatlar taqozo etilgan. Shuningdek, demokratiya jamiyat qurilishining muayyan qadriyatlarini va unga mos keladigan dunyoqarashga asoslangan tizim shakli sifatida ham ishlatiladi. Bunday demokratik qadriyatlarga ozodlik, tenglik, inson huquqlarini himoya va hurmat qilish, halq suvereniteti, fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va boshqalar kiradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotni demokratiyalash jarayoni murakkab siyosiy hodisa bo'lib, u asosan vakolatli va bevosita shaklida mavjud bo'ladi. Vakolatli demokratiyada halq tomonidan saylab kuyiladigan parlament (vakillar) a'zolari

orqali davlat va jamiyat hayotiga daxldor bo'lgan masalalarni hal etadilar hamda vaqti vaqti bilan halq ommasi oldida qilingan ishlar yuzasidan hisobot berib turadilar.

Vakolatli demokratiyaning namoyon bo'lishini siyosiy partiyalar, ijtimoiy va ommaviy jamoat tashkilotlari faoliyatlarida ham kurish mumkin. Mazkur tashkilotlarning a'zolari vakillik asosida yuqori organlarning anjumanlarida katnashib, o'z nomzodlarini saylovga qo'yib, parlamentga o'tkazishlari va shu orqali o'z tashkilotlarining manfaatlarini himoya qilishlari mumkin.

Bevosita demokratiya halq ommasining jamiyat va davlat ishlarini olib borish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishlari hamda mamlakatda olib borilayotgan siyosat va siyosiy o'zgarishlarga o'z munosabatlarini bildirish ma'nosini anglatadi. Buning dastlabki kurinishi kuldorlik jamiyatida ro'y berib, halq, mamlakat va davlat hayotiga doir masalalarni hal etishda to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishgan. Xuddi shu xolni, yuqorida qayd etilgan Yunonistonda kurish mumkin.

Demokratik jamiyat xususiyatlari:

1. Hokimiyat bo'linishi: bir – biriga daxldor bo'lmagan hokimiyat bo'g'inlaridir. Yuqori Qonun chiqiruvchi tashkilot – Parlament. Yuqori Ijro etuvchi hokimiyat – o'z vakolatlari chegarasida faoliyat olib boradi. Sud hokimiyati – ham qonun chiqarish, ham ijro etish hokimiyat qarorlarini bekor qilish vakolatiga ega.

2. Fuqarolar yuridik jihatdan mustahkamlangan katta hajmdagi huquq va erkinliklarga ega. Nima taqiqlanmagan bo'lsa – ruxsat etiladi.

3. Muxolifatning mavjudligi ularning barcha siyosiy huquq va erkinliklardan foydalanadi.

4. Ko'ppartiyaviylik – huquqiy asoslar orqali hokimiyat almashuvi.

5. OAV erkinligi: hokimiyat, bosh qarashi tanqid zo'rlikka da'vat etish emas, balki demokratik yo'lni tanlash.

6. Armiya va maxsus xizmat organlar davlat tayanchi sifatida davlat va jamiyat havfsizligini ta'minlaydi. Bularning harakatlari qonun orqali boshqariladi va cheklanadi. Huquqiy tartibotni qo'llab – quvvatlash armiya va maxsus xizmat tashkilotlariga emas, balki polisiya va sudlarga beriladi.

7. Rasmiy mafkuraning yo'qligi, diniy tashkilotlar davlatdan ajratilganligi.

8. Iqtisodiy plyuralizm.


9. Oshkoralik, ko'pfikrlilik (plyuralizm) konsensus (kelishuvlar).

Real demokratiyani esa hozirgi kunda ko'pchilikning ozchilik ustidan hokimiyati sifatida tushunish lozim. Demokratik tartibot bu - demokratiyaning oliy turi, uning uchun nafaqat bilvosita yoki vakolatli demokratiyani, balki bevosita demokratiyani, ijtimoiy uz o'zini boshqarishni rivojlantirish bilan karakterlanadi. Bu tartibotning oliy maqsadi huquqiy davlat hisoblanadi. Huquqiy davlatda inson hokimiyatning o'zboshimchaligidan, jamiyatda sodir bo'ladigan stixiyali jarayonlardan himoyalangan bo'lishi lozim. Demokratiya nafaqat erkinlikni, balki tenglikni ham tan oladi. Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining O'zbekiston Reyepublikasi Oliy Majlisining 1-chaqiriq 1 -sessiyasida (1995 yil) suzlagan nutkida: «Biz shunchaki demokratik jamiyat emas, demokratik odil jamiyat

qurmoqchimiz», deb ta’kidladi. Shuningdek, yurtboshimiz mazkur ma’ruzasida demokratik jamiyatning halqaro miqyosda e’tirof etilgan tamoyillari haqida ham to’xtalib, bunday degan edi: «Insonning o’z xoxish irodasini erkin bildirishi hamda uni amalga oshirish, ozchilikning ko’pchilikka bo’ysunishi, barcha fuqarolarning teng huquqliligi, davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustivorligi, davlatning asosiy organlarining saylanishi, ularning saylovchilar oldida hisob berishi, tayinlash yo’li bilan shakllanadigan davlat organlarining saylovchi tashkilotlar oldidagi javobgarligi shular jumlasiga kiradi»¹.


O’z mustaqilligini qulga kiritgan O’zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-madaniy sohalarini demokratlashtirish uchun barcha imkoniyat va vositalarni safarbar etib, katta yutuqlarni qulga kiritmoqda.


16-sxema.




17-sxema.

I-kichik tizim:







II-kichik tizim:




III-kichik tizim:







IV-kichik tizim:



V-kichik tizim:



18-sxema:



Kishilarning bu hokimiyatlarga munosabati

Hokimiyatga
singib ketadi.

Oddiy
fuqarolarning
hokimiyatdan
begonalashuvi

Fuqarolarning
ikkilanishi

Hokimiyatni amalga
oshiruvchilar saylanadi.

Hokimiyat taqiqlanishi xarakteri

Hokimiyat tomonidan
buyruq qilingan
narsalarga ruxsat
beriladi, qolganlari esa
taqiqlanadi

Siyosatga dahli
bo'magan
narsalarga ruxsat
beriladi

Hokimiyatga
qarshi bo'lmagan
holatlarga ruxsat
beriladi.

Qonun
taqiqlamagan
hamma
holatlarga ruxsat
beriladi

Savol va topshiriqlar:

1. Jamiyatning siyosiy sistemasi deganda nimani tushunasiz?
2. Siyosiy tizim tushunchasi, elementlarini qanday tushunasiz?
3. Siyosiy tizimning funksiyalari deganda nimani tushunasiz?
4. Siyosiy tartibot va uning turlarini qanday tushunasiz?
5. O'zbekistonning siyosiy tartibot deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T., 2008. – B. 15-36.
2. O'zbekiston Respublikasining «Jamoat tashkilotlari to'g'risida»gi 1991 yil 15 fevral qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. – T., 1991. - №4; 1992. №9.-363-m.; 1997.-№4-5. 126-m.; 1998.-№3.-38-m.
3. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston tashqi siyosatining asosiy prinsiplari to'g'risi»gi 1996 yil 26 dekabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. –T., 1997. - №2.
4. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonuni // Xalq so'zi. – 2007. – 12 aprel. - №71.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T., 1996. –B. 370-404.
6. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tb.-T., 1998. –B. 31-261.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-2000.-B. 479-488.

8. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T., 2005. – B. 156-173.
9. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oliy qadriyat. T. 14.-T., 2006. – B. 61-97.
10. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezon va maqsadidir. T.15. T., 2007.-B.320.
11. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T., 2008.-B. 368.
12. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
13. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 109-114.
14. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
15. Temur Tuzuklari / Mas'ul muharrir B. Ahmedov. – T., 1991. – B. 3-16.
16. Boboyev I.A. Do'stlik va qardoshlik rishtalari mustahkam // Xalq so'zi. – 2006. – sent.-№174.
17. Ismoilov N. Saylov tizimini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish yo'lida // Xalq so'zi. 2008 y. 6 dekabr №237.
18. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B.40-57, 76-91.
19. Qodirov A.Q. Siyosat falsafasi: Monografiya. – T, 1999-B. 30-43.
20. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999.
21. Politologiya: Ma'ruzalar matni/ Taqrizchilar V.S.Kim, J.Baxronov.-T., 2000. – 15-40.
22. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.64-82, 184-201.
23. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: 2009. B.118-137, 206-219.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

4. MAVZU: SIYOSIY HOKIMIYAT VA UNING RIVOJLANISH MEKANIZMI

1. Jamiyat siyosiy sistemasining tuzulishi va ta'rifi
2. Siyosiy hokimiyat, uning tuzilishi, maqsadi va vazifalari
3. Siyosiy hokimiyatning amal qilinishi
4. Siyosiy hokimiyatning legitimligi va uning mezonlari

TAYANCH IBORALAR:

Hokimiyat, siyosiy hokimiyat, hokimiyat subyekti, obyekti, siyosiy hokimiyat shakllari, davlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy, ommaviy – jamoat tashkilotlari, rahbarlik, boshqarish, tashkilotchilik, nazorat, legitimlik, legallik, harizma, siyosiy elita, elita.

Hokimiyat – jamiyat va siyosatning fundamenti asoslaridan biridir. U kishilarning barqaror uyushmalari bo'lgan barcha joyda butun davlatda – bunda biz oliy, siyosiy hokimiyat bilan to'qnash kelamiz, oilada, ishlab – chiqarish jamoalarida, turli xildagi tashkilotlar va muassasalarda mavjud bo'ladi.

Hokimiyat talqin etishning quyidagi muhim jihatlarini ajratish mumkin.

1. Teleologik (maqsad nuqtai nazaridan) ta'rif hokimiyatni qo'yilgan maqsadlarga erishish, mo'ljallangan natijalarni olish qobiyaliti sifatida tavsiflaydi.

2. Bixevioristik talqin hokimiyatni xulq – atvorning alohida bir butun sifatida olib qaraydi, bunda ayrim kishilar buyruq beradi, boshqalari esa bo'ysunadi. Bixevioristik yondashuv hokimiyatni tushunishni indifeduallshtiradi, hokimiyatning subyektiv sabablariga asosiy e'tiborni qaratish bilan uni real shaxslarning o'zaro ta'siriga bog'lab qo'yyadi. G.Lassuyel hokimiyatning tipik bixevioristik talqinlaridan birini taklif etadi.

3. Psixologik (ruhiy) talqida hokimiyat, uni real individlarning xulq – atvori sifatida bixevioristik tushunishdan kelib chiqqan holda, bu xulq-atvorning subyektiv asoslanishini kishilar ong va ong ostida joylashgan hokimiyat sarchashmalarini ochib berishga urinadi. Bu turdagi eng ko'zga ko'ringan yo'nalishlardan biri – bu psixoanalitik (ruhiy tahlil)dir. U hokimiyatga intilishni asosan seksual harakterdagi mayllarning o'zgargan ko'rinishida (Zigmund Freyd) yoki umuman ruhiy quvvatning (Karl Gustav Yung) namoyon bo'lishi sifatida talqin etiladi.

Siyosiy hokimiyat ijtimoiy siyosiy hayotda faoliyat ko'rsatishiga kura **monarxiya yoki respublika shaklida namoyon bo'ladi**. Monarxiya shaklidagi hokimiyatda yakka shaxs, ya'ni imperator, podshox, shox, monarx qo'lida barcha boshqarish sohalari mujassamlangan bo'ladi. Kuldorlik va feodalizm jamiyatida monarxlar cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan. Kapitalizm davrida monarxiya saqlangan. Hozirgi vaqtda jahonning 44 mamlakatida, shu jumladan, Buyuk Britaniyada, Shvesiya, Ispaniya, Yaponiya, Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarda monarxiya hukm surmoqda. Ammo hozirgi kunda ushbu monarxlar huquqlari konstitusion yo'l bilan cheklangan bo'lib, konstitusion monarxiya deb ham ataladi.

Respublika shaklidagi hokimiyatda esa davlat va oliy idoralarning boshliklari saylanadi. Tarixiy shart-sharoitga qarab u aristokratik va demokratik shaklda bo'lishi mumkin. Aristokratik shaklda bo'lsa, unda bo'ladigan saylovlarda faqat boylar va aslzodalar qatnashadilar, demokratik shaklda esa bo'ladigan saylovlarda keng halq ommasini qatnashadi hamda bu shakl ham o'z navbatida parlamentar respublika yoki prezidentlik respublikasiga bo'linadi. Parlamentar shaklida xukumat boshligi saylanadi va xukumat parlament tomonidan to'zilib, uning oldida javob beradi. Prezidentlik respublikasida prezident maxsus konstitusion tartibda saylanadi. O'zbekiston Respublikasida prezidentlik boshqaruvi amalga oshirilayotganligi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Siyosashunoslikda hokimiyat to'g'risida uchta konsepsiya mavjud:

1) Hokimiyatning organik konsepsiyasi bo'lib, bunga siyosiy hokimiyat barcha guruhlar (sosium) manfaatlarini e'tirof etish qarashlari kiradi. Bu g'oya Maks Veber asarlarida bayon etilgan bo'lib, u Garb sosial-demokratlari tomonidan keng foydalanilmokda 2) Irodaviy (voleyvaya) konsepsiyasi. Bu konsepsiya borlikni obyektiv aks ettirishga yaqin bo'lib, bunda hokimiyat o'z manfaatlarini amalga oshirishda sinflar, guruhlar, individumlarning kobiliyati e'tiborga olinadi. Hokimiyat ijtimoiy subyektlar harakatini o'ziga buysundirish kobiliyatiga ega. Hokimiyat harakat va ijtimoiy tartibning birligini ta'minlovchi tashkiliy kuch

sifatida ham maydonga chiqadi. Hokimiyatning xususiyati sinflar, partiyalar va shunga uxshashlarning irodaviy yo'nalishi va ijtimoiy individumlarning bu irodaga buysunishidan iborat. Buysunish tartibi turlicha bo'lishi mumkin: ishonch, kur-kurona yondoshish. Hokimiyatning avtoritetligi esa hokimiyat boshqaruvchilarining va bo'ysinuvchi subyektlarining bir xil ahamiyat kasb yetmasligidir. Hokimiyatning subordinasiyasi (kichiklarning darajama-daraja kattalarga buysunishi) bu subyektlarning hokimiyatga nisbatan buysunishda bo'lishligidadir. Chunki hokimiyatni boshqarishda qurolli kuchlar, majburlash huquqi va boshqa shunga uxshashlar ham bo'ladi. 3) Hokimiyatning bulinishi va uning taksimotga ta'siri. Ijtimoiy hayot va ijtimoiy munosabatlar tizimi turlicha bo'lganligi kabi hokimiyat manbai ham xilma-xildir. Hokimiyatning asosiy manbai deb, boshqaruv o'z oldiga kuygan maqsadiga erishish yo'lida muayyan obyektga ta'sir utkazadigan vosita tushuniladi. Hokimiyat resurslari deb esa, hokimiyatning potensial asosi, ya'ni hali foydalanilmagan yoki etarli darajada foydalanilmagan, ammo foydalanish mumkin bo'lgan vositalar tushiniladi. Hokimiyat resurslarini turli andozalar bo'yicha klassifikasiya qilish mumkin. Hokimiyat o'z tuzilishiga kura qonun chikarunchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatidan iborat. Qonun chikaruvchi hokimiyat jamiyat hayotining turli-tuman sohalarida bo'layotgan o'zgarishlarni e'tiborga olgan holda qonunlarni ishlab chiqadi. Bu qonunlar Oliy Majlisda tasdiklangandan sung davlat ularni majburiy ravishda bajarishga kirishadi.

Ijro etuvchi hokimiyat davlatning turli-tuman buginlaridan, muassasalaridan tashkil topgan idoralar, tashkilotlar yordamida qonunlarda ifodalangan tadbirlarni ijtimoiy hayotga tatbiq etadilar.

Sud hokimiyati ijtimoiy hayotga tatbiq etilgan qonunlarning bajarilishini nazorat qilib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida (1998 yil) qabul qilingan qarorga muvofiq ommaviy axborot vositalari IV hokimiyat deb e'tirof yetildi. Ommaviy axborot vositalari hokimiyati qabul qilingan qonunlarning ijtimoiy-siyosiy hayotda uz aksini topayotganligi yoki topmayotganligining mohiyati, mazmuni va sabablarini halq ommasi ongiga yetkazishda iborat.

Halq ommasini hokimiyat olib borayotgan siyosatning to'g'ri ekanligiga ishontirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ishontirish va e'tikod resurslari asosan ommaviy axborot vositalarida ko'prok bo'lib, jamiyatning ma'naviy hayotida bo'layotgan taraqqiyot bosqichlarini, ya'ni kutarilish va pasayishlarning mohiyatini omma ongiga singdirishda muhim rol o'ynaydi. Buni ilmiy tilda legitimlik, ya'ni ishonchlilik deb atash mumkin. Hozirgi kunda legitimlik - bu sivilizasiyalashgan hokimiyat belgisi, fuqarolik jamiyati va jahon hamdustligi mamlakatlari tomonidan huquqiy tan olingan mamlakatlardagi hokimiyatlar tushuniladi. Ammo bu hokimiyatni jamiyatda hammaning tan olishi degan ma'noni bildirmaydi, chunki muholif kuchlar, qonun buzuvchilar, anarxistlar, jinoyatchilar har bir jamiyatda mavjud bo'ladi. Hokimiyat legitimligi kriteriyasiga ikki xil qarash mavjud: demokratik yo'l bilan shakllangan hokimiyatgina legitim bo'lishi mumkin. Zurlik ishlatish orqali urnatilgan hokimiyat esa qonuniy deb hisoblanmaydi. Progmatiklar nuqtai-nazariga kura hokimiyatning saylov orqali shakllanishi asosiy bulmasdan, balki eng asosiysi ijtimoiy hayotda ro'y beradigan

murakkab vaziyatlardan chika bilish, jamiyatda barqarorlikni urnata bilish hisoblanadi.

Umaman, hokimiyatning legitimligi samaradorlikka bog'liqdir. Shuning uchun ham har bir xukumat oldida uz faoliyati davomida eng yukori natijalarga erishish muammolari turadi.

Hokimiyatning legitimligining birinchi tarixiy tipi - bu taxtning nasldan-naslga utishidir. Bunday legitimlik **an'anaviy** jamiyat normalariga to'g'ri keladi. Bunda an'anaga tayanib ish kurish, podshox hokimiyatining cheklanganligini belgilaydi.

Qayta kurish bosqichini uz boshidan utkazayotgan, ammo hali demokratik boshqarish tipini uzlashtirib ulgura olmagan jamiyatda hukmronlik qilish **harizmatik** tipi deb ataladi. Bunda lider, ya'ni ayrim shaxs ommadan o'zining ko'p xislatlari bilan ajralib turadi, bunday hokimiyat tipi haqida birinchi bo'lib Maks Veber uz fikrini ilgari surgan. U harizm siymosi Budda, Xristos, Muhammad Paygambarda, shuningdek Aleksandr Makedonskiy, Sezar, Napoleonga uxshash shaxslarda nomoyon bo'lganligi g'oyasini ilgari suradi. Bunday harizmatik shaxslarga V.I.Lenin, Mao Sze-Dun, Gitler, de Goll, Stalin, Tito, Troskiy, Ruzvelt, Cherrchilllarni ko'rsatish mumkin. Ular hukmronlik qilgan davrlarda ular ko'pchilik tomonidan qo'llab kuvvatlangan hamda doxiy sifatida halq tomonidan tan olingan. Shu ma'noda olib karalganda siyosiy lider jamiyat hayotida muhim rol o'ynaydi.

Siyosiy lider o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, undan kuyidagi talablarga javob berishi talab kilinadi. Lider - bu **birinchidan** jamiyatni integrasiyalashtirish, ommani birlashtirish funksiyasini bajarishi lozim. Fukarolarni umummaqsad va qadriyatlar atrofida birlashtiraolmogi, o'zi esa bu borada halqqa, davlatga, Vatanga xizmat qilishning yorkin timsoli bo'lmog'i lozim; **ikkinchidan** optimal siyosiy qarorlar qabul qila bilishi lozim. Har bir lider ham xatodan holi emas, lekin shunga qaramay ijtimoiy vazifalarni hal etishda mumkin qadar to'g'ri yo'llarni topa bilishi zarur; **uchinchidan** ommani qonunsizlikdan, byurokratlarning xatti-harakatlaridan himoya qila bilishi, nazorat, ragbatlantirish va jazolash yo'li bilan ijtimoiy siyosiy hayotda tartibni, qonuniylikni o'rnatishi lozim; **turtinchidan** omma bilan siyosiy va ma'naviy aloqani mustahkamalashi va shu yo'l bilan fuqarolarni rahbariyatdan uzoqlashuvining oldini olishi lozim. Prezidentlar va boshqa siyosiy arboblal, ommaviy axborot vositalari, eng avnalo televideniya orqali halq bilan aloqalarni mustahkamlashi, saylovchilar bilan uchrashuvlar o'tkazish jarayonida ular ehtiyojlarini o'rganishdan keng foydalanishlari lozim; **beshinchidan** halq an'analarini himoya qilishi, vujudga kelayotgan yangilik ko'rtaklarini o'z vaqtida anglashi, jamiyat taraqqiyotini ta'minlash, ijtimoiy qadriyatlarni va milliy mafkurani halq ongiga singdirishi lozim; **oltinchidan** tuzumni legitimlash. Bu funksiya asosan totalitar jamiyat liderlariga xosdir.

Konstitusiya xukm surgan jamiyatda hokimiyat legitimligining uchinchii tipi - liberal demokratik tip bo'lib hisoblanadi. Bunda tartibot fuqarolarning erkin iroda-xoxishlarini izxor etishga asoslangan va halq tomonidan hamma markaziy tashkilotlar saylab qo'yilgan. Davlat faoliyati esa konstitusiya tomonidan cheklab quyilib, hamma siyosiy kuchlar teng huquqli bo'lib qonun doirasida amal qildilar.

Siyosiy hokimiyat legitimligi o'z darajasiga kura uch xil bo'ladi:

mafkuraviy, tuzilishi (strukturniy), shaxsiy (personalisskiy). Legitimlikning mafkuraviy darajasi asosan jamiyatni ijtimoiylashtirishga asoslangan, bu jarayonda ko'pchilik tomonidan qabul qilingan tartib ijtimoiy hayotda o'rnatiladi. Ijtimoiylashtirish deyilganda birinchi navbatda adolat haqidagi tasavvo'rni anglamok lozim. Mafkuraviy darajasi ommani boshqaruvchining bilimiga, saviyasiga, maxoratiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, ichki va tashqi omillarda ham, ya'ni o'z davlatining tashqi sohadagi o'zga xos o'rni, roli, milliy obruning pasayishi yoki kutarilishida ham namoyon bo'ladi.

Tuzilish jihatdan legitimlik bo'lgan hokimiyatda odamlar hokimiyatni mavjud bo'lgan qoidalar asosida ishonch xosil qilib, tan oladilar.

Shaxsiy legitimlikda mavjud hukmronlik qiluvchi shaxs ma'qul deb topilishi, ishonch bildirilishi anglanadi.

Hokimiyat subyekti

Subyekt va obyektning bevosita namoyandalari va xodimlaridir. Subyekt hokimiyatning faol, yo'naltiruvchi asosini mujassamlashtiradi. U alohida odam, tashkilot, kishilar birligi, masalan, xalq yoki hatto BMTga birlashgan jahon hamjamiyatini bo'lishi mumkin. Hokimiyat munosabatlarining vujudga kelishi uchun subyekt bir qator sifatlariga ega bo'lishi zarur.

Siyosiy hokimiyat subyektlari murakkab, ko'p darajali harakterga ega bo'ladi. Uning birlamchi ishtirokchilari individlar va ijtimoiy guruhlar, ikqilamchilari – siyosiy tashkilotlar hukmronlik munosabatlarida turli guruh va tashkilotlarni bevosita namoyon etuvchi eng oliy darajadagi subyektlar – siyosiy guruh va etakchilardir. Bu darajalar o'rtasidagi aloqa bo'zish ham mumkin. Masalan, etakchilar ayrim hollarda ommadan va hatto o'z partiyalaridan ham ajralib qoladilar.

Subyekt hokimiyatning o'zaro ta'sir etish mazsunini farmoyish (buyruq) berish orqali aniqlab, bunda hokimiyat obyektining xulq – atvori belgilab qo'yiladi, buyruqning bajarilgani yoki bajarilmaganligi uchun rag'batlantirish va jazolash va jazolash ko'rsatiladi yoki anglanadi. Buyruqda bayon etilgan talablarning harakteri ko'p darajada ijrochilarning hokimiyatdagi ikkinchi muhim element – obyektga munosabatiga bog'liq bo'ladi.

Hokimiyat doimo, subyekt va obyektning o'zaro ta'sirida hukmdor irodasining ustunligi bilan, ikkiyoqlama, nosimmetrik bo'ladi. U obyektning tobeligisiz bo'lmaydi. Agarda bunday tobelik bo'lmasa, unga intiluvchi subyekt hukmdorlikning yorqin ifodalangan irodasiga va hatto majbur qilishning kuchli vositalariga ega bo'lishiga qaramasdan, hokimiyat ham bo'lmaydi.

obyektning hukmdorlik subyektiga munosabatlari chegarasi qattiq qarshilik ko'rsatishdan, halok qilmoq uchun kurashishgacha (bu holda hokimiyat bo'lmaydi), ko'ngilli ravishda bo'ysunishni quvonch bilan qabul qilishgacha yoyilib boradi. Umuman olganda bo'ysunish ham rahbarlik kabi kishilik jamiyatiga tabiatan xosdir. Bo'ysunishga tayyorlik bir qator omillar: hukmdorlik obyektining shaxsiy sifatlariga, unga quyiladigan talablarning harakteriga, ta'sir etish vaziyati va vositalariga, shuningdek, rahbarning ijrochilar tomonidan sezilishi, unda obro'-e'tiborning borligiga bog'liqdir.

Hokimiyat imkoniyatlari ham, kishilarning turli ehtiyoj va manfaatlarini qondirish vositalari kabi, turli – tumandir.

Imkoniyatlarni bir qancha turkumlarga bo'lish mumkin. A.Yesisning fikricha, ular utilitar (manfaatli), majburiy va me'yoriy turlarga bo'linadi. Utilitar (manfaatli) imkoniyatlar – bu kishilarning kundalik manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan moddiy va boshqa ijtimoiy noz – ne'matlardir. Ularning yordamida hokimiyat, ayniqsa, davlat hokimiyati, faqat ayrim siyosatchilarnigina emas, balki aholining butun bir qatlamlarini sotib olishi mumkin. Bu imkoniyatlar mukofotlash uchun ham va jazolash uchun ham ishlatiladi. (Masalan, insofsiz xodimlarning ish haqini kamaytirish). Majbur qilish imkoniyatlari odatda, manfaatga qaratilgan imkoniyatlar ish bermay qolgan hollarda qo'llaniluvchi, ma'muriy jazolash choralari sifatida ro'y beradi. Bu masalan, iqtisodiy choralardan qo'rqmayotgan ish tashlovchilarning sud orqali ta'qib qilinishidir. Me'yoriy imkoniyatlar odamning ichki dunyosi, qadriyatli mo'ljallari va xulq – atvor me'yorlariga ta'sir etish vositalarini o'z ichiga oladi. Ular bo'ysunuvchilarni rahbarlar va ijrochilar manfaatlarini umumiylikka ishonitirishga, hokimiyat subyektlari faoliyatining ma'qullanishini ta'minlashga uning talablari qabul qilinishiga qaratilgan.

Siyosiy hokimiyatning xususiyatlari.

Siyosiy hokimiyat bir qator farqli belgilari: 1) davlat miqyosida kuchdan foydalanishning ochiqchaligi (legalligi); 2) boshqa barcha hokimiyatlar uchun qarorlarining oliy darajadaliqi, majburiyligi, haq qanday ijtimoiy jarayonlarga Kira olish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Siyosiy hokimiyat qudratli korporasiyalarning, ommaviy axborot vositalarining va boshqa muassasalarning ta'sirini cheklab qo'yishi yoki ularni umuman tugatishi mumkin; 3) ommaviylik, ya'ni umumiylik va shaxssizlik. Bu siyosiy hokimiyat odatda uncha katta bo'lmagan, hamjihat guruhlarda mavjud bo'ladigan shaxsiy, xususiy hokimiyatdan farqli ravishda, huquq yordamida, barcha fuqarolarga butun jamiyat nomidan murojaat qiladi; 4) monosentrizm, qarorlar qabul qiluvchi yagona markaz mavjudligi. Bozori iqtisodiyoti hukmron demokratik jamiyatda siyosiy hokimiyatdan farqli ravishda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy – axborot hokimiyatlari polisentrik, ya'ni ko'pmarkazlidir. Bunda ko'plab mustaqil mulkdorlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy fondlar va shunga o'xshashlar mavjud.; 5) imkoniyatlarning turli – tumanligi. Siyosiy hokimiyat va ayniqsa, davlat, faqat majburlash emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-axborot hokimiyatlaridan ham foydalanadi.

Hokimiyatni tiplarga (turlarga) bo'lish har xildir. Subyektga bog'liq holda hokimiyat avtokratik (mustabid), oligarxik (guruh hokimiyatga) va o'z – o'zini boshqaruvchi (guruh barcha a'zolarining yoki tashkilotning hokimiyati) bo'ladi. Namoyon bo'lish sohalariga ko'ra hokimiyat davlat, partiya, kasaba uyushmasi, armiya, oilaviy va shunga o'xshashlarga bo'linadi. O'z tarqalish kengligiga ko'ra: ega daraja – xalqaro tashkilotlar, masalan, BMT, NATO va b.; makro daraja – davlatning markaziy organlari; mezodaraja – markazga bo'ysunuvchi tashkilotlar (viloyat, tuman va b.) va mikro daraja – boshlang'ich tashkilotlar va kichik guruhlardagi hokimiyatga ajratiladi. Hokimiyatni uning organlari vazifalariga ko'ra ham turkmlashtirish mumkin. Masalan, davlatning qonun chiqaruvchi, sud va

ijro hokimiyatlari; hokimiyat subyekt iva obyektining o'zaro ta'sir usullari bo'yicha – demokratik, avtoritar va shunga o'xshashlar.

Siyosiy hukronlik jamiyatdagi buyruq berish va bo'ysunish tuzilmalarini, bu bir tomondan u bilan bog'liq bo'lgan imtiyozlar, ikkinchi tomondan ijrochilik faoliyatining tashkiliy va qonuniy rasmiylashtirilishini bildiradi.

Ma'muriy-buyrukbozlik tuzumning o'rniga barpo etilgan mustaqil davlatlardan biri bo'lgan O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotda tub o'zgarishlar ro'y bermoqda. O'zbekiston Respublikasi endilikda bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich utib, mamlakatda siyosiy barqarorlikni barpo etishda katta yutuqlarni qulga kiritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Respublika Oliy Majlisining 2-chakiriq 1- sessiyasida (yanvar 2000 yil) so'zlagan «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - provard maqsadimiz» nomli ma'ruzasida qayd qilinganidek «Bizning bosh strategik maqsadimiz qat'iy va o'zgarmas bo'lib, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik davlat barpo etish, fuqarolik jamiyatining mustahkam poydevorini shakllantirishdan iborat».

Savol va topshiriklar:

1. Hokimiyat subyekti deganda nimani tushunasiz?
2. Hokimiyat tushunchasi. Uning tuzilishi va revurslari deganda nimani tushunasiz?
3. Hokimiyati legitimligi va uning shakllari nima?
4. Davlat tuzilishining turli shakllari nima?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., - 2008.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasiga sharh. – T., 2001. –B. 591.
3. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalar to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1997. -№2.
4. O'zbekiston Respublikasining «Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida»gi qonuni // O'zbekiston siyosiy partiyalar. T. 2007. – B. 234-242.
5. O'zbekiston Respublikasining «Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizasiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida»gi Konstitusiyaviy qonuni // Xalq so'zi. – 2007. – 12 aprel. - №71.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. –T., 1996. –B. 370-404.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T., 1996.-B. 227-239.
8. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. Tb.-T., 1998. –B. 31-261.

9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-2000.-B. 479-488.
10. Karimov I.A. Demokratiya va siyosiy partiyalar to'g'risida // Tuzuvchilar: Sh.O. Mamadaliyeva, Sh.R. Qobilov, B.U. Tadjixanov. – T., 2004.
11. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13. – T., 2005. – B. 156-173.
12. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, isloxotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. T.15. T., 2007.-B.320.
13. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T., 2008.-B. 368.
14. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
15. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azadir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 32-36, 103-107.
16. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
17. Ismoilov N. Saylovlar tizimini yanada erkinlashtirish va demokratlashtirish yo'lida // Xalq so'zi. – 2008. 6-dekabr - №237.
18. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. – T., 1998. – B. 5-26.
19. Qodirov A. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimini shakllantirishning konseptual muammolari // Huquq – Pravo-Law. – 2002. - №4.
20. Mamadaliyev Sh. Xalq hokimiyati: nazariya va amaliyot. –T., 2003. – B. 3-90.
21. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B.40-57, 76-91.
22. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999.
23. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B.64-82, 184-201.
24. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: B.137-172.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

5. MAVZU: SIYOSIY ELITA VA SIYOSIY YETAKCHI (LIDER). SIYOSIY BOSHQARISH

1. Siyosiy elita tushunchasi va nazariyasi.
2. Siyosiy yetakchilik (lider) tushunchasi, nazariyasi, tamoyillari va turlari.

3. Siyosiy boshqarish tushunchasi, funksiyalari va tamoyillari.

TAYaNCh IBORALAR:

Hokimiyat, boshqarish, nazorat etish, vorisiylik, demokratizm, rekrutlash, «yetakchilik», «elita», saylash, saylanish, oshkoralik.

Siyosiy elita – ijtimoiy guruhlarining alohida bir turi hisoblanib, aynan politologiya faniga taaluqli bo'lganligi sababli kengroq to'xtalib o'tamiz.

Jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida alohida mavqeyega ega bo'lgan ijtimoiy guruhlardan biri – siyosiy elita guruhidir. Bu guruh o'z tashkilotchilik kobiliyati bilan boshqa guruhlardan alohida ajralib turadi va o'z mavqeyega ega. «**Elita**» - so'zi fransuz tilidan olingan bo'lib, «saylangan», «saralangan», «kimmatli», «noyeb» degan ma'nolarni bildiradi. Bu tushuncha siyosiy tilda boshqarish va rahbarlik qilish sifatlariga ega bo'lgan kishilarning uyushgan guruhini ta'riflashda ko'llaniladi¹. Siyosiy elita guruhi axolining ozchiligini tashkil etib, bularning qulida boshqarishning maksimal darajasi to'plangan bo'ladi va aholi ichidan o'zlarining eng yaxshi sifatleri orqali ajralib turadi. Masalan, aql, idrok, ishchanlik, qobiliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik va hokazo.

Siyosiy elita, ya'ni jamiyat boshqaruvchilar g'oyasi qadim zamonlardan Konfusiy, Aflotun, Siseron, keyinchalik esa Nikolo Makiavellilar bayon etganlar. XIX asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelib siyosiy elita tushunchasi ijtimoiy-siyosiy jixatdan keng o'rganila boshlandi va bu davrda olimlardan V.Pareto, G.Moska, R.Mexels, N.A.Berdyayev, I.Shumpetterlar siyosiy elita guruhlarining jamiyat hayotidagi o'rni va rolini chuqur tahlil qilib berdilar.

Siyosiy elita nazariyasi asoschilaridan biri mutafakkir **Gaetano Moska** (1858–1941 yillar, asli italiyalik) «barcha jamiyatlarda odamlarning ikki sinfi mavjud bo'lib, ular boshqaruvchilardan va boshqariladiganlardan iboratdir», deydi. Boshqaruvchilar ozchilikni tashkil qilsa ham, ular kuch, boylik, uyushqoqlik qadriyatlariga ega, demokratiya esa aslida kengaytirilgan aristokratiyaning o'zginasidir», deydi. Moskaning fikricha, davlatdagi hokimiyat faqatgina ozchilik ko'lida bo'lishi lozim. Elita – hukmron sinf. Siyosiy taraqqiyot bir xukmron elita qo'lidan ikkinchisiga o'tganda yuz beradi. Davlatning butun tarixiy xislati- birin- ketin almashivudir. Xokimiyat hyech qachon ko'pchilikning ko'liga o'tmaydi. G.Moska davlat tarixidagi aristokratik va demokratik ikki yo'nalishni ajratib ko'rsatadi. Birinchi xolda hokimiyat bir guruh elita ko'lida, ikkinchi xolda esa omma orasidan chiqqan elita ko'lida bo'ladi. Saylovlar elitalarni yangilash uslubidir.

Volfredo Pareto (1848–1928) – italiyalik sosiolog va siyosiy iqtisodchi bo'lib, u «Umumiy sosiologiya to'g'risidagi traktat» asarida «elita nazariyasini» ishlab chiqqan. V.Pareto elitani millatning bir guruh tugma rahbari, umumiy manzaradan ajralib chiqqan, muayyan sifatga ega kishilar, deb hisoblaydi. U, har bir davrda o'ziga xos 2 guruh - elita va elitaga qarshi turganlar bo'ladi, ular

¹ Рамазонов И., Мўминов Э. Политология. Т.: «Адолат», 1997, 154-бет.

o'rtasida hokimiyat uchun ommani safarbar qilish yordami bilan kurash olib boriladi. Tarixda doimo elitalar o'zgarib turadi.

Agar elita yangilanib turilmasa, u xolda inqilob davri boshlanadi va bunday xolda xukmron elita orasida bir guruh elita jamiyat bilan korishib ketadi. Ikkinchi guruh elita esa uning yuzasiga chiqadi. V. Pareto «tarix – bu aristokratlar mozoridir» deb yozadi. Pareto fikricha, siyosiy boshqarish qobiliyatiga hamma ham ega bo'lavermaydi. Bu jarayonni faqat layoqatli bo'lgan «zodagonlar» boshqara oladi. Pareto jamiyatni piramidaga qiyos qilib, uning tepa qismida yuksak iste'dod egalari bo'lgan sari odamlar – zodagonlar, ulardan kuyida «boshqaruvchi sinf», yana pastrogida esa qolgan odamlar guruhi o'rin egallashini o'qtiradi, zodagonlar esa doimo siyosiy hokimiyatni boshqarish uchun kurashadilar. Shu tarzda «zodagonlar aylanishi» (o'zaro o'rin almashib turishi) ijtimoiy-siyosiy hayotning obyektiv qonuniga aylanadi, zodagonlar cheklanmagan ustunlikka ega bo'lib, siyosiy boshqarishning barcha talablariga javob berishga o'zlik qildi. Shunday qilib, V.Pareto elita sohasida «aylanma (sirkulyasiya) nazariyasi»ni ishlab chiqadi.

Siyosiy elita guruhlari va ularning jamiyatdagi o'ri va rolini asoslab berishga doir ko'plab nazariyalar, konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Bu nazariyalar quyidagilardan iborat:

1. Muhimiylik va zaruriylik nazariyasi (G.Moska, V.Pareto, R.Mixales, V.Robka, N.Berdyayev va boshqalar). Bu nazariyada siyosiy elita jamiyatning muhim etakchi kuchi sifatida ta'riflanadi va u jamiyatdagi boshqa ijtimoiy guruhlarga qaraganda aholining eng maxsuldor va tashabbuskor qismlari ekanligi nazariy jixatdan asoslab beriladi.

Muhimiylik va zaruriylik nazariyasining ayrim tarafdorlari siyosiy elita guruhlarning jamiyat hayotiga ta'sir ko'rsatish darajasini aniqlab berishga harakat qilganlar. Masalan, N.Berdyayev jamiyatdagi aholining yuqori ma'lumotli qismiga solishtirish asosida siyosiy elitaning jamiyat uchun zarurligini isbotlashga harakat qilgan. V.Robka esa siyosiy elitaning zarurligini jamiyat ehtiyojlari bilan bog'lab asoslashga harakat qildi. Uning fikricha, jamiyat hayotidagi muammolarni xal etish siyosiy elitaga bog'liqdir.

2. Demokratik elita nazariyasida (I.Shumpeter, R.Dall, M.Lipset, L.Zigler, K.Mangeym va boshqalar) siyosiy elita guruhi aholining mamlakatni boshqarishga qodir qismi bo'lib qolmay, shu bilan birga demokratiyani himoya qilishga qodir bo'lgan qismi ekanligi masalasi asoslab beriladi.

3. Liberal nazariyada (R. Mills, M. Milband va bosh.) siyosiy elitaning xilma-xil ko'rinishlari va turlari haqida fikr yuritilib, ularni o'zaro farqlashga harakat qilinadi. Masalan, R. Mills siyosiy elitani jamiyatdagi mavqeiga ko'ra 3 turga bo'lib ko'rsatadi, ular: 1) siyosiy hokimiyatning markaziy idoralarida xizmat qiluvchilar; 2) siyosiy hokimiyatning o'rta pog'onasida xizmat qiluvchilar; 3) siyosiy hokimiyatning kuyi pog'onalarida xizmat qiluvchi boshqaruvchilardir.

Liberal nazariyada iqtisodiy elita bilan siyosiy elita ham farq qildi. Iqtisodiy elitaga zavod va fabrikalar, qishloq xo'jaligi, moliya va bank tizimlarida rahbarlik qiluvchi kishilar kiritiladi. Siyosiy elitaga esa siyosiy hokimiyatlarning turli bo'g'inlarida band bo'lgan kishilar kiritiladi.

4. Partokratik nazariya (E.Goltmanv, Day Keller) ham siyosiy elita nazariyalaridan biri. Bu nazariya bir vaqtlar sobiq sosializm mamlakatlarida keng tarkalgan bo'lib, unda siyosiy rahbarlikning tarixan muqarrarligi isbot qilinadi. Bu nazariyaning asosiy qoida va xulosalari totalitar siyosiy tuzumlar hukmron bo'lgan sobiq sosializm mamlakatlarida kommunistik partiyaning dasturlari va qarorlariga asos qilib olingandi.

Siyosiy elita ijtimoiy guruhining eng asosiy vazifalaridan biri davr talabi darajasida siyosiy etakchilarni tayyorlash bulib hisoblanadi.

Yetakchi – yo'l ko'rsatuvchi ma'nosini anglatadi. Bu xususiyatga ega inson boshqalarga ta'sir eta olishi, muayyan maqsadlarga erishish uchun ularning birgalikdagi faoliyatini tashkil eta olish qobiliyatiga ega.

Siyosiy yetakchilik – siyosiy faoliyat turi bo'lib, u ikki tomonning o'zaro aloqalarini anglatadi: 1) birinchi tomon – etakchilar o'z izdoshlarining manfaat va ehtiyojlarini bilib oladilar va bayon etadilar, boshqa tomon esa, shu manfaatlarni ifodalash va amalga oshirishlari uchun o'z vakolatlarining bir qismini ularga ixtiyoriy ravishda topshiradilar.

Siyosiy yetakchilik hodisasini taxlil etishda Forobiy, Amir Temur, Alisher Navoiy, N.Makiavellining xizmatlari katta. Ularning fikricha, siyosiy etakchi – bu butun jamiyatni jipslashtiruvchi, ijtimoiy tartiblarni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har qanday vositalarni qo'llovchi hukmdordir. Umuman, siyosiy **yetakchilik xaqidagi nazariyalar** quyidagilardan iborat:

1. **Fatalizm** (lot. takdirga oid) **nazariyasi**. Kishilarning «oliy kuchlar»ga, «iloxiy taqdirga», «xudoning peshonaga yozib qo'ygani»ga bog'liq g'oyalar ilgari suriladi.

2. **Xukmdorlik nazariyasi**. Podshox, amir, xon, monarx va xokazo bilan bog'liq.

3. **Volyuntaristik** (lot. erk, iroda) **nazariyasi**. Ushbu tushuncha 1883 yilda F.Tennis tomonidan kiritilgan va kuyidagi ma'nolarga ega: 1) erkni borliqning oliy qoidasi deb hisoblovchi yo'nalish (A.Shopengayer); 2) tarixiy jarayonning qonuniyatlari bilan hisoblashmaydigan faoliyat. Aslida bu nazariyani G.Karneyli (1795–1881) va R.U.Yemersonlar (1803–1882) ishlab chiqqanlar. Ularning fikriga ko'ra, tarix qaxramon, diniy shaxs ijodining maxsulidir.

4. **Paradig** (yunon. namuna) **nazariyasi**. F.Nisshe ishlab chiqqan. U oliy biologik tip – etakchi yo'lboshchi, yo'lboshchi inson, qayri tabiiy favqulodda inson to'g'risidagi qoyani asoslashga harakat qildi. Inson oddiy odamlar hamda o'ziga o'xshash favquloddagi yo'lboshchi insonlar bilan mehribon, muloyim bo'lishi mumkin. U kuchli, irodali, komil va go'zal insondir.

5. **Ijtimoiylashuv nazariyasi** (taklid qilish). Bu zamonaviy nazariya bo'lib, uni G.Tard (1843–1904) ishlab chiqqan. Xayotning asosiy qonuniyatlaridan biri – etakchi, yo'lboshchilarga izdoshlarning taqlid qilishidir, degan g'oyani asoslashga harakat qildi.

1. **Yetakchi** – bu boshqa kishilarga ta'sir etish demakdir. Yetakchi va uning izdoshlari o'rtasida o'zaro munosabatlar mavjud bo'lib, u etakchidan guruh a'zolariga qarab har doim bir tomonlama yo'naltirilgan bo'ladi.

2. **Yetakchilik** – bu boshqaruvchanlik maqomi, qarorlar qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy pozisiyadir.

3. **Siyosiy yetakchilik** – bu siyosat bozorida amalga oshiriladigan maxsus tadbirkorlik shaklidir. Bunday rakobatchilik kurshovida tomonlar ijtimoiy vazifalarni yechish bo'yicha dasturlar almashishadi.

Siyosiy etakchiga kuchli iroda, yokimlilik, qat'iylik kobiliyati, intuisiya zarur. Yetakchilik va yo'l boshchilikning tabiatini tushuntirib berishda quyidagi xilma-xil nazariyalar mavjuddir:

Zamonaviy politologiyada yetakchilikka doir **bir kancha yondashuvlar mavjud**:

1. **Harakter nazariyasi**. Unda yetakchilik hodisasi shaxsning yuksak xususiyatlari asosida tushuntirib beriladi. Bu xususiyatlar: o'tkir zakovat, faxm-farosat, temir iroda, qaynok energiya, yuksak tashkilotchilik qobiliyatlari, kishilarga yoqa olishlik xususiyati, ayniqsa bilimdonlik va mas'uliyatlilikni o'ziga olishga tayyorlik xususiyati. Hozirda demokratik davlatlarda siyosiy etakchilarga xushsur'atlilik, notiklik xususiyatlari ham asosiy talab sifatida ko'yilmokda.

2. **Omili-taxliliy ta'limot nazariyasi**. Bu nazariya tarafdorlari fikriga ko'ra, etakchilarning sof individual xususiyatlarini va muayyan siyosiy maqsadlarini amalga oshirish yo'lidagi xulq-atvor belgilari muhim rol o'ynaydi.

3. **Vaziyatlar ta'limoti**. Politologlar V.Dall, A.Gardner fikricha, etakchi – muayyan vaziyat maxsulidir. Tarixda tasodifiy etakchilar bo'lmaydi, har bir etakchi o'z davrining, tarixiy vaziyatning maxsulidir. A.Makedonskiy, Oliver Kromvel, Chingizxon, A.Temur, J.Manguberdilar ham o'z davrining etakchilari edi. Ammo ular bir-birlaridan farq qildi.

Sho'ro davrining inkirozi B.Yel'sin, V.Putin, I.A.Karimov, N.Nazarboyev, A.Akayev kabi etakchilarni ilgari surdi. Ular eski totalitar tuzumga barham berish va demokratik jamiyatni barpo etish sari xalqni etakladilar. Siyosiy etakchiga qo'yiladigan talab inkirozli va barqaror xolatlarga ham bog'liq bo'ladi. Vaziyatlar nazariyasi siyosiy etakchining individual xususiyatlarini rad etmaydi, lekin ularni mutloqlashtirish ham noo'rinligini bayon etadi.

4. **Tarafdorlar tushunchasi** ta'limoti. Ko'proq saylovchilar bilan munosabatda bo'luvchilardir.

5. **Siyosiy faollarning** roli ham katta. Uning shaxsiy sifatleri va imkoniyatlarini etarli baholay oladilar.

6. **Psixologik ta'limot**. Unda sensual harakteridagi mayl bulib, subyektiv – kompensatorlik vazifasini bajaradi. Turli kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikka yordam beradi. Bu psixoanalitik nazariya bo'lib, avtoritarizmga moyil bo'lgan va hokimiyatga intiluvchi shaxs tipidir.

Siyosiy yetakchilik turlari 4 asosiy xususiyatlarni hisobga oladi: etakchining harakter xususiyatlari, u bajarishi lozim bo'lgan vazifalar, uning izdoshlari va ularning o'zaro harakati tizimi, etakchi va o'zaro munosabat mexanizmi. Lekin yetakchilikning universal ta'limotini yaratish mumkin emas.

Politologlar hozirgi zamonda siyosiy etakchilarni u yoki bu mezonlarga ko'ra **avtoritar va demokratik etakchilarga** ajratadilar.

Avtoritar yetakchilik – tanxo yo'naltirilgan, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lib, kuch ishlatishni nazarda tutadi.

Demokratik yetakchilik – rahbar tomonidan guruh yoki tashkilot a'zolarining fikrlari, manfaatlarini hisobga olib, ularning boshqarishda ishtirok etishini ifodalaydi.

Amerikalik politolog Robert Taker esa siyosiy yetakchilikning yana boshqa 3 turini ajratib ko'rsatgan:

1. **Konservatorlar.** Jamiyatni shu xolatda saqlab qolishga qaratilgan faoliyat olib borishadi.

2. **Reformatorlar.** Hokimiyat tarkibini keng qamrovli islohotlar vositasida tubdan o'zgartirishga intiladilar.

3. **Inkilobchilar.** Odatda kurol kuchi bilan boshqa ijtimoiy tuzumga tez, sakrash orqali o'tishni rejalashtiradilar.

Zamonaviy politologiyada etakchilarning 4 ta yig'ma obrazi ko'llaniladi: 1) bayrokdor yoki buyuk inson; 2) xizmatchi; 3) savdogar va 4) o't o'chiruvchi.

1) **Yetakchi bayrokdor**- voqyelikni shaxsiy idrok etish, ommani jalb etishga qodir bo'lgan g'oyalar, ideallar bilan ajralib turadi.

2) **Xizmatchi-etakchi** ham o'z tarafdorlari va saylovchilarning manfaatlarini ifoda etishga intiladi, ular nomidan ish ko'radi va o'z qobiliyatlarini to'la sarflashga harakat qildi..

3) **Savdogar-etakchi** – o'zining g'oya va rejalarini chiroyli qilib ko'rsatadi, afzalligiga ishontiradi, sotib olishga jalb etadi.

4) **O't o'chiruvchi etakchi** eng dolzarb ijtimoiy muammolar, davrning muhim talablarini mo'ljalga oladi.

Real hayotda bu 4 obrazdagi etakchilar alohida xolda uchramasdan, siyosiy arboblarda aralashgan xolda uchraydi.

Yetakchining funksiyalari – uning faoliyatining bosh yo'nalishidir. Siyosiy yetakchilikning asosan quyidagi 6 funksiyasi mavjud:

1. Jamiyatni jipslashtirish va birlashtirish.

2. Eng maqbul siyosiy qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish.

3. Ijtimoiy xakamlik va patronajlik, ko'rikchilik, ommani qonunsizlikdan, amaldorlarning o'zboshimchaligidan himoya qilish, tartibot va qonunchilikni nazorat, rag'batlantirish va jazolash choralari bilan saqlab turish.

4. Xokimiyat va ommaning muloqoti, siyosiy va xissiy aloqa kanallarini mustahkamlash va shu bilan fuqarolarning siyosiy rahbarlikdan begonalashuvining oldini olish.

5. Yangilanish tashabbuskori bo'lgan optimizm va ijtimoiy energiyani to'plash, omma siyosiy maqsadlarini amalga oshirishga safarbar qilish.

6. Tizimli legitimlashtirish. Bu asosan totalitar etakchilarga xos.

Jamiyatda siyosiy liderlarning o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Demokratik lider.

2. Liberal lider.

3. Totalitar lider.

Prezident Islom Karimov xalq deputatlari Kashqadaryo viloyat Kengashining navbatdan tashqari sessiyasida (1998 yil 3 iyun) so'zlagan nutqida

«Islohotlarning mohiyatini, avvalo rahbarning o'zi yaxshi tushunishi zarur. U mas'ul bo'lgan hududning muammolari, ehtiyojlarini chuqur anglab, katta va kichikning ishonchini qozonib, ularni rozi qilib, o'zining amaliy ishlari bilan el-yurt xizmatiga munosib bo'lib ishlagan taqdirdagina xalqni o'z izidan ergashtirishi mumkin», degan edi. O'zbekiston sharoitida islohotlarning samarali kechishida rahbarning shaxs sifatidagi fazilatlari muvaffaqiyatning 73% ni ta'minlasa, qolgan 27% esa, kasbiy jihatlari bilan belgilanishi qayd etiladi.

Bu borada, rahbar fazilati xaqida Forobiy, Amir Temur va bugungi kunda akademik Ibrohim Mo'minov shunday fikr bildirgan edilar: Rahbar 3 masalada qat'iy bo'lishi kerak. Shunga amal qilgan boshliqning rahbarlik faoliyati boqiy bo'ladi. Bu ishda:

1) xalollik; 2) rostgo'ylik; 3) izchil fidoiylikdir.

1. **Shaxsiy xislatlar** (Rahbarning shaxsiy xususiyatlari):

1) ijtimoiy manfaatlarni o'z shaxsiy manfaatlaridan yuqori qo'yishi.

2) Adolatparvarlik.

3) O'z qo'l ostidagilarga hurmat bilan qarash, insonparvar va g'amxo'r bo'lish.

4) Kamtarlik va ochik chexrali bo'lish.

5) Mexnat jamoasida kulay ruxiy munosabatlarni vujudga keltirish.

6) Odamlar bilan osonlikcha til topisha olish.

7) Mustaqil fikr egasi bo'lish.

8) Umumiy madaniyat saviyasining yuksakligi, voizlik madaniyati bilan ichki va tashqi madaniyatning uyg'un bo'lishi.

9) Bosiq bo'lish.

10) O'ziga ishonch.

11) O'z-o'ziga talabchan bo'lish.

12) Bilimdonlik.

13) Tashkilotchilik.

14) Raxbarlikka xos xotiraning bo'lishi. Xodimlarni imkon qadar ism-sharifi bilan so'rash.

15) Ishga har doim yaxshi kayfiyatda kelib-ketish¹.

2. **Amaliy xislati** (Rahbarning ishdagi amaliy xususiyatlari):

1) Fikrining tiniqligi, o'zining ovozi, nutqi, hissiyotini boshqara olishi, tetiklik.

2) Yangilikni qabul qila bilish, yangicha zamonaviy texnologiya va mexanizmlarni o'rganib olish, uni amaliyotga tatbiq etish.

3) Tashkilotchilik qobiliyati.

4) O'z so'zi ustidan chiqa bilish.

5) Tashabbuskorlik.

6) Ishbilarmonlik.

7) Tadbirkorlik.

8) Obyektivlik.

¹ Abdulkarimov X. Rahrlik sanoati. «qnun hmoyasida». 2000, № 9, 8–10-betlar

- 9) Kasb odobi va madaniyatiga amal qilish.
- 10) Kasbiy o'z-o'zini tarbiyalab borish va xokazo.

3. Professional xislati:

- 1) O'z kasbiga kizikish.
- 2) Ishlab chiqarishni bilish.
- 3) Kadrlarga e'tibor berish.
- 4) O'z malakasini oshirishga intilish.
- 5) Ishbilarmonlik.
- 6) Tadbirkorlik.
- 7) Kasbiy izlanuvchanlik, kasbiy ko'zatuvchanlik.
- 8) Kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalab borish.
- 9) Uzluksiz kasb maxoratini oshirib borish.
- 10) Jamoada uyushkoklik va hamjixatlikni ta'min etish.
- 11) Ongli intizom va o'zaro hurmatni yo'lga ko'yish.
- 12) So'z erkinligini qaror toptirish.
- 13) Tejamkorlik va vaqtdan unumli foydalanishga erishish.
- 14) O'z kadr-kimmatini saqlab borish.
- 15) Har doim kasb odobi, madaniyatiga amal qilgan xolda ijodkorlik va tashabbuskorlikni rivojlantirib borish.

Shaxs va rahbar mas'uliyati quyidagilardan iborat:

1. Shaxsiy madaniyat – bu eng avvalo insonning o'ziga nisbatan bo'lgan talabchanligidir.
2. Oila oldidagi mas'uliyat – madaniyat va mas'uliyat asoslari, eng avvalo oilada shakllanadi.
3. Jamoa oldidagi mas'uliyat. Jamoadagi rahbar xodim mas'uliyati:
 - 1) Mutaxassislikni to'g'ri tanlash.
 - 2) Ularning vazifasini bajarish uchun sharoit yaratib berish.
 - 3) Ish jarayonini muntazam nazorat qilib turish.
 - 4) Ish natijalariga odil, xolisona baho berish, jamoa a'zolarini ma'naviy va moddiy rag'batlantirish, takdirlash va jazolash kabi.
4. Vatan va millat oldidagi mas'uliyat.
5. Insoniyat oldidagi mas'uliyat («Muloqot». 2001, № 3, 5-bet).

Xukumatimiz tomonidan mamlakatning XXI asr yosh rahbarlarini tayyorlashga qaratilgan qator dasturlar ishlab chiqilgan. Jumladan, «Umid» jamg'armasi dasturi – Prezidentning iqtidorli yoshlarni ko'llab-quvvatlash dasturidan eng mashxuri hisoblanadi. Shuningdek, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» (1997), «Sog'lom avlod davlat dasturi» (2001) kabi dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular bugungi kunda amaliyotda o'z ifodasini topmoqda.

Siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlik o'zaro boqlik bo'lgan siyosiy hodisalardir. Siyosiy rahbarliksiz siyosiy boshqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi

Boshqarish har qanday jamiyatga xos bo'lgan ichki xususiyatdir. Uning tuzilishi va mexanizmlari nixoyatda murakkab bo'lib, jamiyat hayotida amal qilishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Boshqarish jamiyat hayotining hamma sohalariga daxl qildi va uning ta'sirida muhim o'zgarishlar ro'y beradi. Boshqarishga xos bo'lgan obyektiv xususiyat jamiyat rivojlanish qonuniyatlari

talablariga muvofiq amal qildi. Boshqarish qanday shakllarda olib borilishi va amal qilishidan qat'iy nazar, u siyosiy mohiyatga ega bo'ladi. Boshqarishning siyosiy mohiyati boshqarish va rahbarlikni siyosat subyektlari tomonidan oshirilishi bilan belgilanadi. Siyosatning har bir subyekti boshqarishda ma'lum darajada ishtirok etadi.

Boshqarishning siyosiy mohiyati jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Agar jamiyat hayotida ro'y beradigan voqyea-hodisalar, o'zgarishlarga ta'sir qilmasa va ular harakatidan maqsadga muvofiq ravishda foydalanilmasa, jamiyat rivojlanishi izdan chiqadi. Insoniyatning butun tarixi kishilarning tabiat va jamiyatning stixiyali harakatiga qarshi kurashdan iborat bo'lib kelgan. Ibtidoiy munosabatlardan mulkchilik munosabatlariga o'tilishi va dastlabki kuldorlik davlatining paydo bo'lishi boshqarishning siyosiy mohiyat kasb etishi uchun asos bo'lgan. Davlat siyosatning subyekti sifatida jamiyat hayotini boshqarishni o'z zimmasiga olgan va davlat bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar siyosiy mazmunga ega bo'lgan.

Siyosiy boshqarish – bu ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlay bilish va duch kelingan muammolarni xal etish hamda jamiyatning afzalliklaridan, uning real imkoniyatlaridan foydalana bilishdir¹.

Siyosiy boshqarish mazmuni 2 ta muhim xususiyatni: 1) boshqarish mexanizmlarining tashkil kilinishi va 2) boshqarishning jamiyat hayotidagi siyosiy sohalarida namoyon bo'lishini aks ettiradi.

Siyosiy boshqarishning funksiyalari boshqarish ishlarini to'g'ri tashkil qilish va jamiyat siyosiy hayotidagi murakkab muammolarni xal qilishni ko'zda tutadi. Siyosiy boshqarishning eng muhim va **asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat**:

1. Qonunlar, qarorlar, dasturlar, nizomlarni ishlab chiqish.
 2. Ishni tashkil etish. Davlat olib borayotgan siyosat ishni tashkil etish funksiyasida o'zining amaliy ifodasini topadi.
 3. Ishni tartibga solish funksiyasi. Boshqaruv faoliyatida tashkil kilinadigan ishlarni izchillik asosida amalga oshirishni bildiradi.
 4. Nazorat qilish funksiyasi. O'z vaqtida hisob-kitob qilib borishni anglatadi.
- Umuman, siyosiy boshqarishning ana shu funksiyalari o'zaro bog'liq va chuqur aloqada bo'ladi.

Siyosiy boshqarishning samarali olib borilishi va uning muvaffaqiyati ko'p jixatdan bu sohada mavjud bo'lgan tamoyillarga og'ishmay amal qilishga va uning natijalariga bog'liqdir. Bunday tamoyillar turlicha bo'lib, ularning har biri siyosiy boshqarishning tashkil etilishi, uni amalga oshirishning zarurligi va mukarrarligi bilan talablarga qat'iy rioya qilish zarurligini ifoda qildi. Siyosiy boshqarishda amal qiladigan tamoyillarga asoslanish natijasida boshqaruv ishining to'g'ri tashkil etilishiga muvaffaq bo'linadi. Siyosiy boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Obyektivlik va subyektivlik tamoyili.** Siyosiy boshqarishning bu tamoyili qaysi mamlakatda va qanday sharoitda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, u

¹ Рамазонов И., Мўминов Э. Политология. Т.: «Адолат», 1997, 162–173-бетлар.

jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun obyektiv ehtiyoj bo'lib hisoblanadi. Siyosiy boshqarishda obyektivlik tamoyilining mohiyati jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari kuchini hisobga olishni bildiradi. Siyosatning har bir subyekti boshqarish ishlarini amalga oshirishda jamiyat hayotida amal qiladigan obyektiv qonuniyatlarni va ularning harakat yo'nalishlarini bilib olishi talab etiladi.

Siyosiy boshqarishda subyektivlikning mohiyati siyosat subyektlarining faoliyati bilan belgilanadi. Subyektivlik siyosiy boshqarishga subyektiv yondashishni bildiradi. Siyosiy boshqarishda siyosat subyektlari turlicha qatnashadi. Masalan, davlat boshqaruvida siyosat subyektlari davlat apparati xodimlarining ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirok etishini anglasa, siyosiy partiyalarning boshqarishi esa, boshqarishda har bir partiyaning partiya hayotiga doir ishlarni boshqarishdagi ishtirokini anglatadi. Siyosiy boshqarishda obyektivlik va subyektivlikning mohiyati subyektivizmga batamom teskaridir.

Subyektivizm – siyosiy boshqarish jarayonida obyektiv qonuniyatlar kuchini mensimaslik yoki ularga e'tibor bermaslikdan iborat. Subyektivizm boshqarishni izdan chiqarishga, jamiyat hayotida stixiyalilikning avj olishiga sabab bo'ladi.

2. Asosiy zveno tamoyili. Jamiyat hayotida ro'y beradigan muammolarning barchasini bir vaqtning o'zida bajarish mumkin emas. Bu muammolarni xal etish uchun zarur bo'lgan vazifalarni aniq belgilab olish lozim. Siyosiy boshqarishda belgilangan vazifalarning ketma-ketligini, birinchi va ikkinchi navbatda bajarilishi zarurligini e'tiborga olish lozim.

Asosiy zveno tamoyili, bir tomondan, siyosiy boshqarish va uni tashkil etishga doir vazifalarni, ikkinchi tomondan esa, jamiyat hayotining turli sohalarida amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni xal etishni talab qildi. Asosiy zveno tamoyili dolzarb vazifalar orasidan asosiylarini birinchi navbatda xal qilishga butun e'tiborini karatishni, kuch va imkoniyatlarini ishga solishni taqozo etadi. Ba'zan shunday dolzarb muammolarni tezda bajarishga to'g'ri keladiki, uni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Ana shu muammolarni xal qilish siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlikning qanday tashkil etilishiga ko'p jixatdan bog'liq bo'ladi.

Asosiy zveno tamoyilining muhim talablaridan biri – bu xal kilinishi zarur bo'lgan vazifalarning umumiy zanjiridagi har bir bandni maxkam ushlab turishni, bu bandlarning har biri o'zaro kanchalik bog'liq ekanligini bilib olishni va qaysi paytda qanday bandning muhim ekanligini o'z vaqtida aniqlash zarurligini taqozo etadi. Asosiy zveno tamoyilining talablari Prezident Islom Karimovning «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» kabi asarlarida, nutq va maqolalarida o'z ifodasini topgan.

3. Hududiy tarmoq tamoyili. Boshqarishning barcha turlari kabi siyosiy boshqarish ham hududiy-tarmoq tamoyili talablariga qat'iy amal qilishni talab etadi. Siyosiy boshqarishda bu tamoyilning mohiyati jamiyat hayotiga siyosiy rahbarlikni amalga oshirishda hududlar va tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Buning ma'nosi shundaki, boshqarishda har bir hududning o'ziga xos sharoitlari, ularda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan kelib chiqqan xolda ijtimoiy hayot sohalarining turli tarmoqlarida ishni tashkil qilish va uning samarali bo'lishiga erishishni bildiradi.

Siyosiy boshqarish va rahbarlik boshqarish ishlarini hududlar va tarmoqlar bo'yicha tashkil etish hamda amalga oshirishni anglatadi. Hududiy-tarmoq tamoyilining mohiyati boshqarishda bu ikki tomonning hyech biriga ustunlik berilmasligini ifodalaydi. Xolbuki, boshqarishning bu ikki tomoni o'zaro bog'liq xolda tashkil kilinishi va amalga oshirilishi lozim. Siyosiy boshqarishning hududiy-tarmoq asosida tashkil etilishi xozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlari uchun umumiy hodisadir. Birok uni amalga oshirishnig usullari, vositalari har bir mamlakatning shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Mamlakatimizda bu tamoyil hududiy boshqarishda prezidentlik, hokimliklar hamda xalq deputatlari kengashlari orqali amalga oshirilsa, tarmoqlar bo'yicha boshqarish esa **vazirliklar va ularning joylardagi bo'limlari orqali amalga oshiriladi**. O'zbekiston Konstitusiyasida siyosiy boshqarish mexanizmlari va ularning vakolatlari qonunlar asosida belgilab berilgan.

4. Mas'uliyatni xis qilish tamoyili. Siyosiy boshqarishda bu tamoyilning mohiyati rahbar kadrlar va keng jamoatchilik oldiga ko'yilgan vazifaga o'ta mas'uliyat bilan yondoshish zarurligini ifodalaydi. Bu zaruriyat, avvalo, jamiyat rivojlanishining ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyat o'z-o'zicha rivojlanmagani singari, unda boshqarish ishlarining tashkil etilishi va olib borilishi ham unga mas'uliyat bilan yondoshishni taqozo etadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishning ahamiyati xaqida gapirib: «...biz qadrlarning topshirilgan vazifa uchun javobgarligini kattiq nazorat ostiga olishimiz kerak. Toki, har bir rahbar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan isloxotlar uchun mas'ul ekanini teran xis etsin» (Asarlar, –T.3, 13–14-b.).

Mas'uliyat xissi boshqaruv xodimlari oldiga yuksak talablarni ko'yadi: siyosiy rahbar, lider o'zida shaxsiy, amaliy va professional xislatlarni (biz bu xakda oldingi savolda gapirib o'tgan edik) mujassam etmog'i darkor. Umuman, mas'uliyatni xis etish rahbar kadrlarning jamiyat oldidagi javobgarligini chuqur anglashni aks ettiradi. Har bir rahbar xodim jamiyat oldida o'ziga topshirilgan ish uchun shaxsan javobgardir...

5. Vorisiylik tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati siyosiy boshqarish jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarda uzviylik bo'lishni taqozo etadi. Siyosiy boshqarishdagi uzviylik, bir tomondan boshqaruv organlari va tashkilotlari tizimida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, siyosiy boshqarishga mas'ul bo'lgan rahbar kadrlar faoliyatida aks etadi.


Vorislik tamoyili siyosiy hokimiyatlarning o'zgarishi, boshqarish tizimidagi kadrlarning almashinishi bilan jamiyatda amalda bo'lib kelgan boshqarish tizimini yoki boshqarish uslublarini batamom o'zgartirib, uni yangidan boshlashni emas, balki boshqarish sohasida ko'llanib kelingan yo'lni davom ettirishni, unga ayrim o'zgarishlar kiritib borishni ifodalaydi. Vorislik tamoyilining bu talabiga amal qilmaslik jamiyatda ko'plab noxushliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu talabga boshqaruvning yuqori bo'ginlarida amal qilmaslik jamiyat uchun juda katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Vorislik tamoyili talablariga amal qilmaslik ko'pincha davlat to'ntarishlari qilinganda yoki siyosiy hokimiyatlarga reaksiya, fashistik kuchlar kelganda ro'y beradi. Bunday kuchlar odatda boshqarish va rahbarlikni amaldagi konstitusiyani

butunlay bekor qilish, mamlakatning avval davom etib kelgan siyosiy yo'lini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, demokratiyani takiklash singari siyosiy ishlardan boshlaydilar. Keyingi yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi, ayniqsa, Yaqin Sharqdagi ayrim mamlakatlarda ro'y bergan davlat to'ntarishlari natijasida boshqarish sohasida ro'y bergan o'zgarishlar bunga misoldir.


Vorislik tamoyilining mohiyati va uning zarurligini Prezident Islom Karimov kuyidagicha ta'riflaydi: «Yangi uy kurmay turib, eskisini buzma, deyishadi bizda. Har qanday xolda ham biz o'zimizni boqib, to'ydirib kelgan narsalarni vayron qilishga berilib ketishga xakkimiz yo'k»¹.

35-sxema.





¹ Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 –T.: «O'zbekiston», 1996, 141-b

36-sxema.




37-sxema.







38-sxema.



39-sxema.





Savol va topshiriqlar:

1. Siyosiy elita nazariyasining mohiyati nima?
2. Elitalar tipologiyasi va rekrutlash tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. Siyosiy yetakchilik tabiati deganda nimani tushunasiz?
4. Yetakchilikning klassifikatsiyasi, vazifalari va ularning rivojlanish tendensiyalari nima?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., - 2008.
2. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T.11. – T., 2003.-B. 44-89.
3. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13-T., 2005.-B. 174-222.
4. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T. 16. – T., 2008. – B. 368.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
6. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 137-141.
7. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
8. Normatov I. O'zbekiston va tashqi dunyo: siyosatda ham sarhisob bor // O'zbekiston ovozi. – 2005. – 31 dek. - № 156-157.
9. Otamurodov S. Globallashuv va millat (falsafiy-siyosiy tahlil). – T., 2008. – B. 202.
10. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B. 236-268.
11. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999. – B. 3-15.
12. Irxin Yu.V., Zotov V.D., Zotova L.V. Politologiya: Uchebnik. – M., 2000. S. 436-452.
13. Politologiya: Ma'ruzalar matni/ Taqrizchilar V.S.Kim, J.Baxronov.-T., 2000. – 163-213.
14. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: 2009. B.172-194.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

6-MAVZU: SIYO SIY MADANIYA T VA UNING TARKIBIY QISMLARI. SIYO SIY MAFKURA VA SIYO SAT.

REJA:

1. «Siyosiy madaniyat» tushunchasi, uning mohiyati va mazmuni.
2. Siyosiy madaniyat shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Siyosiy mafkura va uning hozirgi zamondagi shakllari.

TAYaNCh IBORALAR:

Siyosat, madaniyat, jamiyat a'zolari, onglash, siyosat subyektlari, siyosiy ong, siyosiy kobiliyat, siyosiy bilim, siyosiy madaniyat, obyektivlik, subgektivlik, jamiyat ma'naviy hayoti, xilma-xillik, siyosiy ta'lim-tarbiya, siyosiy faollikni oshirish, madaniy siyosat, ma'naviy hayot, ta'lim tizimini isloh qilish, milliy tafakkur va milliy an'analar.

Jamiyat taraqqiyoti natijasida erishilgan umumiy ma'naviy madaniyat darajasining siyosiy munosabatlarda bevosita namoyon bo'ladigan katta bir qismi siyosiy madaniyat deb ataladi. Buning ma'nosi shundan iboratki, jamiyat a'zolari o'z amaliy-o'zgartiruvchilik faoliyati jarayonida asta-sekinlik bilan siyosiy ongi, siyosiy qobiliyati, siyosiy bilimi shakllanib bir butun ko'nikmalar, qarashlar sistemasi tarkib topadi. Shuning evazida insonning siyosiy ongi shakllanib ijtimoiy-siyosiy hayotdan o'z o'rnini topadi. **Siyosiy madaniyat esa ana shu siyosiy ongning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi.** Chunki, siyosiy ong keng qamrovli tushuncha bo'lib, u bir necha tarkibiy qismlardan iborat. Siyosiy ruhiya, siyosiy madaniyat, siyosiy tarbiya va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Siyosiy madaniyat tushunchasi keng va tor ma'noda ishlatish mumkin. Keng ma'noda siyosiy madaniyat fuqarolarning siyosiy bilimlari, mo'ljal-baholari, hatti harakatlarining darajasi, siyosiy munosabatlarni boshqarib turish, ijtimoiy qadriyatlar mazmuni va sifati, an'analari va qonun-qoidalarini anglatadi. Tor ma'noda esa, siyosiy madaniyat siyosiy munosabatlar mazmuni va sifati darajasini belgilab beradigan o'zaro muloqot tarzini bildiradi.

Siyosiy madaniyat tizimini siyosiy ong, siyosiy mafkura, siyosiy ruhiya, siyosiy xulq-atvor tashkil etadi.

Siyosiy ong kishilarning jamiyat hayotida bo'layotgan voqyea hodisalarni anglab etish kobiliyati bilan bog'liq. Uning o'ziga xos xususiyati shundaki, insonning siyosiy ruhiyasi yo'nalishi, siyosiy xulq atvori, siyosiy mafkurasi shakllanib, bir qolipga tushgandan keyingina ularning xatti-harakatida o'z aksini topadi.

Inson siyosiy ongining kelib chiqishi obyektiv vokelikka bo'lgan munosabatida muayyan bir maqsadni o'z oldiga qo'yib, unga erishish yo'lida amalga oshiradigan siyosiy faoliyatida o'z aksini topishdadir. Siyosiy ong inson uchun ijtimoiy hayotda yuz berayotgan vokeliklarni to'g'ri anglash, in'ikos etish, mushoxada qilish hamda istikbolni oldindan ko'ra bilish imkoniyatlarini yaratishdan iboratdir.

Siyosiy ong tuzilishi turli ijtimoiy subyektlar (shaxs, guruh, tabaqa, sinf, jamiyat) onglarining obyektiv voqyealikka bo'lgan munosabati majmuasidan tashkil topadi. Alohida olingan shaxs o'zining maqsad-manfaatlari va ma'naviy-

axloqiy qadriyatlari orqali siyosiy voqyelikni anglash ayni vaqtda mazkur shaxsga mansub bo'lgan kichik ijtimoiy guruh siyosiy ongiga muvofiq kelib qoladi. Lekin, bu jarayonda shaxs uzligini yuqotib yubormaydi, balki o'ziga maslakdosh bo'ladigan boshqa shaxs siyosiy ongi mushtarakligini vujudga keltiradi. Shunga qaramay u o'zining dastlabki mazmunini, yo'nalishini, qirralarini to'la saqlab qololmaydi.

Jamiyatda faoliyat ko'rsatib kelayotgan shaxs, ijtimoiy guruh, individning siyosiy ongi bir-biri bilan uzviy dialektik bog'liq holda shakllanadi. Ular siyosiy hayot voqyea va hodisalar orqali namoyon bo'lishi jarayonlari bir-biriga ta'sir o'tkazish, bir-birini boyitish tabiatiga ega.

Siyosiy madaniyatning tarkibiy qismlaridan yana biri siyosiy mafkuradir. Siyosiy mafkura umumiy mafkuraning tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. Mafkuraning o'zi nima? Mafkura bu siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik, falsafiy qarashlar va g'oyalar sistemasidir. Siyosiy mafkura esa hokimiyatning siyosiy munosabatlari mexanizmi to'g'risidagi g'oyalar, qarashlar, tasavvurlarning ilmiy-nazariy majmuasidir. Siyosiy mafkura mavjud siyosiy hokimiyatni saqlab qolish, mustahkamlash, takomillashtirishga yoki hukmronlik qilayotgan ijtimoiy guruhning siyosiy hokimiyatini cheklash, zaiflashtirish, imkoniyat paydo bo'lsa, uni agdarib tashlab, o'z siyosiy hokimiyatini urnatishga karatiladi. Siyosiy hokimiyatning boshqaruvchilari unga da'vogar bo'lgan ijtimoiy kuchlar birinchi navbatda o'z maqsad-intilishlarini g'oyaviy-siyosiy jihatdan, asoslash, isbotlash uchun kurashadilar. Bu esa siyosiy mafkuraning g'oyaviy yo'nalishi bo'lib hisoblanadi. Siyosiy mafkuraning ijtimoiy hayotda amal qilish jarayoni akidalar orqali namoyon bo'ladi. Bunday aqidalarga: firkaviylik, siyosiy mafkuraning siyosiy hayot bilan dialektik bog'liqligi, siyosiy mafkuraning mu'tadil tarzda istiqbolga yo'nalganligi, har bir ijtimoiy sinf, tabaqa, guruh tub manfaatlarini inobatga olish aqidalari kiradi.

Siyosiy mafkura bevosita milliy mafkura bilan bog'liqdir. Chunki milliy mafkura har bir millatniig o'zligini anglash, o'tmish tarixini, milliy an'analarini, axloqiy-ma'naviy qadriyatlarini e'zozlash, madaniy boyliklaridan bahramand bo'lish, milliy ongni zamon talabi asosida shakllantirib borish kabi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan masalalar bilan chambarchas bog'liqdir. Milliy mafkuraning ahamiyati, zaruriyati va uning siyosiy mafkura bilan dialektik bog'liqligi ham ana shundan iborat. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Donishmand halqimizning mustahkam irodasiga ishonaman» («Fidokor» gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblari)da milliy mafkuraning jamiyat siyosiy hayotidagi roli haqida to'xtalib bunday degan edi: «Mafkura - jamiyatda yashaydigan odamlarning hayot mazmunini, ularning intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Har qanday inson tabiiyki, murod-maqsadsiz yashay olmaydi. Binobarin, toki hayot mavjud ekan, mamlakatlar, davlatlar va ularning manfaatlari bor ekan, ular o'z taraqqiyot yo'lini, ertangi kun ufqlarini o'zining milliy g'oyasi, milliy mafkurasi orqali belgilab olishga intiladi».¹ Darhaqiqat,

¹ «Fidokor» gazetasi, 2000 yil 8 iyun.

hozirgi vaqtda mamlakatimizda mustaqil demokratik, fuqarolik jamiyatini barpo etish, uni siyosiy tomondan boshqarib borishda aniq-ravshan ifodalangan milliy mafkuraning bo'lishi suv va havodek zarur. Chunki, u jamiyatimizning ko'zi, aql chorog'idir.

Siyosiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismi siyosiy ruhiya bo'lib hisoblanadi. Siyosiy ruhiyaning (psixiologik) mohiyatini aniqlashdan oldin ruhiya tushunchasiga izoh berish lozim. Ruhiya - inson ruhiy hayoti va xolatining qonuniyatlari, o'zaro aloqadorlik mexanizmi, unda sodir bo'lgan voqyea-hodisalar haqidagi fandir. Ruhiyaning turlari ichida siyosashunoslik nazariyasiga yaqin turadigan - bu ijtimoiy va siyosiy ruhiyadir.

Ijtimoiy ruhiya - odamlarning ijtimoiy guruhlariga mansubliklari bilan bog'liq bo'lgan xulq-atvor va faoliyati qonuniyatlari haqidagi soha bo'lib, mazkur ijtimoiy guruhlarining ruxiy holatlari tavsifini o'z ichiga oladi.

Siyosiy ruhiya esa - jamiyat siyosiy hayotidagi kayfiyatlar, fikr-muloxazalar, xis-tuygular, qadriyatli muljallar kabi inson ruhiyasining tarkibiy qismlaridan iborat bo'ladi. Mazkur tarkibiy qismlar millatlar, elatlar, ijtimoiy sinflar va guruhlar va ayrim shaxslarning siyosiy onglash doirasida, ya'ni ularning siyosiy xatti-harakatlari natijasida vujudga keladi.

Jamiyatda sodir bo'lib turadigan siyosiy jarayonlarning avval shaxs tomonidan yakka tarzda ruxiy anglashi, so'ngra uning kichik va katta ijtimoiy guruhlar tomonidan in'ikos etilishi, mazkur guruhlarining siyosiy ruhiyasi oqimiga aylanishi natijasida bir butun jamiyat ijtimoiy-siyosiy ruhiya yo'nalishi vujudga kelib, real vokelikda - jamiyat siyosiy hayotida o'z ifodasini topadi.

Siyosiy ruhiya bilan siyosiy xulq-atvor mutanosibdir. Har bir shaxs siyosiy ongida shakllanib, qaror topgan siyosiy ruhiya harakat kuchiga aylanar ekan, u bebosh, betartib xulq-atvor sifatida emas, balki jamiyat siyosiy hayotida ko'pchilik tomondan qabul qilingan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, tartib-qoidalarga amal qilishni talab etadi. demak, siyosiy ruhiya o'zining namoyon bo'lishi jarayonida dastavval siyosiy ong doirasida muljal qilishi, keyin siyosiy hayot tartibida joriy etiladigan, anglangan zaruriyat sifatidagi xatti harakat, siyosiy xulq-atvor orqali real voqyelikka aylanib ketadi.

Siyosiy xulq-atvor - ruhiyaning siyosiy hayotidagi amal qilishidir, siyosiy-ruxiy xolatning amaliy tatbiq etilishidir.

Siyosiy ruhiyaning xosilasi sifatida amal qiladigan siyosiy xulq-atvor alohida olingan shaxs, guruh, kichik va katta ijtimoiy guruhlar tomonidan sodir qilinadi. Ularning barchasi siyosiy ruhiyaning, siyosiy xulq-atvorning subyektlari sifatida namoyon bo'ladilar. Shuning uchun ham jamiyat ravnaki, taraqqiyot yo'nalishi, istikboli ko'p jihatlardan ana shu subyektlarning ruxiy holatlari, siyosiy kayfiyatlari, siyosiy xis-to'yg'ularining qanday darajada, qaysi axvolda ekanligi bilan bevosita bog'liqdir.

Siyosiy xulq-atvorning shakllanishida har bir shaxsning siyosiy kayfiyati katta ahamiyatga egadir. Siyosiy kayfiyat - bu siyosiy ruhiya bilan siyosiy xulq-atvor oroligidagi muayyan xolatdir. U jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy voqyea va hodisalarning (masalan, saylovlarga) nisbatan shakllangan ayrim shaxs munosabati mazmunini anglatadi. Mazkur shaxs siyosiy ongida o'z yurtida

muayyan tartibda o'tkazib turiladigan saylovlarga bo'lgan munosabat jarayonida siyosiy kayfiyatini yaratadi. O'tkazib turiladigan saylovlar shaxsan unga mansub bo'lgan ijtimoiy guruhga, millatga, yurtiga real nima keltirishi yoki qanday siyosiy oqibat-natijalariga olib kelishi maqsad qilib kuyiladi. Saylovda boshqalarni qatnashishga da'vat etish maqsadga muvofiqmi yoki katnashmay boshqalarni ham shunga chaqirishi yaxshimi? degan siyosiy kayfiyat unda hukm suradi.

Inson xulq-atvoriga siyosiy, diniy, falsafiy, axloqiy, ma'naviy e'tikodi katta ta'sir o'tkazib, uning siyosiy xatti-harakati mazmuni va yo'nalishini belgilab beradi. Lekin har qanday e'tiqod ham bu sohada ijobiy natijalarga olib kelavermaydi.

Siyosiy xulq-atvorning namoyon bo'lishi jarayonida milliy tabiat muhim ahamiyat kasb etadi. Asrlar davomida ijtimoiy ong tarkibidagi «milliy rux» siyosiy ruhiyaga mansub bo'lgan bo'lsa, siyosiy xulq-atvorda esa milliy o'zligini anglash, ya'ni milliy g'urur ta'siri orqali amal qilgan.

Siyosiy xulq-atvorning namoyon bo'lishida milliy ruhiyadagi etnik bir xillikni ko'rish mumkin. Masalan, o'zbek millati qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, ozarbayjon, turk, tatar millatlari bilan etnik bir xillikni tashkil etdilar. Chunki ular etnik kelib chiqishlari, tili, urf-odatlar, madaniyatlari va boshqa bir qancha jihatlari bilan bir-biriga yaqindirlar. Shuning uchun ham ular asrlar davomida milliy o'zligini anglashda bir-biriga suyangalar, bir-biriga hamkorlik, yordam qulini chuzganlar.

Shunday qilib, siyosiy ruhiya, siyosiy xulq-atvor o'rtasida mutanosiblik, o'zaro aloqadorlik mavjudki, bu dialektik birlik va ichki qarama-qarshilik inson ruhiyasi taraqqiyotining mushtarak qonuniyatlari amal qilishidan dalolat beradi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, siyosiy madaniyat - bu siyosiy ongning darajasi, siyosiy mafkuraning mohiyati, siyosiy ruhiyaning mazmuni va siyosiy xulq-atvor shakllanish sabablarining murakkab yig'indisidan iborat.

Siyosiy madaniyat muayyan funksiyalarni bajaradi. Bularga kuyidagilar kiradi: **1) Tarbiyaviy** - bunda kishilarda siyosiy ong shakllantiriladi va rivojlantiriladi, siyosiy hayotda qatnashish natijasida olingan bilimlar, ko'nikmalar qayta tahlil qilinadi, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni to'g'ri tahlil qilabilish kobiliyati singdiriladi.

Inson siyosiy madaniyati, ularning xulq-atvori, mafkurasi ijtimoiy-siyosiy hayotda bo'layotgan voqyea-hodisalarni anglash, tafakkuriga singdirish negizida shakllanib boradi. Har bir individ siyosiy madaniyatining kamol topishida istiqloq milliy mafkurasi, milliy o'zligini anglash, milliy g'urur, iftixor kabi qadriyatlarni ular ongiga chuqur singdirib borishni hayot taqozo etadi. Chunki mustaqillikni qulga kiritgan fuqaro birinchi navbatda o'z halqining, millatining tarixini, tilini, urf-odatini, madaniyatini, an'analarini, yashash tarzini, fe'l-atvorini chuqur bilib olishi shart. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov to'g'ri qayd qilganlaridan, «Faqat shunday mafkuragina hayot va davr sinovlariga bardosh beradi, odamlar unga ishonib, o'zining iymon-e'tiqodi sifatida qabul qildi. Shundagina, u eng zamonaviy quroldan ham kuchli ruhiy-ma'naviy qudrat kasb etadi»¹.

2) Yo'naltiruvchi (regulyativnaya) - fuqarolarning siyosiy jarayonlarga individual va siyosiy fuqarolik uyushmalari orqali bilimdonlik asosida ta'sir o'tkazishni bildiradi. Siyosiy madaniyatning darajasi, ahvoli, davlat tashkilotlarining siyosiy va ijtimoiy sohalaridagi qarorlarning qabul qilinishi yoki qabul qilmaslik kabi siyosiy masalalarning quyilishi va hal etish saviyalariga bog'liq.

3) Himoyaviy - mavjud halqning tanlangan ijtimoiy-siyosiy tuzum an'ana va qadriyatlarni yemirilishidan saqlash va uni himoya qilish. Shu bilan bir qatorda iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarida jamiyatning siyosiy manqurtlikdan, madaniyatsizlikdan himoya qilish funksiyasini ham bajaradi.

4) Kommunikativlik - siyosiy madaniyat yangi avlod ongida siyosiy an'analar, ijtimoiy-siyosiy nazariya va qarashlar orqali shakllantiriladi va tajribada foydalaniladi. Bunda faqat o'z mamlakati tajribasi bilan cheklanmasdan, balki boshqa davlatlar tajribasini ham o'rganishni e'tirof etiladi.

5) Bilish - siyosiy madaniyat kishilarni siyosat sohasida muvaffaqiyatli harakati uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar bilan qurollantiradi, har bir kishida siyosat va siyosiy hayot masalalari bo'yicha shaxsiy fikrlar shakllanishiga zamin tayyorlaydi. Bu borada siyosiy va huquqiy normalari, mamlakat qonunlari, siyosiy tizim tuzilishi va funksiyalari to'g'risidagi bilimlar alohida ahamiyatga moliqdir.

6) Siyosiy ehtiyoj va manfaatlarni qondirish va rivojlantirish funksiyasi. Bu funksiya asosan fuqarolarning mamlakat siyosiy hayotida qatnashish xissiyotini uyg'otish, siyosiy tuzumga nisbatan anglangan munosabatni shakllantirish, shu asosda siyosiy manfaat va ehtiyojlarni rivojlantirishga zamin hozirlashdan iborat. Agar siyosiy madaniyat asosida saylovlar, referendumlar o'tkazishda halqda siyosiy kizikish va ehtiyoj to'g'irilmasa, unda bu tadbirlar samarasiz bir voqyeaga aylanib qoladi. Bu esa, o'z navbatida, siyosiy avantyuristlar uchun ko'zlangan maqsadlarini amalga oshirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Siyosiy madaniyatni shakllantirish uchun quyidagi bilimlar bilan ommani qurollantirish lozim:

- mamlakatdagi siyosiy munosabatlar, jamiyat siyosiy hayotida ro'y berayotgan voqyea va hodisalar haqidagi bilimlar;
- davlat hokimiyati mohiyati, tuzilishi va funksiyalari haqidagi, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, bir so'z bilan aytganda, butun siyosiy tizim haqida, uning olib borayotgan siyosati haqidagi bilimlar;
- jamiyat siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jarayonlarni boshqarish asosini tashkil etgan normalar, tamoyillar, g'oyalar haqidagi bilimlar;
- mamlakat konstitusiyasi, harakatdagi qonunlar, fuqaroning huquqiy maqomi (huquqlari, erkinliklari va majburiyatlari) asosiy siyosiy firqalar programmaları haqidagi bilimlar;
- jamoat, davlat, jamoa va shaxsiy manfaatlarini to'g'ri qo'shib olib borishni tushunish haqidagi bilimlar;
- mamlakatning ichki va tashqi siyosatining o'zaro aloqadorligini tushunish, mamlakat xavfsizligi muammolari haqidagi bilim.

Siyosiy madaniyat - bu nafaqat bilimlar yig'indisi, balki kishilarning konkret faoliyati hamdir. Ammo fuqaroning siyosiy faoliyatini muayyan bir ramkaga solib bo'lmaydi. Chunki bu ko'p qirrali, ijodiy faoliyatdir. Shunga qaramay, siyosiy madaniyatli kishining xulqi va harakatini ayrim yo'nalishlarga qarab baho berish mumkin.

Shulardan:

- oliy va mahalliy davlat organlari ishlarida ishlovchi yoki jamoatchilik asosida katnashuvi;

- siyosiy firqaga va jamoat tashkilotlarga a'zo bo'lish, ular ishida funkcioner sifatida qatnashish;

- referendum, davlat hokimiyati markaziy va mahalliy organlariga saylovlarda qatnashish;

- mamlakat konstitusiyasini, asosiy qonuniy aktlarini muhokama qilish va qabul qilish, turli xil iqtisodiy, siyosiy va boshqa islohot rejalari muhokamasida katnashish;

- davlatning iqtisodiy-ijtimoiy, ma'naviy, harbiy, halqaro, ekologik va boshqa sohalardagi faoliyatini amalga oshirishda qatnashish, davlat hokimiyati organlari, mehnat jamoalari faoliyatida qatnashish;

Shuningdek, siyosiy madaniyatni shakllantirishning yana boshqa ayrim asosiy yo'nalishlarini ham ko'rsatish mumkin:

- siyosiy fanlarni (siyosatshunoslik), o'tmish va hozirgi davr ijtimoiy-siyosiy ta'limotlarini, davlatning siyosiy hujjatlarini, Konstitutsiya va boshqa qonunlarni oliy o'quv yurtlari, o'rta-maxsus bilim yurtlarida doimiy ravishda o'rganish;

- ommaviy axborot vositalari materiallaridan foydalanish (gazeta, jurnal, radio, televideniye, kino) va kishilar ongiga ijodiy tarzda singdirish;

- muayyan siyosiy an'analar, idealar, o'z oilasi, mehnat jamoasining siyosiy va ijtimoiy udumlariga doimiy amal qilish;

- kishilarning o'zaro muloqotlari, aktual siyosiy muammolar yuzasidan fikrlar almashuvi;

- mamlakat va chet ellar kundalik siyosiy hayoti, siyosiy jarayonlarini mustaqil tahlil etish, uning natijasi asosida o'z siyosiy xatti-harakatlarini bir izga solish.

Halqning siyosiy madaniyati rolini oshirish demokratik jamiyat va davlat taraqqiyotining obyektiv qonuniyati hisoblanadi. Kishilar kanchalik axborot bilan yaxshi ta'minlangan bo'lsa, ular shunchalik siyosiy hayotda erkinrok muljal olaoladilar, o'z ishlari davlat, jamiyat, mehnat jamoalari ishlariga ma'suliyatli yondoshgan bo'ladilar.

Yuqorida qayd qilganimizdek, siyosiy madaniyat siyosat jamiyatning madaniy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shuni e'tiborga olgan holda siyosiy madaniyat va madaniy siyosat tushunchalarini bir xil ma'noda ishlatish turli xil chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Chunki madaniy siyosat deganda birinchi navbatda subyektlarning jamiyat ma'naviy hayotida olib borayotgan faoliyatlarini tushunish taqozo etadi. Shuning uchun ham jamiyatning ma'naviy hayoti sohasida olib borishi zarur bo'lgan siyosiy yo'lni ishlab chiqish uni hayotga tatbiq etish muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy hayotda obyektiv jarayon sifatida namoyn

bo'ladi. Zotan, siyosat ijtimoiy hodisa sifatida ma'naviy hayotda uz ifodasini topadi. Madaniy siyosat mazmunan keng kamrovli bo'lib, u bir tomondan jamiyatning madaniy hayotiga daxldor bo'lgan masalalarni siyosiy jihatdan hal qilish bilan bog'liq masalalarni va, ikkinchi tomondan, siyosat subyektlarining madaniy sohadagi o'zni va roliga doir masalalarni o'zida ifoda qildi. Bu masalalar o'zaro bog'liq holda madaniy siyosatning nazariy va amaliy asoslarini tashkil etadi. Madaniy siyosatning o'ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, u jamiyat madaniy hayotining rivojlanish darajasi va subyektlarning milliy madaniyatga bo'lgan munosabatlarini ifodalanishi bilan belgilandi. Agar mamlakatning madaniy rivojlanish darajasi past bo'lsa, unda madaniy siyosatning olib borishi ancha og'ir kechadi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat a'zolarining savodxonlik darajasiga bevosita bog'liqdir. Agar mamlakatda savodxonlik yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, halq ommasi savodxon bo'lgandan keyin jamiyatni boshqaruv va rivojlantirish ishlariga faol katnashish uchun zamin yaratilgan bo'ladi. Har bir mamlakatda olib boriladigan madaniy siyosat o'ziga xos bo'lib, mazkur sohada kundalang bo'lib turgan muammolarni hal etishga karatiladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini qulga kiritganidan keyin madaniy siyosatning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan halq maorifi, o'rta va oliy ta'lim tizimini isloh qilish va uni jahondagi ilg'or tajribalar bilan boglash kabi ijtimoiy-siyosiy ahamiyatga moggik bo'lgan masalalarni qayta kurib chikdi va bu soha bo'yicha «Milliy kadrlar tayyorlash» maxsus qarorini qabul qildi. Bu jamiyat madaniy hayotining rivojlanishiga ijobiy rol o'ynadi.

Bulardan tashqari, madaniy siyosat bevosita mamlakatning ichki va tashqi sohada olib borayotgan faoliyati bilan ham bog'liqdir. Chunki madaniyat hamma vaqt ichki va tashqi siyosatda u yoki bu tarzda o'z ifodasini topadi. Masalan, siyosat subyektlarining madaniy sohadagi vazifalarini hal qilish jarayonida albatta halqaro siyosiy munosabatlar, halqaro siyosiy tashkilotlarning faoliyatini inobatga olishi shart. Chunki, madaniy masalalarga daxldor milliy va halqaro masalalar siyosiy xujjatlarga, ya'ni Konstitusiyaga, davlatlararo bayonotlarga, xukumatlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarga asoslanadi.

Shunday qilib, madaniy siyosat keng qamrovli tushuncha bo'lib, u jamiyatda ro'y berayotgan voqyea-hodisalarni o'z ichiga qamrab olib, keyinchalik ular ma'naviy hayot sohasida namoyon bo'ladi. Bunday ma'naviy hayot sohalarida namoyon bo'lishi esa madaniy siyosatning asl mohiyatini tashkil etadi.

Siyosiy boshqarish – bu ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlarini o'z vaqtida aniqlay bilish va duch kelingan muammolarni hal etish hamda jamiyatning afzalliklaridan, uning real imkoniyatlaridan foydalana bilishdir¹.

Siyosiy boshqarish mazmuni 2 ta muhim xususiyatni: 1) boshqarish mexanizmlarining tashkil qilinishi va 2) boshqarishning jamiyat hayotidagi siyosiy sohalarida namoyon bo'lishini aks ettiradi.

Siyosiy boshqarishning funksiyalari boshqarish ishlarini to'g'ri tashkil qilish va jamiyat siyosiy hayotidagi murakkab muammolarni xal qilishni ko'zda tutadi. Siyosiy boshqarishning eng muhim va asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat:

¹ Рамазонов И., Мўминов Э. Политология. Т.: «Адолат», 1997, 162–173-бетлар.

1. Qonunlar, qarorlar, dasturlar, nizomlarni ishlab chiqish.
 2. Ishni tashkil etish. Davlat olib borayotgan siyosat ishni tashkil etish funksiyasida o'zining amaliy ifodasini topadi.
 3. Ishni tartibga solish funksiyasi. Boshqaruv faoliyatida tashkil kilinadigan ishlarni izchillik asosida amalga oshirishni bildiradi.
 4. Nazorat qilish funksiyasi. O'z vaqtida hisob-kitob qilib borishni anglatadi.
- Umuman, siyosiy boshqarishning ana shu funksiyalari o'zaro bog'liq va chuqur aloqada bo'ladi. Siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlik o'zaro bog'liq bo'lgan siyosiy hodisalardir. Siyosiy rahbarliksiz siyosiy boshqarishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

Siyosiy boshqarishning samarali olib borilishi va uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bu sohada mavjud bo'lgan tamoyillarga og'ishmay amal qilishga va uning natijalariga bog'liqdir. Bunday tamoyillar turlicha bo'lib, ularning har biri siyosiy boshqarishning tashkil etilishi, uni amalga oshirishning zarurligi va muqarrarligi bilan talablarga qat'iy rioya qilish zarurligini ifoda qildi. Siyosiy boshqarishda amal qiladigan tamoyillarga asoslanish natijasida boshqaruv ishining to'g'ri tashkil etilishiga muvaffaq bo'linadi. Siyosiy boshqarishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. **Obyektivlik va subyektivlik tamoyili**¹. Siyosiy boshqarishning bu tamoyili qaysi mamlakatda va qanday sharoitda amalga oshirilishidan qat'iy nazar, u jamiyatning yashashi va rivojlanishi uchun obyektiv ehtiyoj bo'lib hisoblanadi. Siyosiy boshqarishda obyektivlik tamoyilining mohiyati jamiyat rivojlanishining obyektiv qonuniyatlari kuchini hisobga olishni bildiradi. Siyosatning har bir subyekti boshqarish ishlarini amalga oshirishda jamiyat hayotida amal qiladigan obyektiv qonuniyatlarni va ularning harakat yo'nalishlarini bilib olishi talab etiladi.

Siyosiy boshqarishda subyektivlikning mohiyati siyosat subyektlarining faoliyati bilan belgilanadi. Subyektivlik siyosiy boshqarishga subyektiv yondashishni bildiradi. Siyosiy boshqarishda siyosat subyektlari turlicha qatnashadi. Masalan, davlat boshqaruvida siyosat subyektlari davlat apparati xodimlarining ijtimoiy hayotning turli sohalarida ishtirok etishini anglasa, siyosiy partiyalarning boshqarishi esa, boshqarishda har bir partiyaning partiya hayotiga doir ishlarni boshqarishdagi ishtirokini anglatadi. Siyosiy boshqarishda obyektivlik va subyektivlikning mohiyati subyektivizmga batamom teskaridir.

Subyektivizm – siyosiy boshqarish jarayonida obyektiv qonuniyatlarni kuchini mensimaslik yoki ularga e'tibor bermaslikdan iborat. Subyektivizm boshqarishni izdan chiqarishga, jamiyat hayotida stixiyalilikning avj olishiga sabab bo'ladi.

2. **Asosiy zveno tamoyili**. Jamiyat hayotida ro'y beradigan muammolarning barchasini bir vaqtning o'zida bajarish mumkin emas. Bu muammolarni xal etish uchun zarur bo'lgan vazifalarni aniq belgilab olish lozim. Siyosiy boshqarishda belgilangan vazifalarning ketma-ketligini, birinchi va ikkinchi navbatda bajarilishi zarurligini e'tiborga olish lozim.

Asosiy zveno tamoyili, bir tomondan, siyosiy boshqarish va uni tashkil etishga doir vazifalarni, ikkinchi tomondan esa, jamiyat hayotining turli sohalarida

¹ Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya. T.: «Adolat», 1997, 173–181-betlar.

amalga oshirilishi zarur bo'lgan vazifalarni xal etishni talab qildi. Asosiy zveno tamoyili dolzarb vazifalar orasidan asosiylarini birinchi navbatda xal qilishga butun e'tiborini karatishni, kuch va imkoniyatlarini ishga solishni taqozo etadi. Ba'zan shunday dolzarb muammolarni tezda bajarishga to'g'ri keladiki, uni aslo kechiktirib bo'lmaydi. Ana shu muammolarni xal qilish siyosiy boshqarish va siyosiy rahbarlikning qanday tashkil etilishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Asosiy zveno tamoyilining muhim talablaridan biri – bu xal qilinishi zarur bo'lgan vazifalarning umumiy zanjiridagi har bir bandni mahkam ushlab turishni, bu bandlarning har biri o'zaro qanchalik bog'liq ekanligini bilib olishni va qaysi paytda qanday bandning muhim ekanligini o'z vaqtida aniqlash zarurligini taqozo etadi. Asosiy zveno tamoyilining talablari Prezident Islom Karimovning «Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik», «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari», «O'zbekiston XXI asrga intilmokda» kabi asarlarida, nutq va maqolalarida o'z ifodasini topgan.

3. Hududiy tarmoq tamoyili. Boshqarishning barcha turlari kabi siyosiy boshqarish ham hududiy-tarmoq tamoyili talablariga qat'iy amal qilishni talab etadi. Siyosiy boshqarishda bu tamoyilning mohiyati jamiyat hayotiga siyosiy rahbarlikni amalga oshirishda hududlar va tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni taqozo etadi. Buning ma'nosi shundaki, boshqarishda har bir hududning o'ziga xos sharoitlari, ularda mavjud bo'lgan imkoniyatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy hayot sohalarining turli tarmoqlarida ishni tashkil qilish va uning samarali bo'lishiga erishishni bildiradi.

Siyosiy boshqarish va rahbarlik boshqarish ishlarini hududlar va tarmoqlar bo'yicha tashkil etish hamda amalga oshirishni anglatadi. Hududiy-tarmoq tamoyilining mohiyati boshqarishda bu ikki tomonning hyech biriga ustunlik berilmasligini ifodalaydi. Xolbuki, boshqarishning bu ikki tomoni o'zaro bog'liq xolda tashkil qilinishi va amalga oshirilishi lozim. Siyosiy boshqarishning hududiy-tarmoq asosida tashkil etilishi xozirgi kunda dunyoning barcha mamlakatlari uchun umumiy hodisadir. Biroq uni amalga oshirishning usullari, vositalari har bir mamlakatning shart-sharoitlaridan kelib chiqadi. Mamlakatimizda bu tamoyil hududiy boshqarishda prezidentlik, hokimliklar hamda xalq deputatlari kengashlari orqali amalga oshirilsa, tarmoqlar bo'yicha boshqarish esa vazirliklar va ularning joylardagi bo'limlari orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Konstitusiyasida siyosiy boshqarish mexanizmlari va ularning vakolatlari qonunlar asosida belgilab berilgan.

4. Mas'uliyatni xis qilish tamoyili. Siyosiy boshqarishda bu tamoyilning mohiyati rahbar kadrlar va keng jamoatchilik oldiga ko'yilgan vazifaga o'ta mas'uliyat bilan yondoshish zarurligini ifodalaydi. Bu zaruriyat, avvalo, jamiyat rivojlanishining ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Jamiyat o'z-o'zicha rivojlanmagani singari, unda boshqarish ishlarining tashkil etilishi va olib borilishi ham unga mas'uliyat bilan yondoshishni taqozo etadi. O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov rahbarning o'z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishning ahamiyati xaqida gapirib: «...biz kadrlarning topshirilgan vazifa uchun javobgarligini qattiq nazorat ostiga olishimiz kerak. Toki, har bir rahbar jamiyatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar uchun mas'ul ekanini teran xis etsin» (Asarlar, –T.3, 13–14-b.).

Prezident Islom Karimov 2000 yil 11 fevral kuni 2-chaqiriq O'zR Oliy Majlisining 1-sessiyasi 2-yigilishida so'zlagan nutqida ham shu masalaga alohida e'tibor qaratib, kuyidagi fikrlarni bayon etgan edi: «...hozirgi sharoitda, o'ta mas'uliyatli bir davrda, hayot murakkablashib, xalqaro axvol, ichki va tashqi vaziyat tobora keskinlashib borayogan bir paytda avvalo rahbarlarga, birinchi navbatda eng yukori vazifalarda o'tirganlarga, jumladan, hukumat a'zolariga, bir so'z bilan aytganda, yetakchilik vazifasini o'z zimmasiga olgan shaxslarga zamon talablari kundan-kunga oshib borayotganini payqash qiyin emas» (Asarlar, –T.8, 357- b.).

Mas'uliyat xissi boshqaruv xodimlari oldiga yuksak talablarni qo'yadi: siyosiy rahbar, lider o'zida shaxsiy, amaliy va professional xislatlarni (biz bu xakda oldingi savolda gapirib o'tgan edik) mujassam yetmogi darkor. Umuman, mas'uliyatni xis etish rahbar kadrlarning jamiyat oldidagi javobgarligini chuqur anglashni aks ettiradi. Har bir rahbar xodim jamiyat oldida o'ziga topshirilgan ish uchun shaxsan javobgardir...

5. Vorislik tamoyili. Bu tamoyilning mohiyati siyosiy boshqarish jarayonida bo'ladigan o'zgarishlarda uzviylik bo'lishni taqozo etadi. Siyosiy boshqarishdagi uzviylik, bir tomondan boshqaruv organlari va tashkilotlari tizimida namoyon bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, siyosiy boshqarishga mas'ul bo'lgan rahbar kadrlar faoliyatida aks etadi.


Vorislik tamoyili siyosiy hokimiyatlarning o'zgarishi, boshqarish tizimidagi kadrlarning almashinishi bilan jamiyatda amalda bo'lib kelgan boshqarish tizimini yoki boshqarish uslublarini batamom o'zgartirib, uni yangidan boshlashni emas, balki boshqarish sohasida ko'llanib kelingan yo'lni davom ettirishni, unga ayrim o'zgarishlar kiritib borishni ifodalaydi. Vorislik tamoyilining bu talabiga amal qilmaslik jamiyatda ko'plab noxushliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Bu talabga boshqaruvning yuqori bo'g'inlarida amal qilmaslik jamiyat uchun juda katta salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Vorislik tamoyili talablariga amal qilmaslik ko'pincha davlat to'ntarishlari qilinganda yoki siyosiy hokimiyatlarga reaksion, fashistik kuchlar kelganda ro'y beradi. Bunday kuchlar odatda boshqarish va rahbarlikni amaldagi konstitusiyani butunlay bekor qilish, mamlakatning avval davom etib kelgan siyosiy yo'lini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish, demokratiyani takidlash singari siyosiy ishlardan boshlaydilar. Keyingi yillarda Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasidagi, ayniqsa, Yaqin Sharkdagi ayrim mamlakatlarda ro'y bergan davlat to'ntarishlari natijasida boshqarish sohasida ro'y bergan o'zgarishlar bunga misoldir.


Vorislik tamoyilining mohiyati va uning zarurligini Prezident Islom Karimov quyidagicha ta'riflaydi: «Yangi o'y qurmay turib, eskisini buzma, deyishadi bizda. Har qanday xolda ham biz o'zimizni bokib, to'ydirib kelgan narsalarni vayron qilishga berilib ketishga xakkimiz yo'k»¹.

¹ Karimov I.A. «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 –T.: «O'zbekiston», 1996, 141-b


41-sxema




42-sxema.





43-sxema.






44-sxema.






45-sxema.

Siyosiy ruhiyat





Savol va topshiriqlar:

1. Siyosiy madaniyat tushunchasini izoxlab bering.
2. Siyosiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishi deganda nimani tushunasiz?
3. Shaxs siyosiy madaniyati darajasini nimalar bilan belgilash mumkin?
4. Siyosiy tarbiyaning asosiy yo'nalishlari deganda nimani tushunasiz?
5. Madaniy siyosat nima va siyosiy madaniyat tushunchasidan nimalar bilan farq qildi?
6. Madaniy siyosatning mohiyati nimalar bilan belgilanadi?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.Karang: Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent, 1997 yil, 20-25 betlar.
2. O'zbekiston Respublikasining kadrlar tayyorlash milliy dasturi ning qonuni. Karang: Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent, 1997 yil, 34-60 betlar.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr busagasida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil, II-bob 137-151 betlar.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot -provard maqsadimiz. «Fidokor» gazetasi, 23 yanvar 2000 yil.
5. Karimov I.A. Demokratiya va siyosiy partiyalar to'g'risida // Tuzuvchilar: Sh.O. Mamadaliyeva, Sh.R. Qobilov, B.U. Tadjixanov. – T., 2004.
6. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. // O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichidir. T. «O'zbekiston» 2005 y. 21-64 betlar.
7. Karimov I.A. Mamlakatni modernizasiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo'lida. T.16. T., 2008.-B. 368.

8. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
9. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 32-36, 103-107.
10. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
11. Ramazonov I., E. Muminov Politologiya. darslik. - Toshkent, «Adolat», 1997 yil, 218-230 betlar.
12. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: 2009. B. 238-251, 321-338.

MA'RUZA MASHG'ULOTLARI

7-MAVZU: HALQARO TIZIM VA XALQARO TASHKILOTLAR. DAVLAT TASHQI SIYOSATI.

REJA:

1. Jahon siyosati va halqaro munosabatlar.
2. Hozirgi halqaro siyosiy munosabatlar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. Xalqaro tashkilotlar va ularning xususiyatlari
4. Davlatlar tashqi siyosati.

TAYaNCh IBORALAR:

Halqaro munosabatlar, halqaro siyosiy munosabatlar, halqaro huquq, halqaro sud, halqaro siyosiy munosabatlar, tamoyillari, rivojlanish xususiyatlari, ziddiyatlari, xalqaro tashkilotlar, tashqi siyosat, umuminsoniy qadriyatlar.

Jahon miqyosida turli davlatlarning vujudga kelishi, ular o'rtasida turli sohalar bo'yicha munosabatlarning shakllanishiga sabab bo'lgan. Bu munosabatlar o'z mazmuni va mohiyatiga ko'ra obyektiv harakterga ega bo'lgan. Har bir davlat o'zi yakka, boshqa davlatlardan ajralgan holda mavjud bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas.

Ijtimoiy hayotning bunday obyektiv zaruriy qonuni halqaro yeiyosiy munosabatlarning mohiyatini belgilab beradi.

Davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar ichida halqaro siyosiy munosabatlar muhim urinni egallaydi. Halqaro siyosiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan va o'z tarixiga ega. Bunday siyosiy jarayon bevosita davlatlarning vujudga kelishi va o'zaro aloqalar shakllanishining qaror topishi bilan bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Siyosiy hayotning shakllanishi va tarixiy taraqqiyoti esa o'z navbatida uning nazariy asoslarini ishlab chiqish uchun zamin yaratadi. Kadimgi quldorlik va feodal tuzum hukmronlik qilgan davlatlarda juda ko'p mutafakkirlar siyosiy munosabatlar muammolari bo'yicha ilgor qarashlarni ilgari surganlar. Qadimgi Misr, Ossuriya, Vaviloniya, Mediya davlatlarida - koxinlar, Yunonistonda - demagog, strateg, notiq, faylasuflar, Rimda - senatorlar, tribunlar, imperatorlar; O'rta Osiyo qadimgi davlatlarida - vazirlar, munajjimlar kabi zodagonlar davlatlararo siyosiy munosabatlar yo'nalishlari ishlab chiqishib, ijtimoiy hayotga takdim etganlar.

Shunday buyuk mutafakkirlardan biri Yunonistonlik Arastu bo'lib, u davlatning asosiy vazifalaridan biri kullar bilan kuldorlar o'rtasidagi munosabatlarni takomillashtirishdan iboratdir, degan g'oyani ilgari surgan. Uning fikricha, yunonlar boshqa qabila va elatlarni bosib olib davlat tuzumi va shu hududda yashayotgan aholining farovonligini ta'minlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

Rimning buyuk siyosiy davlat arbobi Yo'liy Sezar davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarni qaror toptirishda boshqa davlatlar va halqlarni bosib olish va Rimga buysundirish g'oyasini isbotlash asosida bir kancha davlatlarni birlashtirishgae. Uning jiyani Oktaviyan Avgust esa uning ishini davom ettirib, birinchi marta o'zi bosib olgan hududlarda Rim vakolatxonalarini tashkil etdi. Bu

vakolatxona vakillarini «legat» degan nom bilan atab, ular davlatlararo munosabatlarni boshqarib borgan. Oktavian Avgust tashqi siyosiy usullar va vositalarni, ularni amalda qullash yo'llarini ishlab chiqqan. U o'zining bu sohadagi faoliyatida Rim davlati manfaat nuqtai-nazaridan yondoshib, halqlar o'rtasida siyosiy munosabatlarni uyg'unlashtirish, rivojlantirish ishiga, jahon diplomatiyasiga asos soldi.

Halqaro siyosiy munosabatlarda ijtimoiy hayotni boshqarish jarayonida rus imperiyasi asoschisi Pyotr Birinchi, Yekaterina Ikkinchi, Aleksandr Birinchilar katta xissa kushganlar. Masalan, Pyotr Birinchi Rossiya uz tashqi siyosatida «Yevropaga darcha ochgan» yirik davlat arbobidir. U boshqa davlat bilan urush olib borayotganida galabaga erishish uchun ikkinchi davlat bilan bitim tuzish, tinch aloqalar urnatish orqali mutanosiblikni barpo etgan. Rus xukmdorlari Pyotr Birinchi bu siyosatini davom ettirib, halqaro munosabatlarda faqat harbiy kuchlarga, urushlarga asoslanib ish kurmay, balki boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilish, bitimlar tuzish, tinch diplomatik aloqalar urnatish kabi usullar va vositalarni qo'llab ijobiy natijalarga erishishlari tufayli tarixda siyosiy arbob sifatida iz qoldirganlar.

Halqaro siyosiy munosabatlarni taraqqiy yettirishda O'rta Osiyoning tarixida iz qoldirgan hukmdor, davlat arboblari ham katta xissa qo'shganlar. Ismoil Somoniy, Alp Arslon, Nizom ul-Mulk, Amir Temur, Zaxriddin Muhammad Bobur, Shayboniyxon, Abdullaxon, Abulg'ofi Bahodirxonlarning siyosiy faoliyatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Somoniylar sulolasining atokli xukmdorlaridan bo'lgan Ismoil Somoniy halq farovonligiga urushlar yo'li bilan emas, balki davlatlararo hamkorlikni rivojlantirish, yaxshi qo'shnichilikni o'rnatish orqali erishish mumkin deb bilgan.

Saljuqiylar sulolasidan bo'lgan Alp Arslon va uning vorisi Malikshox hukmronlik qilgan davrlarda esa vazirlik lavozimida ishlagan Nizom ul-Mulk yordamida boshqa davlatlar bilan tinch muzoqaralar olib borish, diplomatik yo'l bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatish tariqasida ish olib borilganligi tufayli katta muvaffaqiyatlarga erishgan. Nizom ul-Mulkning «Siyosatnoma» asarida markazlashgan siyosiy hokimiyat zarurligi, uni mustahkamlashni amalga oshirish kabi masalalar yaxshi yoritilgan.

Halqaro siyosiy munosabatlar tarixida Amir Temur tuzgan markazlashgan davlatning o'rni va roli kattadir. Amir Temur davlati tashqi siyosati yo'nalishlari oldindan belgilangan. U boshqa davlatlarga yurish qilish rejalarini o'zi tuzib, shart-sharoit etilgandan so'ng boshqa davlatni bosib olar edi. Temur davlati qo'shni davlatlar bilan siyosiy aloqalarni yaxshi yo'lga quyganliklari tufayli, ular o'rtasidagi aloqalarning yangi-yangi shakllari vujudga kelgan.

O'zbeklar davlatining ko'zga ko'ringan xukmdorlaridan biri bo'lgan Abdullaxon ham nozik diplomat va etuk siyosatchi sifatida O'rta Osiyo tarixida iz qoldirgan. U qo'shni davlatlar bilan tinch hamkorlik qilish samarali yo'llarini ishlab chiqqan va amaliy hayotda tatbiq etgan. U Turkiya, Eron, Afg'oniston, Kavkaz va Kavkaz Orti mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, savdo, madaniy aloqalarni olib borishida ijobiy natijalarni kulga kiritgan.

Kapitalizmning shakllanib borishi natijasida halqaro siyosiy munosabatlarda ham o'zgarishlar yuz bera boshlagan. Bu davrga kelib Volter, Monteske kabi yetuk siyosashunoslar etishib chiqqan. Masalan, Monteske «Qonunlar ruxi to'g'risida» asar yozib, unda siyosiy-tarixiy jarayonlarni diniy-ruxiy talkin qilishga qarshi kuyib, siyosashunoslikda yangi jugrofiy g'oyalar nazariyasini asoslab berishga harakat qildi. Uning fikricha, iklim, zamin va zamin usti xolati halqlar ruxining shakllanishini hamda ijtimoiy taraqqiyot tabiatini belgilab beradi. Urushlarning kelib chiqishini asosiy sababi mustabid, totalitar siyosiy tuzumlarning mavjudligidadir, degan g'oyani ilgari suradi. Bu borada u Jon Lokkning qonun chiqarish, ijro etish, hakamlik hokimiyatlarini bir-biridan ajratilgan holda olib qarash lozimligi haqidagi g'oyasini ma'qullaydi. Yana bir fransuz mutafakkiri Volter o'z davrida mustabidlik siyosiy hokimiyatiga qarshi ayovsiz kurashga chakiradi.

Davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlar halqaro huquq talablariga rioya qilgan holda amalga oshiriladi. Halqaro huquq bu ijtimoiy obyektiv rivojlanish qonuni jarayonida shakllanib, guruhlar, sinflar xoxish-irodasiga mutlaq bog'liq bo'lmaydi. davlatlar rivojlanib borgan sari ular o'rtasida paydo bo'ladigan muammolarni hal qilish hamda munosabatlarni tartibga solib turish ehtiyoji ham shunchalik kuchayib boradi. Shu tariqa halqaro munosabatlarda davlatlar tomonidan tan olingan va rioya qiladigan umumiy huquqiy qoidalar shakllanadi, aks holda ular o'rtasida qarama qarshiliklar, ziddiyatlar kuchaya borib, tuqnashuv xolatiga olib kelishi mumkin.

Demak, halqaro huquq - bu halqaro munosabatlarning subyektlari bo'lgan davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy - siyosiy, ma'naviy sohalar bo'yicha rioya qiladigan huquqiy-qonuniy va qoidalar yig'indisidan iborat. Bunday aqidalar, qonun va qoidalar subyektlar tomonidan kelishilgan holda ishlab chiqildi hamda uning bajarilishi, amal qilish jarayonlari halqaro siyosatda namoyon bo'ladi.

Bu siyosiy jarayonda har bir davlat ichki huquq-normalaridan halqaro huquqiy normalarning ustivorligini ta'minlashi lozim. Bu siyosiy jarayon O'zbekiston tashqi siyosatida asosiy tamoyillaridan biri qilib qabul qilingan.¹

Halqaro huquq davlatlar tomonidan ishlab chiqilgan shunchaki qonun va qoidalar bulmay, balki obyektiv jarayon sifatida kishilarni urab turgan dunyo bilan aloqalarga intilishlari asosida shakllangan va qaror topgan. Shuning uchun ham halqaro huquq ijtimoiy ongning bir shakli sifatida ijtimoiy taraqqiyotning maxsuli bo'lib hisoblanadi. Shu ma'noda olib karalsa, u davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi obyektiv qonuniyat bo'lib hisoblanadi.

Halqaro huquqning shakllanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Chunki, jamiyat taraqqiy etishi bilan halqaro munosabatlar ham takomillashib boradi, natijada munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalar ishlab chiqish taqozo etiladi. Bunday qoidalar dastlab Versal Shartnomasida, keyinchalik Millatlar Ittifoqi doirasida ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Uning Nizomida halqlar va davlatlar o'rtasida tinchlik, xavfsizlikni

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr busag'asida.... 297-bet.

ta'minlash kabi siyosiy masalalar to'g'risidagi akidalar o'z aksini topgan. Ammo Ikkinchi Jahon urushining boshlanishi, fashizmning bosqinchilik tashqi siyosati natijasida halqaro huquq qoidalari poymol qilindi.

Ikkinchi Jahon urushidan so'ng poymol qilingan halqaro huquq qoidalarini tiklash va uni davr talabi asosida qayta ishlab chiqish zaruriyati kelib chiqdi. Natijada, 1945 yilda ko'pgina mamlakatlarni birlashtirish asosida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil etildi va uning Nizomi qabul qilindi. Mazkur siyosiy hujjatda yangi sharoitda mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning halqaro huquqiy tamoyillari va qoidalari o'z aksini topgan hamda ularga amal qilish yo'llari belgilab berilgan.

Halqaro siyosiy hayotda yuz bergan mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilish vositasi sifatida Halqaro Sud organlari vujudga keldi. Halqaro sud mamlakatlar o'rtasidagi mojarolarni tomonlar roziligini kurib chiqadi va xukm, ajrim, qaror chiqarib beradi.

Hozirgi sharoitda davlatlarning birontasi yakka tartibda siyosat olib borishi mumkin emas. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qiladigan halqaro huquq davlatlarning tashqi siyosiy faoliyati bilan mutanosib tarzda amal qilish xususiyatiga ega. Shu nuqtai-nazar bilan qaralsa, mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda halqaro huquqning namoyon bo'lishi obyektiv jarayon bo'lib hisoblanadi.

Halqaro siyosiy munosabatlar o'ziga xos tamoyillarga amal qildi. **Bu tamoyillar** davlatlar o'rtasidagi aloqalarni tartibga solib turishda katta rol o'ynaydi. Bu tamoyillar quyidagilardan iborat: **davlatning ichki suveren tengligini hurmat qilish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik; tinch-totuv yashash siyosatiga amal qilish; halqaro kelishmovchiliklarni siyosiy yo'l bilan hal qilish; davlatlar chegaralarining daxlsizligi va hududning bir butunligini tan olish; inson huquqlarini hurmat qilish, millatlar va elatlarning o'z huquqlarini uzlari belgilash; halqaro majburiyatlarga vijdonan amal qilish.**

Bu tamoyillar ichida ayrimlari asosiy tamoyillar hisoblanib, qolgan qismlari unga ergashadi yoki bo'ysunadi. Masalan, davlatlarning suveren tengligini hurmat qilish tamoyili halqaro munosabatlarning asosini tashkil etadi. Bu tamoyil BMTning talabidan kelib chiqadi, chunki uning o'zi suveren tenglik asosida tashkil topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining tashqi siyosatga bag'ishlangan turtinchi bob, 17-moddasida davlatlarning suveren tengligi, ularning ichki ishlariga aralashmaslik, kuch ishlatmaslik, chegaralar daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish kabi tamoyillar qayd etilgan.

BMTning 1970 yilda qabul qilingan deklarasiyasida suveren tenglik tamoyili quyidagicha ifoda etilgan:

1. Davlatlarning huquqiy jihatdan tengligi;
2. Har bir davlat hamkorlik qilish jarayonida boshqa davlatni subyekt sifatida hurmat qilishi;
3. Har bir mamlakatning siyosiy mustaqilligi, huquqining bir butunligini tan olishi;
4. Har bir davlat o'zining iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy rivojini o'zi belgilashi;

5. Har bir davlat o'zining majburiyatlarini so'zsiz bajarishi.

Ushbu tamoyillar har bir davlatning halqaro tashkilotlarga ixtiyoriy a'zo bo'lishi va ixtiyoriy undan chiqib ketishi huquqini beradi.

Davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik eng muhim tamoyillardan hisoblanadi. Bu tamoyilning bo'zish salbiy xolatni vujudga keltirishi natijasida halqaro siyosiy munosabatlarda qattiq qoralanadi. Shu bilan bir qatorda BMT Ustavining VII bobida ayrim mamlakatlar hayotida yuz bergan ziddiyatlar, urushlar boshqa davlatlar tinchligiga havf solish darajasiga olib kelsa, u holda, Jahon hamjamiyati uning ichki ishlariga aralashish huquqiga ega ekanligi ham qayd etilgan.

Davlatlar o'rtasidagi mojarolarni tinch yo'l bilan hal etish tamoyili ham katta ahamiyatga egadir. Bunda ayrim bartaraf bo'lgan holis davlatning yordami bilan mamlakatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni tinch yo'l bilan hal etish ko'zda to'tiladi. Yugoslaviyadagi, Isroil va Livan mojarolarida, AQSh, Rossiya ishtiroki, Iroq-AQSh mojarolarida Rossiya, BMT ishtiroki bunga misol bo'la oladi.

Jamiyat tarixiy taraqqiyotida dunyoning ikki qarama-qarshi sistemaga bo'linishi natijasida halqaro siyosiy munosabatlarga sinfiy nuqtap-nazardan qarab kelindi. Sosialistik sistema inqirozga uchrashi munosabati bilan halqaro munosabatlarda kuchlar nisbatiga qarab emas, balki manfaatlar nisbati siyosati ustunlik qilmoqda. Bu hozirgi halqaro siyosiy munosabatlarning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Halqaro munosabatlarda qatnashayotgan har bir davlat birinchi navbatda o'z manfaatini hisobga olishi, ikkinchidan esa boshqa davlatning manfaatlarini e'tirof etishi va hurmat qilishini taqozo etiladi.

Shu urinda O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarini shakllantirish yuzasidan ishlab chiqqan **tamoyillari** haqida to'xtalib utish joizdir. Bular: **birinchidan** - o'zaro manfaatlarning har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan - teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan - mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

Turtinchidan - halqaro huquq normalarining davlat ichki huquq normalaridan ustivorligi;

Beshinchidan - tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish¹.

Hozirgi halqaro siyosiy munosabatlarning xususiyatlaridan biri bu dunyoning bir butunligi va yaxlitligini tan olish, uni anglashdan iborat. Chunki, dunyoning birligi va yaxlitligi bu taraqqiyotning obyektiv qonuniyatidir. Insoniyat qanchalik ijtimoiy, milliy, siyosiy, irkiy, diniy belgilar asosida turli guruhlarga ajratilgan bo'lmasin, halqlarning turmush tarzlari va manfaatlar qanchalik bir-biridan farq qilmasin, ular bir Sayyora - Yerda istiqomat qildilar. Yangi paytgacha siyosatdonlar buni hisobga olmasdan, kuchli davlat bo'lishi uchun eng yangi qurol-aslahalarga ega bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritganlar. Natijada, ommaviy kirgin kurollari birinchi navbatda termoyadro quroli vujudga keltirilib, insoniyat hayot-

¹ Karimov I. O'zbekiston XXI asr busag'asida 296-297 betlar.

mamoti, sivilizasiyasi xavf ostida qoldi. Shuni e'tiborga olgan holda hozirgi halqaro siyosiy munosabatlarda ayrim ziddiyatlar mavjud bo'lishiga qaramay, o'zaro kelishish asosida faoliyat ko'rsatish tarafdori bo'lmoqdalar.

Halqaro siyosiy munosabatlarda terrorizmga qarshi kurash zarurligi ham muhim ahamiyat kasb etmokda. Terrorizm u yoki bu shaklda davlat tomonidan, ayrim yoki bu guruh kishilar tomonidan ijtimoiy siyosiy tartibni bo'zishga, qo'porishga yoki halqlarni qurqitishga qaratilgan harakatdir. Terrorizm turlicha bo'lib, ular siyosiy rahbarlarga suiqasd uyushtirish, garovga olish, davlat tuntarishini amalga oshirish, muhim obyektlarni portlatish, qo'poruv ishlarini amalga oshirish kabi harakatlar bo'lib hisoblanadi. Bular esa o'z navbatida ijtimoiy hayotda turli xildagi ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham barcha davlatlar va halqlar o'zaro amaliy faoliyatlarida bunday holatlarni hisobga olishlari obyektiv zaruratdir.

Hamma sohada bo'lgani kabi halqaro siyosiy munosabatlarda ham o'ziga xos ziddiyatlar mavjuddir. Bu ziddiyatlar quyidagilardan iboratdir:

- Halqaro siyosiy munosabatlarda mavjud bo'lgan muammolar bilan ularni hal qilish imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- Har bir mamlakatning moddiy manfaatlari bilan ularning baynalminal manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- Halqaro siyosiy munosabatlarda ishtirok qiluvchi subyektlarning manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar;
- Halqaro siyosiy munosabatlarni tartibga solish bilan uning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlar.

Bu ziddiyatlar obyektiv mohiyatga ega bo'lib, siyosiy rivojlanishlar ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Chunki har bir davrning o'ziga xos muammolari ko'p bo'lganligi, ularning yangi-yangilari paydo bo'lib turishi sababli halqaro siyosiy munosabatlarda ziddiyatlar bo'lib turishi muqarrar. Bunday turlicha bo'lgan muammolarni, ziddiyatlarni hal etishga bir xilda yondoshib bo'lmaydi. Masalaga bir yoqlama qarab, subyekt manfaatini ijobiy hal etishga urinish noxush holatlarga olib kelishi muqarrar. Muammolar va ziddiyatlarning mohiyati va mazmuniga qarab mintaqaviy subyektlar, kit'alar, kit'alararo maydonida yashonchi subyektlar manfaatiga qarab hal etilsa ijobiy natijalarga olib keladi. Bu jarayonda davlatlar, halqaro tashkilotlar hamkorligini tashkil etish albatta talab yetil adi.

Shunday qilib, hozirgi dunyoning o'zaro bog'liqligi, bir butunligi halqlar, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni demokratik asosda qayta qurishni taqozo etadi. Ya'ni, umuminsoniy qadriyatlar va manfaatlarni qaror toptirish uchun turli davlatlar hamkorligini vujudga keltirish, uni sinfiy, milliy, davlatlar manfaatidan ustunligini e'tirof etish vaziyatini vujudga keltirish hozirgi davr siyosiy munosabatlaridagi ziddiyatlarni hal etishda zamin tayyorlaydi. Chunki umuminsoniy manfaatlar halqaro siyosiy munosabatlardagi ixtiloflardan ustun turadi. Shuning uchun ham bunday manfaatlar turli siyosiy tuzumlardagi davlatlarni hozirgi dolzarb masalalarni hal etishga birlashtiradi.

Xalqaro siyosiy tashkilotlar xalqaro tashkilotlarning alohida ko'rinishi bo'lib, ular xalqaro munosabatlarni siyosiy vositalar yordamida tartibga solib turishda muhim rol o'ynaydi. Ularning ta'sirida u yoki bu mamlakat hayotida,

xalqaro munosabatlarda hamda jahon siyosatida turli voqyea-hodisalar, o'zgarishlar ro'y berib turadi. Dunyodagi ko'pchilik davlatlar xalqaro siyosiy tashkilotlarning a'zosi sifatida bu tashkilotlarning ishlarida faol qatnashadilar.

Xalqaro siyosiy tashkilotlar siyosatning o'ziga xos subyektlari sifatida jahon siyosatida va uni umuminsoniy manfaatlar yo'nalishida rivojlanishida etakchi rol o'ynaydi. Bu tashkilotlar jahon siyosatining etakchi kuchlaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tashkilotlarning qaror topishi uzoq tarixga ega bo'lib, ular davlatlarning rivojlanishi, mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning takomillashib borishi zarurati asosida shakllangan. Ularning dastlabki shakllanish jarayoni 1851 yilda chaqirilgan Vena Kongressidan boshlangan. O'shangacha hali mamlakatlar o'rtasidagi aloqalarni uyg'unlashtirib turadigan tartib – qoidalar mavjud bo'lmagan. Vena Kongressi aynan shu vazifani, ya'ni mamlakatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turuvchi qonun-qoidalarining dastlabki asoslarini ishlab chiqqan edi. Bu Kongress xalqaro tashkilot sifatida davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda, jahon siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab berishda muhim omil bo'ldi.

Bu Ittifoq Birinchi jahon urushining oxirlarida tuzilgan bo'lib, unda urushda g'olib chiqqan mamlakatlar kelajakda urushlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik, mamlakatlar, xalqlar o'rtasida tinch hamkorlik o'rnatish, har qanday kelishmovchiliklarni siyosiy yo'l bilan hal etish to'g'risida hujjatlar qabul qildi.

Millatlar Ittifoqi jahon siyosati tarixida muhim rol o'ynaydi, chunki u birinchi marta jahon ahlining yagona maqsadi bo'lgan tinchlik, hamkorlik, xavfsizlik munosabatlariga amal qilishi mumkin ekanligini isbotlab berdi va uni hayot tajribasi sinofidan o'tkazdi.

Xalqaro tashkilotlarni ularning xalqaro munosabatlarda va jahon siyosatida tutgan o'rniga, maqsad va vazifalariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin. Bularga ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, xalqaro harbiy – siyosiy tashkilotlar kiradi. Hozirgi kunda bu guruhlardagi barcha xalqaro tashkilotlarning diqqat-e'tibori xalqlarning turmush sharoitlarini yaxshilash, maorif, fan va madaniyatni rivojlantirish, atom quvvatlaridan tinch maqsadlarda foydalanish, tibbiy xizmatni yaxshilash, kosmik fazodan tinch maqsadlarda foydalanish kabi xilma – xil masalalarni hal qilishga qaratilgan. Mintaqaviy masalalarni yechishga qaratilgan jumladan, Arab Davlatlari ittifoqi (ADI), Amerika Davlatlari Tashkiloti (ADT), Afrika Birdamligi Tashkiloti (ABT), Osiyo va Afrika Birdamligi Tashkilotlari (OABD) kabi xalqaro tashkilotlar kiradi.

Davlat shakllanishi bilan uning ikki vazifasi - ichki va tashqi siyosat yuritish zaruratini keltirib chiqaradi. Oldingi mavzuda davlatning ichki siyosati haqida batafsil fikrlarni bayon etgan edik. Mazkur mavzuda esa uning tashqi siyosati vazifalari, maqsadlari, ularni amalga oshirish vositalari, yo'nalishlari va asosiy tamoyillari haqida fikr yuritamiz.

Tashqi siyosat deganda nimani tushunish mumkin?

Tashqi siyosat - bu davlatlar va halqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni halqaro miqyosda, jahon maydonida tartibga solib, boshqarib borish ma'nosini anglatadi. Tashqi siyosat har bir davlatning olib borayotgan ichki siyosatini halqaro maydonda rejalashtirilgan mantiqiy mohiyati

ning davomi bo'lib hisoblanadi va u davlat tuzumini ochib berishga xizmat qildi. Shu nuqtai-nazar bilan olib qarasak, davlatning olib borayotgan tashqi siyosati va ichki siyosati dialektik uzviy bog'liqlikdan iborat bo'lib, obyektiv harakterga ega.

Har bir davlat o'zining milliy manfaatini boshqa davlat manfaatidan ustun qo'ymasligi lozim. Agar biron bir davlat o'zining milliy manfaatlarini boshqa davlat manfaatlaridan ustun qo'yishga intilsa, unda ular o'rtasidagi ziddiyatlar kelib chiqishi muqarrar. Shuning uchun, birinchidan, tashqi siyosatda milliy manfaatlarga e'tibor berish zarurligi taqozo etiladi.

Ikkinchidan, tashqi siyosat zarurligi davlatlarning o'zaro aloqalarini o'rnatishda uning turli shakllaridan foydalanishni taqozo etadi.

Uchinchidan, tashqi siyosat zarurligi halqaro siyosiy munosabatlarning rivojlanishi ehtiyojlari bilan boglanadi.

Tashqi siyosatni olib borish jarayonida ichki va tashqi omillar ta'sir etadi. Ichki omillar obyektiv va subyektiv omillardan iborat bo'lib, uning obyektiv omillari mamlakat ijtimoiy rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi, subyektiv omillarga esa ichki siyosiy hayotda faoliyat ko'rsatuvchi subyektlar xatti-harakati kiradi.

Tashqi siyosatda amal qiladigan omillarga: halqaro xavfsizlikni ta'minlash, barqaror tinchlikni ta'minlash, davlatlar o'rtasidagi aloqalar, munosabatlar darajasi, davlatlararo ziddiyatlarni bartaraf etish kabilar kiradi. Ijtimoiy hayotda ichki va tashqi siyosat dialektik birligining namoyon bo'lishi, birinchidan, ichki siyosat va tashqi siyosat olib borish jarayonida mamlakatning rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash;

Ikkinchidan, har ikkala soha birligida birortasiga ustunlik bermaslik, ular o'rtasida uyg'unlik bo'lishini taqozo etishi;

Uchinchidan, davlatlar tomonidan ichki va tashqi siyosat bir vaqtning o'zida ishlab chiqildi va amalga oshiriladi. Har bir davlat ichki hayotidagi muammolarni hal etish bilan bir qatorda halqaro maydondagi muammolarni hal etishda ham ishtirok etadi.

Ammo ichki va tashqi siyosatni uyg'un olib borishda ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishini inkor etmaydi. Chunki mazkur sohalar bo'yicha siyosat olib borishda ularning har biriga alohida-alohida yondashuvni talab etadi. Lekin shunga qaramay, tashqi siyosatni amalga oshirish vositalari va usullari ichki siyosatdan farq qildi.

Ichki va tashqi siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadigan siyosiy kuchlar faoliyati ham turlicha bo'ladi. Siyosiy partiyalar, ommaviy-ijtimoiy tashkilotlarning ayrimlari ichki siyosatni olib borishda faol katnashish bilan bir qatorda, tashqi siyosatda umuman katnashmasliklari ham mumkin. Masalan, xotin qizlar, faxriylar kabi turli tashkilotlar tashqi siyosatda faollik ko'rsatmaydilar.

Bundan tashqari, davlatlar ichki va tashqi siyosat olib borish borasidagi vazifalari ham bir-biridan farq qildi. Chunki tashqi siyosatda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar turli davlatlar hayotiga daxldor bo'lsa, ichki siyosat vazifalari ham ichki ishlarga tegishli bo'ladi.

Ijtimoiy hayotda ichki va tashqi siyosat alohida-alohida mustaqil ravishda olib boriladi. Ichki siyosatda muhim o'zgarishlar bo'lgan bir paytda tashqi

siyosatda bir xil darajada davom etishi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Tashqi siyosatda halqaro siyosiy munosabatlarni yuritish, amalga oshirishning vositalari, usullari, yo'llari, intellektual qobiliyat, maxorat va san'atni talab etadi. Har bir mamlakatning tashqi siyosat olib borishida o'ziga xos milliy, tabiiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, huquqiy, mafkuraviy xususiyatlarini o'zida aks yettirgan holda shakllantiriladi va amalga oshiriladi. Ayniqsa, buni davlatlar o'rtasidagi diplomatik munosabatlarni urnatish va uni amalga oshirilishida yaqqol kurish mumkin.

Diplomatiya tashqi siyosatning asosiy vositalaridan biri bo'lib, davlatning rasmiy muassasasalari sifatida fuqarolar huquqlarini va manfaatlarini xorijiy mamlakatlar bilan aloqada bo'lish jarayonida muhofaza qilish vazifalarini amalga oshirishga xizmat qildi.

Diplomatiya jarayonlarida davlatlararo munosabatlar olib borish, xatlar va maktublar ayirboshlash kabi vazifalar vakolatxonalar orqali amalga oshiriladi. Diplomatik ishlarini olib borishining o'ziga xos belgilari, atamalari mavjud bo'ladi. Shulardan biri «elchi» tushunchasidir. Elchini maxsus farmonlar bilan davlat boshligi prezident yoki podsholar tayinlaydi. Agar ayrim sabablarga kura elchi o'z vakolatini bajara ololmasa, uning o'rniga muvvakat ishlar vakili tayinlanadi va u cheklangan doirada elchixona faoliyatini boshqarib turadi. Elchi o'z mamlakatining boshqa davlatdagi vakolatxonasi-elchixonani boshqaradi. Elchixona xodimlari diplomatik imtiyozlar va daxlsizlik huquqlariga ega bo'ladilar. Har bir davlat uz kuch kudrati, jahon miqyosidagi mavqeyi va real imkoniyatlariga qarab vakolatxona vakillarining sonini, martabasini, vazifasini belgilaydi.

Agar elchixona o'z davlati manfaatini himoya qilishni diplomatik yo'l bilan yaxshi olib borishni ta'minlasa, unda davlat hududida joylashgan iqtisodiy, savdo-tijorat, ilmiy-texnik, ma'naviy-madaniy aloqalarni rivojlantirish markazlari - konsulxonalar ham ochiladi va uni rasmiy ravishda tayinlagan konsullar boshqarib turadi.

Elchi va konsuldan tashqari ham diplomatik vakillar mavjud. Bu vakil xorijiy davlatlarda, halqaro tashkilotlarda yoki markazlarda doimiy yoki muvvakat makomda ish olib boradi. Bu lavozimni ayrim hollarda elchi martabasi darajasida bo'lishi ham mumkin. Masalan, BMTning xavfsizlik kengashi doimiy a'zolari vakillari xuddi shunday martabani egallab turibdilar.

Davlatlar o'rtasida «Nomalar» (Nota) ayirboshlash ham diplomatik munosabatlarning muhim belgilaridan hisoblanadi. Nota berish – bir davlatning boshqa bir davlatga muhim halqaro masalalar yoki o'zaro biron bir masala yuzasidan rasmiy murojatnomasi ma'nosini anglatadi. Bu siyosiy xujjatda bir davlat ikkinchi bir davlatga ayrim masalalar, muammolar yuzasidan davolar borligi yoki halqaro miqyosda ayrim davlatlarnig olib borayotgan siyosatiga noroziligi bayon etiladi. Shuningdek, notalar yoki boshqa rasmiy hujjatlar (memorandum, esdalik xatlari) axborot tariqasida yozma bildirish shakllarda bo'lishi mumkin.

Bulardan tashqari, davlatlar o'rtasidagi aloqa olib borish jarayonida iltimos, norozilik, ogoxlantirish kabi mulohazalar bayon etilgan hujjat «demarsh» ham mavjud.

Davlatlar o'rtasidagi munosabatlar halqaro huquq asosida shakllangan bo'lib va bu qonun-qoidalar to'g'ri diplomatik xujjatlarda o'z akslarini topishi lozim. Bularga: traktat, hartiya, axd (pakt), konvensiya, bitim, bayonot, rasmiy bildirish (kommyunike), shartnoma, rozilik alomati, kelishuv, turmush-tarzi (medus vivendi) kabi hujjatlar kiradi. Bular halqaro siyosatda muhim ahamiyat kasb etib, ular bir xil adliyaviy va huquqiy kuchga egadir.

Bunday siyosiy hujjatlar yozma ravishda ishlab chiqildi, vakolatli shaxslar tomonidan imzolanib, oliy hokimiyat tomonidan tasdiqlangandan keyin qonuniy kuchga kiradi. Bitimlar tuzish, xujjatlar tayyorlash jarayonida katnashayotganlar soniga qarab ikki yoki ko'p tomonlama bo'lishi hamda kushilish va kushilmaslik, ochiq yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin.

Halqaro bitimlar tuzishda muddatli yoki muddasiz bo'lishiga ham e'tibor beriladi. Belgilangan muddat tugagach, davlatlar uni uzaytirish uchun kelishib olishlari lozim. Imzolangan, kuchga kirgan xujjatlar bekor qilishi (denonsasiya) ham mumkin. Bu ishlar bir davlatning ikkinchi tomonga ogoxlantirish e'lon qilish orqali amalga oshiriladi.

Davlatlararo munosabatlarda rasmiy xujjatlar tayyorlangandan keyin muzoqaralar olib borish jarayonida diplomatik vakil o'z davlati manfaatlariga qarab ish olib boradi. Bu uz navbatida diplomatik vakilining «rizolik alomatini» (parafirovaniye) berishni talab etadi. Bunday belgi quyilgan siyosiy xujjatga to rasmi hukumat loyihani ma'qul deb topgunga qadar ayrim o'zgartirish, kushimchalar kiritilishi mumkin.

Tashqi siyosatda davlatlararo munosabatlarda amal kilinadigan qoidalaridan biri – diplomatik aloqalar urnatish haqidagi bitimlar imzolangandan keyin elchining davlat boshligiga «ishonch yorligi» xujjatini topshirish bo'lib hisoblanadi. Yorliqni qabul qilib olgan davlat boshlig'i esa elchiga va elchixona xodimlariga shaxsiy kafolat hamda o'zaro munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan faoliyatlarni qo'llab-kuvvatlash haqida so'z beradi. Shundan keyin elchi va uning xodimlari diplomatik daxlsizlik (immunitet) huquqlariga ega bo'lib, o'z faoliyatlarini boshlaydilar.

Agar elchi va elchixona xodimlari o'z burchlarini mazkur davlat xukm surayotgan tartib-qoidalar, qonunlar doirasidan chetga chikmasdan vazifalarini ado esalar, unda bunday shaxslar «ma'qul shaxs» (persona grata) sifatida tan olinadi. Bordi-yu, elchixona xodimlaridan birontasi yoki biron guruhi mavjud mamlakat tartib-qoidalarini buzsalar, unda xukumat rasmiy ravishda ularni «noma'qul shaxs» (persona non grata) deb e'lon qildi hamda diplomatik daxlsizlik huquqlaridan ham mahrum etadi. Agar bunday toifadagi shaxslar belgilangan muddatda mamlakatni tark etmasa, unda ularga nisbatan kuch ishlatiladi.

Har bir davlatning tashqi siyosati turli yo'nalishlarda olib boriladi. Shu turli yo'nalishlarning mohiyati va mazmunidan kelib chiqqan holda hozirgi davrda davlatlar amal qiladigan umumiy yo'nalishlar belgilab chiqilgan. Bular **birinchidan, davlatlarning tinchlik va xavfsizlik uchun ko'rashidan iborat.** Hozirgi vaqtda ayrim mamlakatlarda notinchlik vaziyatlarining sodir bo'lib turishi, harbiy harakatlarning ro'y berishi tinchlik va xavfsizlikka tahdid solmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimovning «O'zbekiston xavfsizlikning

yaxlitligi haqida asosiy tamoyilini qo'llab-kuvvatlaydi. Xavfsizlik uzluksiz xolatdir, xaddasiz, hududsiz» degan so'zlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda mintaqaviy mojarolar: Afg'oniston, Tojikiston, Checheniston, Isroil va Livan o'rtasidagi harbiy harakatlar ana shunday xavfsizlikka tahdid solayotganligi, bu mojarolar mintaqaviy doiradan chiqib, jahon miqyosiga tarqalib ketish xavfi ham to'g'riligi mumkinligi va ularning oldini olish yo'llarini izlab topishni taqozo etmokda.

Ikkinchi yo'nalish – umumbashariy muammolarni hal etishda davlatlar o'z imkoniyatlari doirasida ishtirok etishlari lozim.

Uchinchi yo'nalish – davlatlar o'z tashqi siyosati orqali halqaro vaziyatga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham halqaro vaziyatni sog'lomlashtirish uchun kurash asosiy yo'nalishlardan hisoblanadi.

Davlatlar tashqi siyosat olib borishda, halqaro vaziyat o'zgarishini to'g'ri hisobga olishi, uni baholay bilishi va to'g'ri xulosa chiqara olishi lozim.

Turtinchi yo'nalish – davlatlararo munosabatlarni takomillashtirib borish, uni chuqurlashtirish, kengaytirish masalalarini ham har bir davlatning tashqi siyosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu munosabatalar iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, harbiy hamkorlik shakllarida bo'lib, ularni to'g'ri yo'lga qo'yish va amalga oishirish bevosita tashqi siyosatga bog'liq bo'ladi.

Beshinchi yo'nalish – tashqi siyosiy yo'nalishlardan yana biri halqaro tashkilotlar bilan aloqalarni tashkil etish va rivojlantirishdan iborat. Chunki, halqaro tashkilotlar jahon siyosatini ishlab chiqib va uni hayotga tatbiq etishda katta rol o'ynaydi.

Olтинchi yo'nalish – davlatlar tashqi siyosati yo'nalishlaridan yana biri bu g'oyaviy muholiflikdan voz kechishdir. Totalitar tuzum davridagi g'oyaviy muholiflik hozirgi kunda insoniyatni jar yokasiga olib keldi, kirg'in keltiruvchi qurollarni ishlab chiqish, qurollanish poygasini keltirib chiqardi.

Davlatlar tashqi siyosatini olib borish jarayonida jahonda ro'y berayotgan o'zgarishlarga baho berishi, o'zaro o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini doimo xis etishi tashqi siyosat bo'yicha qabul qilingan qoida va normalarga amal qilishni talab qildi. Tashqi siyosat yurgizishda umumiylikka rioya qilish zarur. Bu har bir jahon siyosatining dolzarb muammolarini hal qilishda faoliyatlarini muvofiqlashtirib borilishini talab qildi. Bu obyektiv zaruriyat davlatlarning tashqi siyosati sohasida amal qiladigan tamoyillarning talablaridan kelib chiqadi. Bu tamoyillarga kuyidagilar kiradi: teng huquqlilik, g'oyaviy muholiflikdan holi bo'lish, halqaro munosabatlarga doir muammolarni hal qilish ishlarida faollik ko'rsatish va x.k.lar. Bu tamoyillar majburiy emas, ammo unga amal qilmagan davlat halqaro maydonda yakkalanib qolishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilikka erishgan dastlabki yillaridayok ishlab chiqilgan kuyidagi asosiy tamoyillariga amal qilib kelmokda:

«Birinchidan, o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligi;

Ikkinchidan, teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;

Uchinchidan, mafkuraviy qarashlardan qat'iy nazar hamkorlik uchun kelishish, ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;

Turtinchidan, halqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustunligi;

Beshinchidan, tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish». Urush va tinchlik masalasi hozirgi davrning eng dolzarb masalalaridan biridir. Urushlar to'g'risida turli xil g'oyalar mavjud. Shunday g'oyalardan biriga XVIII asrda yashab ijod etgan ingliz iqtisodchisi olim Maltus asos solgan. Uning fikricha, moddiy noz-ne'matlarni ishlab chiqarish bilan iste'mol qilish o'rtasidagi tengsizlik iqtisodiy muammolarni olib keladi. Moddiy noz-ne'matlarni ishlab chiqarish arifmetik tarzda o'sib borsa, odamlar sonining o'sishi esa geometrik progressiya asosida o'sib boradi, natijada ocharchilik va boshqa turli kasalliklar kelib chiqadi. Buning oqibatida, deb o'qtiradi u, moddiy noz-ne'matlarni ko'paytirishdan kura, ishlab chiqaruvchilarning sonini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar amalga oishirish lozim. Buning birdan-bir yo'li mamlakatlar va halqlar o'rtasida vaqti-vaqti bilan urushlar bo'lib turishi lozim deb ko'rsatadi.

Ikkinchisi, zo'rlik nazariyasidir. Bu nazariyaga ko'ra kuchsiz davlatlar kuchli davlatlarga bo'ysunib yashashi, qarshilik ko'rsatishsa, urush yo'li bilan ularni bo'ysundirish ko'zda tutiladi.

Uchinchisi, geopolitik nazariya bo'lib, unda aholi sonining o'sishi moddiy noz-ne'matlarga bo'lgan ehtiyojni qondira olmay qoladi. Shuning uchun ham yashab turgan hududlarni kengaytirish talab kilinadi. Bu esa faqat urushlar yo'li bilan hal kilinadi.

Turtinchidan, irqiy nazariya bo'lib, bunda odamlarning oliy va past irqga mansubligi, oliy irqning past irqqa nisbatan hukmronlik qilishi zarurligini isbotlashga intilish ko'zda tutiladi. Masalan. Germaniya fashistlari nemis millati oliy irq, boshqa halqlar ularga xizmat qilishi lozim, deb bosqichilik siyosatini oqlashga uringan edilar.

Urushlarning kelib chiqishiga qo'yidagilar sabab bo'lishi mumkin: a) mamlakat ichkarisida va halqaro maydonda faoliyat ko'rsatuvchi ayrim siyosiy kuchlarning u yoki bu davlat siyosatiga ko'rsatadigan ta'siri natijasida; 60-yillardagi AQShning Vetnamga qarshi qilgan urush harakatlari bunga misol bo'la oladi. b) ayrim davlat boshliqlarining (Chingizxon, Napoleon, Gitler, Mussolini va boshqa shunga o'xshashlarning) bevosita raxnamoligida urushlarning kelib chiqishi, u yoki bu davlatlarning tashqi siyosatida yo'l qo'yilgan xatoliklar ham sabab bo'lishi mumkin. Bunga hududiy da'vo, halqaro shartnomalarning bo'zilishi, halqaro huquq normalariga amal qilmaslik kabi salbiy holatlar misol bo'lishi mumkin. Iroq-Iron, Iroq-Quvayt, Isroil-Livan, Xitoy-Vetnam va boshqa davlatlar o'rtasidagi urushlar shular jumlasiga kiradi. v) Mustamlakachilikka qarshi olib borilgan milliy-ozodlik urushi ham bo'lishi mumkin. Bunda garchi qurbonlar bo'lsa ham, mamlakat, millat istiqboli yo'lida kurash olib boradi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda urushlarni turt turga bo'lish mumkin: 1) Jahon urushlari; 2) Mahalliy urushlar; 3) Fuqarolik urushlari;

4) Milliy-ozodlik urushlari. Bular ichida eng daxshatlisi jahon urushlaridir. Agar Birinchi Jahon urushiga bir mlrd. aholiga ega bo'lgan 36 davlat tortilib, 9 mln. kishi halok bo'lgan bo'lsa, Ikkinchi Jahon urushida 1 mlrd. 700 mln. aholiga ega bo'lgan 61 davlat qatnashib, 50 mln.ga yaqin kishi halok bo'lgan.

Urushlar o'z mohiyatiga ko'ra, adolatli yoki adolasiz bo'ladi. O'z milliy manfaatini himoya qilishga qaratilgan urushlar adolatli urush bo'ladi. Bunday urushlar jamiyat rivojida ijobiy rol o'ynaydi. Masalan, Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlarini milliy ozodlik kurashi olib borishi natijasida ijtimoiy hayotda chuqur sosial-iqtisodiy, siyosiy, madaniy o'zgarishlar yuz berdi.

Tinch-totuv yashash uchun kurash olib borish urushga qarshi qaratilgan eng ishonchli va samarali yo'ldir. Hozirgi kunda tinch-totuv yashash, barqaror tinchlikni ta'minlash zarurdir. Bunga sabab:

1) Dunyoning turli mintakalarida siyosiy va harbiy tuqnashuvlar yuz bermoqda. Bunday salbiy holatlar oldi olinmasa, unda bular asta sekinlik bilan mintaqalararo, qit'alararo urushlarga aylanib ketishi mumkin;

2) Kurol-yarog'larni ishlab chiqarish, yadro qurollarini sinovdan o'tkazish hamon davom etmoqda;

3) Jahon buylab mulkiy, iqtisodiy tengsizlik ko'chayib borayotganligi sababli davlatlararo ziddiyatlar ko'chayib bormokda;

4) Halqaro, davlatlararo qabul qilingan majburiyatlar atayin bo'zilmokda, shartnoma tariqasida imzolangan xujjatlar esa qog'ozda qolib ketmoqda;

5) Kollektiv xavfsizlikni ta'minlash masalasiga hamma davlatlar bir xil munosabatda bo'lmayotirlar, ayrimlari bunday umumiy ishdan chetda qolmokda.

Shunday og'ir bir vaziyat vujudga kelgan bir paytda tinch-totuv yashash uchun e'tiborni nimalarga qaratish lozim:

Birinchidan - nizoli masalalarni tinch, kelishish, siyosiy vositalar yo'li bilan hal etish; ***Ikkinchi***dan - davlatlar o'rtasida turli sohalarida hamkorlikni yo'lga qo'yish, rivojlantirish; ***Uchinchi***dan - har bir davlatning mustaqilligini, suverenitetini amalda e'tirof etish, ularning ichki ishlariga aralashmaslik; ***To'rtinchi***dan - davlatlar o'rtasida g'oyaviy muholiflikka yo'l qo'ymaslik; ***Beshinchi***dan - diniy, irqiy va milliy kamsitishlarning har qanday ko'rinishlariga barham berish.

Yuqorida zikr etilgan vazifalar ijtimoiy hayotga tatbiq etilsa, unda halqlarning tinch-totuv yashashlari uchun zamin yaratilgan bo'ladi.

Halqaro siyosiy tashkilotlar jahonda tinchlik siyosatini olib borishda katta rol o'ynaydi. Bu tashkilotlarning faoliyati asosan siyosiy muammolarni hal etishga yunaltilgan bo'lib, maqsad halqaro keskinlikni yumshatishdan iborat. Shu bilan bir qatorda bu tashkilotlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy masalalarni hal etishda ham faol qatnashib kelmoqda.

Ikkinchi Jahon urushi oxirlariga kelib halqaro munosabatlarni yagona ishlab chiqilgan siyosiy yo'nalishlar asosida boshqarib borish mexanizmini tashkil qilish zarurati kelib chiqaboshladi. BMT AQShning San-Fransisko shaxrida 50 davlat vakillari ishtirokida 1945 yil oktyabr oyida bo'lib o'tgan halqaro anjumanida tashkil etilganligi e'lon kilindi. Bu tashkilotning Bosh Assambleyasi (yalpi majlisi) bo'lib, u BMTning iqtisodiy va ijtimoiy Kengashini ham boshqarib boradi. Bu

kengash yiliga ikki marotaba yig'ilish o'tkazib, yigilishlarda halqaro miqyosdagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolar ko'rib chiqildi, muhokama etilgan masalalar yuzasidan qabul qilinadigan qarorlar inson huquqlarini himoya qilishga xizmat qildi.

BMTning asosiy muassasalaridan biri - bu Xavfsizlik Kengashi bo'lib, uning beshta doimiy a'zosi (Sovet Ittifoqi - xozir Rossiya, AKSh, Fransiya, Angliya va Xitoy) mavjud. Bosh Assambleyada saylanadigan BMTning kolgan xavfsizlik kengashi a'zolari har oyda kengash majlislarida navbati bilan raislik qildilar. BMTning Xavfsizlik Kengashi mazkur halqaro tashkilotga yangi a'zolar qabul qilish haqida tavsiyalar qildi, hamda uning Bosh sekretarini saylash haqida Bosh Assambleyaga o'z tavsiyasini beradi.

Bu tashkilot Bosh Assambleya bilan bir qatorda halqaro sud a'zolarini ham saylaydi. Harbiy Shtab Komiteti, Qurolsizlanish Komissiyasi, Ekspertlar komiteti kabi tashkilotlar Xavfsizlik Kengashi oldida hisob berib turadilar. Bu Kengash BMTning asosiy siyosiy tashkiloti bo'lib, uning zimmasiga halqlar o'rtasida tinchlik va xavfsizlikni saqlash mas'uliyati yuklatilgan. Bundan tashqari, u BMTning barcha a'zolari uchun qaror chiqarish huquqiga ega bo'lgan yagona organ bo'lib hisoblanadi. Vaziyatlar keskin tus olgan davlatlar o'rtasida aloqa vositalarini o'zish, diplomatik va iqtisodiy aloqalarini to'xtatish huquqlariga ham egadir. Ko'rilgan bunday tadbirlar ijobiy natija bermasa, unda qurolli kuchlarni ishga solish huquqi ham berilgan.

BMTning Vasiylik Kengashi ham mavjud. Vasiylik Kengashi o'z qaramog'idagi hududlarning boshqarilishini nazorat qilib borish, hokimiyatlarning yiliga bir marta hisobotini tinglash hamda halqlardan tushgan iltimos va talablarni ko'rib chiqish vazifasini bajaradi. Bu Kengash Bosh Assambleya tomonidan uch yil muddatga saylangan davlatlardan tashkil topadi.

BMTning Halqaro Sud tashkiloti mavjud bo'lib, u davlatlar o'rtasida paydo bo'lgan nizolarni kurib chiqishga, sud kurib chiqishi uchun topshirilgan kelishmovchiliklar yuzasidan qaror chiqarish vakolatiga egadir. Bu tashkilot a'zolari Bosh Assambleya va Xavfsizlik Kengashining maxsus majlisida to'qqiz yil muddatga saylanadi. Bulardan tashqari, BMTning faoliyatini doimiy ravishda ish olib boradigan Kotibiyat boshqarib boradi.

Hozirgi kunda BMTning ixtisoslashtirilgan muassasalari soni 16 ta bo'lib, eng muhimlari haqida qisqacha axborot berish joizdir. BMTning halq ta'limi, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti - YuNESKO 1946 yilda ta'sis etilgan. Uning Oliy rahbar organi - unga a'zo bo'lgan davlatlar vakillarining Bosh Konferensiyasidir. Bu konferensiya ikki yilda bir marta chakiriladi. Oliy ijroiya organi - davlatlar tomonidan saylanadigan 30 kishilik Bosh Kengashidir. YuNESKO tomonidan qabul qilingan qarorlarni ijtimoiy hayotda tatbiq etish uchun doimiy Sekretariat tuzilgan. Uning Shtab-kvartirasi Parijda joylashgan.

BMTning ixtisoslashtirilgan yana bir tashkiloti - «Halqaro bolalarni himoya qilish tashkiloti - YuNISEF» hisoblanadi. Bu tashkilot mehr-shafqat tashkiloti hisoblanib, yer yuzi bolalarining insoniy huquqlarini himoya qildi, yoshlarning yashashi, mehnat qilishi, bilim olish, ma'naviy-madaniy boyliklardan bahramand bo'lishi, sog'liqlarini saqlash muammolari bilan shug'ullanadi.

Halqaro Mehnat Tashkiloti ham BMTning ixtisoslashgan tashkilotlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu tashkilot mehnatkashlar ish vaqtlarini tartibga solib rejalashtirish, ishsizlikka qarshi kurash olib borish, kafolatli nsh xaqini belgilash, kasb kasalliklari va baxsiz hodisalardan mehnatkashlarni muxofaza qilish bilan shug'ullanadi. Bu tashkilotga 150 mamlakat a'zo hisoblanadi.

BMTning muhim tarmoqlaridan yana biri Jahon Sog'liqni Saqlash tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Bu tashkilotning maqsad va mazmunini halqlarning sog'lig'ini saqlash, tibbiyot ilmini rivojlantirish, bu borada halqaro hamkorlikni amalga oshirish, yer yuzida yukumli kasalliklarning oldini olish, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi masalalar bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va hayotga tatbiq etish tashkil etadi.

«Atom yenergiyasi bo'yicha halqaro vakillik - MAGATE» ham BMTning ixtisoslashtirilgan tashkilotlaridan biri bo'lib, atom yenergiyasidan tinch maqsadlarda foydalanish sohasida hamkorlikni rivojlantirish ishlari bilan shug'ullanadi. Bu tashkilot 1957 yilda ta'sis etilgan bo'lib, uning asosiy vazifasi yadro qurolini tarqatmaslik to'g'risida qabul qilingan shartnomalarning bajarilishini nazorat qilib borish, atom yenergiyasi sohasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalarini tinch maqsadlarda foydalanish ustidan ko'zatish ishlari olib borishdan iborat. Mazkur halqaro tashkilot atom energetikasi bo'yicha halqaro tartib-qoidalar dasturini ishlab chiqib, qabul kildi. Xozir 113 davlat MAGATE a'zosi bo'lib, ular o'z zimmlariga bu soha bo'yicha tegishli majburiyatlar qabul qilganlar. Uning asosiy organi Bosh Anjuman bo'lib, qarorgoxi Vena shaxridadir.

Tinchlik, halqaro xavfsizlik, har tomonlama hamkorlik bayroqdori bo'lgan BMT qoshida inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza etuvchi qumita to'zildi. 1948 yil 10 dekabrda bo'lib o'tgan Bosh Assambleya yig'ilishida tarixiy xujjat - «Inson huquqlari deklarasiyasi» qabul kilindi. Bu siyosiy xujjatda qayd etilishicha, har bir inson millati, irqi, jinsi, tabaqasi, tili, dinidan qat'iy nazar kasb tanlash erkinligiga, mehnat qilish va unga xak olish, mehnat sharoitlarini yaxshilashni talab etish, ishsizlikka qarshi kurash, qarilik nafaqasini olish, dam olish, vaqtincha ishga yaroqsiz kunlarga nafaka olish va boshqa huquqlarga ega ekanligi qayd etilgan.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, jahon siyosatini BMSiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki bu tashkilot halqaro dolzarb muammolarni hal etishda etakchi siyosiy kuch sifatida maydonga chiqqan.

Bundan tashqari, jahon siyosatini olib borishda mintaqaviy tashkilotlar ham katta rol uynamokda. Yevropa xavfsizligi va hamkorligi tashkiloti (YeXXT), Afrika Birligi Tashkiloti (ABT), Jahon Tinchlik Kengashi, Jahon demokratik Yoshlar Federasiyasi, Xotin-qizlar halqaro demokratik federasiyasi kabi halqaro siyosiy tashkilotlar jahon siyosatining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishda katta xissa qo'shmoqdalar.

BMT ustavida halqaro siyosiy tashkilotlar o'rtasida amal qiladigan tamoyillar o'z aksini topgan. Bu tamoyillarga quyidagilar kiradi: har bir tashkilot suverendir, uning tengligini hurmat qilish, ular ichki ishlariga aralashmaslik, halqaro maydonda ro'y beradigan kelishmovchiliklarni siyosiy vositalar bilan hal

etish, inson huquqlarini hurmat qilish, jahon siyosatini ishlab chiqishga o'z xissasini qo'shishdan iborat.

Halqaro siyosiy tashkilotlar o'rtasidagi aloqalar ham turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Shulardan biri ikki tomonlama va ko'p tomonlama uchrashuvlarning o'tkazilishidir. Mamlakatlar o'rtasida o'tkaziladigan bunday uchrashuvlarda kamchiliklar oshkora muhokama etiladi, u yoki bu masala yuzasidan fikr almashiniladi, turli halqaro muammolarni hal qilish yo'llari belgilanib olinadi.


Halqaro tashkilotlar o'rtasidagi aloqalarning yana bir shakli mintaqaviy va halqaro Kengashlarning o'tkazilishi bo'lib hisoblanadi. Bunday Kengashlarda ko'pchilik halqaro tashkilotlar qatnashib, tinchlikni saqlash va mustahkamlash, harbiy mojarolarni oldini olish, ekologik muammolarni hal qilish yuzasidan harakat yo'nalishlarini belgilab oladilar.


O'zbekiston 1992 yil 2 martda BMT a'zoliciga qabul kilindi va shundan beri uning ishlarida faol katnashib kelmokda. Xozir O'zbekiston BMTning iqtisodiy muassasalari, Jahon banki, Halqaro Valyuta Fondi, Halqaro Moliya Korporasiyasi, Halqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Sog'likni Saqlash tashkilotiga a'zo bo'lib, ular hayotida faol siyosat o'tkazmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi YuNESKO, YuNISEF, Yevropa Ittifoqi, YeXXT, NATO, EKO, Qushilmaslik Harakati kabi mintaqaviy tashkilotlar bilan samarali hamkorlik olib bormokda. Bular orasida Yevropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik qilish to'g'risidagi imzolangan Bitimni alohida qayd etish lozim. Masalan, 1996 yil dekabrda Lissabonda o'tkazilgan anjumanda O'zbekiston Respublikasi vakillari Prezident boshchiligida katnashib, xavfsizlik muammolariga doir masalalarni muhokama qilish jarayonida uz qarashlarini bayon etdilar. O'zbekiston Respublikasining YeXXTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirish to'g'risidagi da'vati qabul kilindi va u Lissabon deklarasiyasida rasmiylashtirildi. Shuningdek, mojarolar bo'lib turgan hududlarga yashirincha qurol-yarog' yetkazib berishni to'xtatish haqidagi xujjat ham qabul kilindi.

O'zbekiston Respublikasi NATO tashkiloti bilan ham hamkorlikni rivojlantirmokda. NATOning «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga O'zbekiston 1995 yili yo'l oyida qushildi. Chunki bu dasturda ishtirok etish respublikamiz mustaqilligini va suverenitetini mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy texnikaviy yutuqlardan baxramand bo'lib, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlar yaratadi¹.


Yuqoridagilardan kurinib turibdiki, halqaro siyosiy tashkilotlarning imkoniyatlari juda katta, bundan har bir davlat kanchalik unumli foydalansa, dunyo xavfsizligi va boshqa siyosiy muammolar shunchalik tez ijobiy hal etiladi.

46-sxema.







47-sxema.





48 – sxema.





50-sxema.





Savol va topshiriqlar:

1. Halqaro munosabatlar va halqaro siyosat tushunchasiga ta'rif bering.
2. Halqaro huquq tushunchasiga nimalar kiradi?
3. Halqaro munosabatlarda qanday tamoyillar amal qildi?
4. Halqaro siyosiy munosabatlarda halqaro siyosiy tashkilotlarning o'rni?
5. O'zbekistonning halqaro munosabatlardagi o'rni qanday?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. T., - 2008.
2. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6.-T., 1998. – B. 31-261.
3. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T. 3. – T., 1996. –B. 370-404.
4. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5.-T., 1997. –B. 104-131.
5. Karimov I.A. Milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida (O'zbekiston Prezidenti asarlarini o'rganuvchilarga yordam) / Tuzuvchilar: U. Tadjixanov, A.Saidov. – T., 1999. – B. 455-573.
6. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. T.8.-2000.-B. 22-46.
7. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9.-T.2001.-B. 21-60.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. T. 11. – 2003.-B. 67-89.

9. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlikimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. – T., 2004. – B. 3-67.
10. Karimov I.A. O'zbek xalqi hyech qachon, hyech kimga qaram bo'lmaydi. T. 13-T., 2005.-B. 174-222.
11. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T., 2008. –B. 176.
12. Karimov I.A. Bu muqaddas Vatanda azizdir inson. G'.G'ulom nomidagi nashriyot. T., 2010. –B. 115-128, 130-136.
13. Karimov I.A. «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi», «Xalq so'zi» 12 noyabr 2010 yil.
14. Qirg'izboyev M. Fuqarolik jamiyati: Siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. – T., 1998. – B. 13-46.
15. Odilqoriyev X.T., G'oyibnazarov Sh.G'. Siyosiy madaniyat. – T., 2004.-B. 23-59.
16. Otamurotov S. Glaballashuv va millat (falsafiy – siyosiy tahlil). – T., 2008. –B. 202.
17. Politologiya: O'quv qo'llanma / Otamurodov S., Ergashev I., Akramov Sh., Qodirov A. – T., 1999.
18. Pugachev V.P., Solovyev A.I. Siyosatshunoslikka kirish: O'quv qo'llanma. T., 2004. – B. 317-333.
19. Ramazonov I., Mo'minov E. Politologiya: Darslik. – T., 1997. –B. 218-235.
20. Odilqoriyev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. Darslik. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti. T.: 2009 B. 260-321.